


Rustamxon





XALQ DOSTONLARI

Rustamxon

DOSTON



Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2007

82 (20')

R 92

Aytuvchi **Fozil Yo'ldosh o'g'li**

Yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi
Hodi Zarifov

To'ldirib, qayta nashrga tayyorlovchilar:
Jabbor Eshonqul, Selami Fidokor

Xalq dostonlari — ajdodlarimizning ming yillardan buyon asrab, avaylab kelayotgan muqaddas merosidir. Donishmandlarimiz uni xalqning «Oltin beshigi» deb ataganlar. Chunki unda millat tarixi, ma'naviyati, o'zligi aks etgan bo'ladi. O'zbek kitobxonlariga yaxshi tanish bo'lgan «Rustamxon» dostonining ko'plab variantlari mavjud bo'lib, ularning orasida badiiy jihatdan eng mukammali Bulung'ur dostonchilik maktabining zabardast vakili, betakror san'atkor Fozil Yo'ldosh o'g'linikidir.

«Rustamxon» dostoni folklorshunos olim Hodi Zarifov tomonidan 1937- yilda yozib olingan qo'lyozma asosida ilk marta to'liq holatda nashrga tayyorlandi.

Vatanparvarlik, mardlik, muhabbat va insoniy fazilatlar ulug'langan mazkur doston barcha kitobxonlarga birdek manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

R 4702620104-66 - 2007
360 (04) - 2006

ISBN 978-9943-05-089-1

2008/56
3784

Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MK

© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007- y.



Zamoninda, Oqtosh viloyatinda Sultonxon degan o'tdi. Sultonxonning uch zaifi bor edi, tug'maydigan aybi bor edi. Sultonxon Oqtosh mamlakatida necha vaqt poshsholik qildi, yoshi qaytib, soqoli oqarib qoldi. O'ylab: «Endi menda farzand bo'lmasa, o'lsam, bu mulku mollar beega qolsa, o'zim o'lgan kuni mendan hech bir nishon bo'lmay poshsholik davlatimga bo'lak kishi ega bo'lsa menga foydasi yo'q. Endigi poshsholikni nima qilayin? Amaldorlarning hammasini yig'ib olayin, ular bilan bir maslahat qilayin, poshsholik bilan yurtini o'ziga berayin; poshsholikda orttirgan mol-u mulkimni xotinlarga topshirib, tarki dunyo qilayin», — deb, shu o'yni o'ylab, amaldor, jig'ador, tug'dor, sardor beklariga xabar qo'ydi. «Sultonxon chaqirdi» deb hammasi yig'ilib xonning xizmatida bo'lib turdi. Shunda Sultonxon ularga qarab bir so'z aytib turgan ekan:

Amaldorlar, quloq soling dodima,
Men kuyib yonaman o'z o'tima,
Menda endi biror farzand bo'lmadi,
Endi ega bo'nglar Oqtosh yurtima.
Befarzandman, o'z holimni bilaman,
Poshsholik, davlatni nima qilaman.
Tarki dunyo qilib, qalandar bo'lib,
Har shaharman shul shaharni axtarib,
G'arib bo'p qolgan umrim o'tkaraman.
Menga darkor emas bul mamlakating,
O'ylasam quriydi tandan quvvatim,
Yo'qdi bu dunyoda ko'rgan rohatim.

Mendan nishon bo'lmadi bir farzandim,
O'ylasam, beega mening davlatim.
Sizga qolsin Oqtoshdek mamlakatim,
Amaldorlar, endi ega bo'l endi,
Sizlarniki endi Oqtoshday yurtim.
Menga darkor emas shohlik shavkating!
Nima qilay bu poshsholik davlatim?
O'ylab tursam, o'tib ketdi navbatim.
Yo'qdir mening o'g'il-qizdan farzandim.
Ega bo'lsang, mana bul mamlakating.
O'ylab tursam, jigar-bag'rim ezildi,
Kechalar ko'z yoshim mening tizildi.
Poshsho bo'lib mening bag'rim ezildi,
Darkori yo'q bizga bepoyon eldi.
Kunduz men turaman shohlik shavkatda,
Oqshom g'am tortaman, boshim kulfatda.
Befarزند bo'p ko'p o'yladim albatta,
Vafosi yo'q bunday shohlik shavkatta.
Boshimni olib ketay bundan albatta.
Kumushtandir qarchig'aning chegasi,
Oltin bo'lar kiravka to'n yoqasi.
Goh kechalar o'zim yig'lab, mung'ayib,
O'ylasam, yo'q davlatimning egasi.
Men kimga gapiray dardimni yorib,
Poshshoman deb, men ham lofni urmayman.
Oldingda shul zamon bo'lganman g'arib.
Qani, ega bo'lgin mamlakatima!
Men ketayin bundan Ka'ba axtarib,
Endi umrim g'ariblikda o'tkarib.
Ko'nglimdagi qilg'an ishim pitkarib,
Ega bo'lgin bunda mamlakatingga.

Amaldorlar Sul-tonxon-dan bu so'zlarni eshitib, o'ylanib, bir nechasi hayron bo'lib, nima javob deyarini bilmay, nari-beri surlikib, o'zaro maslahat qilib, «bunga bir gapirib ko'rayik» deb:

— Ey poshshoyi olam, erta kun juma. Machitga namoz jumaga so'fi-yu-darveshlar yig'iladi. Namozjuma o'qilib, fotihani yuzga tortgan vaqtda sallangizni bo'yingizga solib tursangiz, darveshlardan fotihani olsangiz, farishtalar omin desa, zora sizga bir farzand bersa, — dedilar.

Bu so'z Sul-tonxon-ga ma'qul tushdi. Bachchag'ar, poshsholikdan umidini uzgisi kelmayotir-da.

Ertasiga juma bo'ldi. Machit odamlar bilan to'ldi. Namozjumani o'qib, fotiha yuzga tortilgan vaqtda Sul-tonxon amaldorlarning so'zini qulog'iga olib, sallasini bo'yniga solib, boshini egib, fotiha tilab turdi. Darveshlarning fotihagini oldi.

Hademay, o'rtancha xotini Huroyim homilador bo'lib qoldi. Oydan-oy, kundan-kun o'tib, Huroyimning oy-kuni yaqinlashib kela berdi. Sul-tonxon bir kechasi shunday bir tush ko'rdi. U tushinda shunday ayon bo'ldi: «O', sen Qurudim mamlakatiga safar qilsang, o'n to'rt yil deganda borib kelsang, shunda xudo bergan farzanding turadi, bo'lmasa nobud bo'ladi».

Sul-tonxon bu tushni hech kimga aytmay, Huroyimga aytdi:

— «Dunyoda bir qo'rqqan yomon, bir quvongan yomon» degan gap bor. Men qariganda farzandli bo'ldim. Men shu yerda yursam, sen bir kun tug'ib qolarsan, men quvonganimdan yuragim yorilib, o'lib qolarman. Qurudim mamlakatiga safar qilayin. O'n to'rt yilda borib kelarman. Oldimga suyunchi deb chiqqan kishiga ayamasdan tanga-tilla berarman, qulog'idan dunyoga ko'marman, balki qo'rg'onbegi qilarman, — dedi.

Sul-tonxon ketmoqqa ixtiyor qilib, taxti baxtini kimga topshirib ketish hisobini topmay, amalini, davlatini hech kimga ishonmay, hayron bo'lib, qozikalonlaridan so'radi. Qozikalonlar Sul-tonxon-ga aytdi:

— Huroyimning bo'yida bir homila-gumona bo'lsa, o'g'il ham bo'lsa — o'g'il, qiz ham bo'lsa — o'g'il, shariat otaning taxt-u baxtini o'g'ilga hukm qiladi. Gumonaning tufaylidan mamlakatni Huroyim so'rasin. Shariat yo'l beradi, — deb ko'rsatdilar.

Shunda Sul-tonxonning dimog'i chog' bo'lib, taxt-u baxtini Huroyimga topshirib, karnay-surnay chaldirib, odamlarini yig'dirib, o'zi jo'namoq harakatida bo'ldi. Poshsholik Huroyimga o'tib, Huroyim Sul-tonxonga qarab bir so'z aytib turgan ekan, deydi:

Xonim, eshit menday oyim arzini,
So'ldirmagin bunda gulday tarzini.
Mergan otar dayravotning g'ozini,
Xonim, angla Huroyimning so'zini.
El ko'chirib Olatog'dan oshirding,
Ulug' bilib nechovlarga bosh urding.
Bir necha dushmandan siring yashirding,
Toj-u davlatingni menga topshirding.
Necha vaqt Oqtoshda tanho to'rasan,
Taqdiringda nima borin ko'rasan.
Necha yillar surib bu elda davron,
«Qurudim» deb, xonim, ketib borasan.
Davlatim bor, ponza ro'mol urayin
Sarg'ayib tarzingga, xonim, qarayin,
Kelar mo'ljalingni, to'ram, so'rayin,
Necha vaqtda Oqtosh qaytib kelasan?
Bizga tashlab ketib mamlakatingni,
Obod qilib, so'rab turay yurtingni.
Men bilmayman sening qaytar vaqtingni.
Aytgin, to'ram, necha vaqtda kelasan?
Ostingda bedaving o'ynar yuz alvon.
Necha vaqtlar surding Oqtoshda davron?
Oqtosh deydi senday xonimning joyi(n),
Oldingda ot chopar qancha sipoyi,
Bu mamlakatlarning sensan poshshoyi,
Xabar bergin, necha vaqtda kelasan?
Sen ketgan so'ng men ham xafa bo'larman.

Ko'z tutib yo'lingga qarab yurarman.
Kelar mo'ljalningni aytsang, xonzoda,
Men yo'lingga peshvoz chiqib turarman,
Ochilar bahorda, bilsang, gul g'uncha,
Yurt egasi bo'ldim o'zing kelguncha.
Senday xizmat qilar menga ham necha,
Yurtga poshsho bo'lib menday oyimcha,
Holin bilmay ne ish qilar bir necha,
Bir kelar mo'ljalningni aytgin, xonzoda.

Sultonxon bu so'zlarni eshitib, dimog'i chog' bo'lib, otlanib Huroyimga qarab, murtini burab, uzangiga oyog'ini tirab, bir so'z aytib turgan ekan, deydi:

Men ketgan so'ng uydan chiqib o'tirma,
Do'st yig'latib, dushmanimni kuldirma.
Obod qilib so'ra mamlakatimni,
Bir yetar-yetmasga sirim bildirma.
Obod qilib so'ra mamlakatimni.
Yo'liqsam dushmani necha shoshtirdim,
Toj-u davlat, mulk-u molim topshirdim,
Men qanday so'rasam, shundayin bo'lg'in,
Oqtoshga seni men poshsho qildim.
Obod qilib endi yurtimni so'rab,
Poshsho bo'lib sen Oqtoshda o'tirgin.
Men topshirdim qatordagi norimni,
Endi senga g'aznadagi zarimni,
Ega qilib, toj-u davlatlarimni,
Harna bilgin manglayimda borimni.
Men senga topshirib kirdi-korimni,
Tojdor poshsho qildim senday yorimni.
Men ketgan so'ng nodon ko'ngling bo'lmagin,
Ko'p yashagin, ko'p yilgacha o'lmagin,

Yaxshilik ko‘r, yomonlikni ko‘rmagin,
Nodonlarman aslo sirdosh bo‘lmagin!
Ayolliq qib, nodon so‘zlab turmagin,
Toj-u davlatimni senga topshirdim!

Bu so‘zni Sul-tonxondan eshitib, Huroyim yori Sul-tonxonga qarab yana bir-ikki og‘iz so‘z aytib turgan ekan:

Tog‘-tog‘ning boshini cholgan tumon-a,
Har kim yig‘lab tursa oxir zamon-a,
Qo‘yib ketgin farzandingning otini,
Bo‘yimda qolgandir biror gumona.
So‘rab tursa bunda mamlakatini,
Poshsho bo‘lib senday xonning xotini.
Xizmat qilsa bunda necha sipoyi,
Obod bo‘lar senday xonimning joyi.
Mana, eldan o‘zing ketib borasan,
Bir mo‘ljaling, o‘n to‘rt yilda kelasan,
O‘n to‘rt yilni menga muhlat berasan,
Bolangning otini nima qo‘yasan?
Eshitgin dilbarning aytgan dodini,
O‘zing qo‘ysang farzandingning otini,
Nima deb amr etsang, ani qilarman,
Aytsang farzandingga otin qo‘yarman,
Nima desang xizimatingda tayyorman,
Shul sababdan ko‘nglingdaging so‘rarmen,
Meni qilib ketding yurtingga ega,
Menday oyim jasadingdan sadag‘a,
Qo‘yib ketgin farzandingning otini.

Bu so‘zlarni Huroyimdanda eshitib, Sul-tonxon bir so‘z aytib turgan ekan, deydi:

Dunyoni yaratgan qodir xudoyim,
Cho‘p-u xasdan ko‘pdir qilgan gunohim,

Sen o'zingdan rap qolarmi, Huroyim?
O'g'il tug'sang otin qo'ygin Rustamxon,
Qiz tug'sang gul yuzli, o'zing bilasan.
Men ko'rayin Qurudimning yurtini,
Cho'li, dashti, necha mamlakatini,
Sen so'rab tur munda Oqtosh yurtini,
Yaxshi qilgin bekning mamlakatini.
Shunday deb otin qo'y ul farzandini,
Quloqda tut xonning nasihatini.
Nima desam aytganimni qilasan,
Ixtiyor o'zingda, dilbar, bilasan.
Poshsholiqni mamlakatta qilasan.
Bu so'zlarni endi Sultonxon aytdi,
Xo'shlab, Huroyim bunda qolibdi.
Sultonni uzatib yo'lga solibdi,
Poshsho bo'b Huroyim endi turibdi.
Sultonxon jo'nadi shahardan chiqib,
Qancha odam mahramlari jam bo'lib!
«Qurudim» deb, mamlakatni axtarib,
Tushida ko'rganin bul o'zi qilib.
«Uxlab yotib ko'rdim, unda boray», deb,
«Shul tushning shartini tug'ri qilay», deb.
«O'n to'rt yilgachayin unda turay», deb,
«Nasib qilsa so'ngra qaytib kelay», deb.
Shunday qilib ketdi ko'rmagan yurtga,
Qamchi bosib haydar cho'llarda otga,
Gohda to'p-to'p bo'lar, gohlarda yakka,
Cho'llarning to'zoni ketib falakka.
Shunday deb Oqtoshning xoni jo'nadi,
Cho'llarda boradi ko'nglini xushlab,
Ko'rgan tushman Oqtosh yurtini tashlab.

Necha poshsholardan davlati g'olib,
To'p-u to'pxonaman lashkarin olib,
Shunday qib jo'nadi Oqtoshning xoni,
Borayotir Qurudimni axtarib,
«Sayr etib necha yillar yursam» deb,
«El-u xalqni shunday qilib ko'rsam», deb,
«Oqtoshning yurtiman birga qilsam», deb,
«Elni ko'rib, yurtga katta bo'lsam», deb,
«Dunyoning ayshini shunday sursam», deb.
Oqshom yotib, kunduz jo'nab boradi.
Cho'llarda ostiga mingani tulpor,
Xizmatida olti yuz mahrami tayyor,
Qanchayin sipohiman adadsiz lashkar,
Shavkati olamni bosib boradi.

Shunday qilib, yo'l yurib, Qurudim mamlakatini yoqalab, chodir-chaman tikib qo'ndi. Bu yerlar tevaragidagi ellar, necha qo'rg'on so'rab turgan beklar ilgaridan ham bir-biriga ma'lum. Sultonxonga goh boj berib, goh bermay qaytib turar edi.

Bular — Urganch, Xorazm, Xeva beklari, Din Kamon xonlari edi. Bular Sultonxonning kelishini ko'rib, o'zaro maslahatda bo'lishdi:

— Biz Sultonxonning ixtiyoriga goh kirib, goh kirmaganimiz uchun yomon xayolda kelgan. Bu, adadsiz lashkar, qancha to'p-u anjomdor bekorga kelmagan. Bo'lak o'yda kelsa, buncha shavkat bilan chiqmas edi. Bizda bekor ko'p lashkar yo'q. Biz har qaysimiz bitta-bitta qo'rg'onning egasimiz. Xalqdan yig'ilgan to'sat-to'sat, dasta-dasta lashkar tarqab ketgan. Mamlakat, el-u xalq och-yalang'och, bari tentirab qolgan. Bu xizmatkor fuqaro xalq qasd qilganda, kaltagini sudrab chiqib urishib tursa, bularga hech kim barobar bo'lolmas. Bularni otlantirib, Sultonxonning ustiga bosib bormoq bizning qo'limizdan kelmas. Ustimizga keldi, biz qancha mol-dunyoni olib borib ko'rmog'imiz darkor.

Amaldorlar bu maslahatni qilib, mamlakatning amaldorlari Sultonxonga borishli-kelishli bo'lib yotdi.

Huroyim Oqtosh mamlakatida poshsholik qilib, ichkarida arz so'raydi. Uning Ximcha degan kanizi bor edi. Ximcha tillari bulbulcha kimni yaxshi desa shuncha, ikki yuzi ochilgan gulcha, bellari xipcha, o'zi suluv oyimcha. Ximchaoyim tashqarida arz so'raydi. Navbat tegmaganlar talashib yotadi, to uni ko'rguncha.

Huroyim Oqtosh mamlakatida, mamlakatni zartang-zabartang qilib, Sultonxondan ziyoda ish tutib turabardi. Huroyimning ish tutuviga ikki kundosh bezovtalik qila berdi.

Sho' vaqtida Huroyimning vaqti yetib, oyi bitib, bir o'g'il tug'di. Otini Rustam qo'ydi.

Rustam birga, ikkiga, uchga kirdi. U tilga kirgandan keyin, Huroyim madrasadan bir mullani keltirdi. Mulla bilan Rustamxon ikkovini tagizaminga solib, o'qitib yota berdi.

Bir biyasi bor edi. Rustam paydo bo'lgan kuni bu ham bir erkak qulun tuqqan edi. Huroyim: «Bu bolamning oti» deb tablaga torttirib, bir sayis solib boqtirib qo'ydi.

Farzandga tanqis ona: «Bolam kamolga kirsam, ot beliga minsa, ikki tozini iyartib, saholarda gasht qilib yursa» deb ikkita tozini ham tepkiga solib boqib yotar edi.

Ikki kundosh: «Zamon Huroyimniki bo'ldi» deb, nima qilarini bilmay, o'y o'ylar edi. Shu Oqtosh viloyatida daftariy mastondan uch yuz oltmish maston bor edi. Uch yuz oltmish mastonning boshlig'ini Momagul maston der edi. Mazgili shahardan tashqaridagi bir g'orda edi. G'orda yotar edi, xurakni baland tortar edi, botmon nosvoyni to'rt bo'lib otar edi, yurish-turishi odamlarga xatar edi, ne-ne er yigitlarni ikki pulga sotar edi, yaxshilikni uch pulga olmay, qayerda yomonlik bo'lsa — izlab topar edi. Qanday odam bo'lsa, bu kampirdan hazar qilib, uzoqqa qochar edi; yomonlik izlab kelgan odamning ishi shu mastondan bitar edi.

Ikki oyim Momagulni ko'ngliga olib: «Shunga borayik, bir arz qilib ko'rayik» deb ko'rmasa ham, so'rog'lab borib qoldi. «Momamiz g'ordamikan, yo bir alla go'rdamikan» deb borayotib edi, shul vaqtda momasi g'ordan chiqib

qoldi. Momasining afti-jasadini ko'rdi, shunday: manglaylari cho'tday, ko'zlari o'tday, jag'ining go'shti qochgan, yon yog'idan tarlon ochgan, yaxshilikdan mudom qochgan.

Oyimlar aytdi: «Xalqning aytganidan ziyoda ekan». Oyimlar momasiga arz qilib, Huroyimning ustidan bir so'z aytib turgan ekan:

Oh tortganda mening so'lgan tarzim bor,
Jonim moma, senga aytar arzim bor.
Sen eshitgin oyimlarning so'zini,
Oyimlarning senga qilgan arzini.
O'ynab-o'sgan makonimni sel oldi,
Mazgil-makonimda, bilsang, o't yondi,
Oltin taxtli kulbalarim vayrondi(r),
Oyimlarning xasta ko'ngli vayrondi(r).
Eshit, moma, oyimlarning tilini,
Vayron qilsang bunda Oqtosh elini,
Xazon qilgin tar ochilgan gulini,
O'lsin deymiz Huroyim ham ulini.
Yana bahor bo'lsa, ochilar gullar,
Gulni ko'rsa, mast bo'b sayrar bulbullar.
Bulutlar mast bo'lsa, chalqiydi ko'llar,
O'tga yonsin Oqtosh elda kirdikor,
Dunyoni so'rasang, bizda ko'p bo'lar.
Jonim moma, bo'la ko'rgin xizmatkor!
Dardliman, dardimni kimga yoraman,
Hasratidan eldan-el axtaraman.
O'zgalardan sizni yaxshi bilaman,
Xizmatingga bir qop tillo beraman.
Vayron qilgin Oqtosh mamlakatini,
Nima desang xizmatkoring bo'laman!
Ko'p yig'layman menam sochimni yoyib,
Bo'lib qolsin Oqtosh shahri besohib,

Moma, sizga so'z so'zladik mung'ayib,
Arz aytamiz endi sizga sarg'ayib.
Bizga dushman bilmaganin bildirgin,
Xanjar urmay, bag'rin qonga to'ldirgin,
Mamlakatdan buni benasib qilib,
Huroyim ham yolg'iz ulin o'ldirgin!
Jonim moma, endi shu ishni qilgin!

Kampir oyimlardan bu so'zlarni eshitib, qaradi — dunyodor, bir qop tilloga ko'ngli to'lmay, ularga qarab bir-ikki og'iz so'z aytib turgan ekan:

Ochilar bahorda bog'larning guli,
Bir qop tillang bizga bo'lmas choy puli,
Obod bo'пти davlatmandning mazgili,
O'ynab-kulib yursin Huroyim uli,
Ketaber, oyimlar, koring qilmayman,
Oh urganda xasta ko'nglim xushladim,
Burungiday yomon savdom tashladim.
Uch kun bo'ldi yangi namoz boshladim,
Yaxshilik yo'llarni mahkam ushladim,
Ketaber, oyimlar, koring qilmayman.
Meni senam burungiday bilasan,
Halak bo'lib mazgilimga kelasan,
Meni yo'ldan urib nima qilasan?
Bovangning odatin o'zing bilasan,
Ketaber, oyimlar, yo'ldan qolmagin!
Qurg'ur cholga duchor bo'lib yurmagin.
Ko'rib qolsa, seni koyish qiladi.
Qilma deydi, so'ngra meni uradi,
Hammamizga qattiq azob beradi,
Qizlarim, ko'nglingni qora qiladi!
Qursin bovang, bilgin, odati yomon,
Yurgan yeri hamsha qayg'uli tumon,

Tilozor qib tangrim uni yaratgan,
Hayallamay qayta bergin bul zamon!
«Poshsho Huroyimga dushman bo'lding», deb,
Ko'rsa ikkovingni koyish qiladi,
«Tilozorlar qaysi go'rdan kelding», deb,
«Kampirimni aldab yo'ldan urding», deb.

Oyimlar bu so'zlarni eshitib, o'ylanib, «yana gapirib ko'rayik, bir qop tillong choy puli ham bo'lmaydi, degan yeri bor edi, qani picha oshirib ko'rayik», deb bir-ikki og'iz so'z aytib turgan ekan:

Jonim moma, mening bag'rim ezildi,
Hafa qip qaytarma ikki qizingdi,
Quloq solib yaxshi tingla arzimdi,
Qancha bo'lsa dunyo bermoq lozimdi(r).
Holim ko'rib ahvolima yig'layin,
Kuyganimdan gapni gapga ulayin,
Moma, sening xizmatiningni bilayin,
Bir qop emas, to'rt qop tillo berayin!
Nomingni eshitdim **kashmiri** — ayyor,
Shunday xizmat bo'lsa, **sen mudom** tayyor,
Ketmasin noumid bo'p bundan oyimlar,
O'zing bo'lgin endi xizmatga tayyor.
Bilganimni, moma, senga aytaman,
Ahvolima oh-u fig'on etaman,
Bunda so'zlab, endi senga dod etib,
Yaxshi javob bersang edi, qaytaman.
Haddan oshib ketdi ko'rgan mehnatim.
Qo'ldan ketdi bari shohlik davlatim,
O'ylasam, ko'p bo'ldi mening hasratim,
G'olibdi bizlardan nega Huroyim?
U bizlarni qayg'u g'amga duch etib,
Huroyim Oqtoshga ega bo'libdi,

Jafo ko'rib ikki oyim kelibdi,
Umid tortib, arzin qilib yuribdi.
Yo'ling bo'lmasin-da bu yerda xatar,
So'ylagin, oyimlar senga ko'z tutar.
Ko'p ishdan, momajon, o'zing xabardor,
Ikki oyim bo'ldi senga intizor.

Maston kampir bu so'zni oyimlardan eshitib: «Birdaniga uch qop tillo qo'shildi, endi ish picha o'nglanay dedi», — deb oyimlarga qarab bir-ikki og'iz so'z aytib turgan ekan:

Sen yig'lading, mening ko'nglim buzildi,
Xafa qildim senday ikki qizimdi,
Yig'lamanglar, mening bag'rim ezildi,
Senga aytsam men ham so'zman javobdi.
Birovning ko'nglini olmoq savobdi(r).
Ko'p yig'lama, ko'z yoshingdan, oyimlar.
Bir xizmatni momang qilmay ne bo'пти.
Yomon odam qon-u zardob ichirar,
Bir gunohni yaratgan haq kechirar;
Ikkovning ham xafa bo'lma, sanamlar,
Xizimatingni momang bajo keltirar.
Sira nomardlarga ko'ngil bermagin,
Momangni nomardga hamroh qilmagin,
Sen yomondan behuda savol so'rab,
Mazgilga yetolmay yo'lda qolmagin.
Bolam, quloq solgin aytgan so'zima.
Ko'p qayishdim senday ikki qizima. *minnag'*
Sen bergan dunyongni ko'p ulgi qilma,
Dunyo uchun ko'ndirdim deb gapirma,
Ko'ngling uchun bu xizimatingni qilaman;
Endi bildim, bolam, hojating shulmi-a?
Yuboray dushmanning bag'rini ezib,

O'z boshiga ketsin yurtini buzib,
Sendayin qizimni munda kuldirib,
Dushmaningga ayyorligim bildirib.
Nima desang aytganingni ko'ndirib,
Qayta boshdan sizni taxtga mindirib,
Xafa bo'lib g'am yemagin, farzandim,
Senga toza shodmonlikni bildirib.

Oyimlar maston kampirdan bu so'zlarni eshitib:

— Qani, biz bilan birga yuring, tanga-tilloni — haqingizni olib keling, — dedi.

Kampir aytdi:

— E bolam, falonchi kampir sochi oqarganda Sul-tonxonning g'aznasiga o'g'irliqqa kelib yuribdi, degan otni ham eshitayinmi?! Shu yerga keltirib bersang, o'z tosh-tarozim bilan tortib olsam, ziyod chiqsa haqingni beraman, o'z haqimni olaman, — dedi.

Oyimlar aytdi:

— Esa, bizga ulov bilan qop topib bering.

Kampir to'rt qopni to'rt eshakning ustiga solib, oyimlarga qo'shib haydatib yubordi.

Bular g'aznaxonaga yetdi. Eshaklarni shosupaning pastiga qo'yib, o'zlari shosupaning ustida qoplarning og'zini ochib, beli og'rimay topgan tanga-tillolarni qopga solaberdi. G'aznaxonadan xabar olib turgan o'zga kishilarning ishi bo'lmadi. «Huroyim ham poshshoning xotini, bular ham poshshoning xotini, bir gap aytib gunohkor bo'lmayik, nima javob aytsa, o'zlari aytar», deb indamadi.

Oyimlar eshaklarni shosupaga yaqinlatib, qoplarni ortib, mastonnikiga olib bordi. Kampir qoplarni eshakdan tushirib ko'rdi. Oyimlar aytdi:

— Qani, moma, tosh-tarozingizni quring, haqingizni tortib oling!

Kampir cho'tlab ko'rdi: Agar tortsa, har qopi botmon dahsari, botmon ponsari chiqaberadiganday. Ziyod chiqishini bilib, kampir aytdi:

— Bolam, shuni tortib, tarozini shaqillatib, g'alvani ko'paytirib yuramizmi? Cho't-cho'tdan ziyod ketarmi? Yo ponsari bizdan ketar, yo dahsari sizdan ketar. Ag'darib qo'ya qolaylik?

Oyimlar nima deydi, ish qilib, ishlari bitsa bo'ldi: «Maylingiz, moma!» — dedilar.

Kampirning dimog'i chog' bo'ldi: «Savdomiz to'rt qop bo'ldi, olti qopga tushirdim-da!» deb qoldi. Tanga-tilloni saranjom qilib, ag'darib olib, oyimlarga javob berdi.

Kampir bu dunyodan to'rt yuz tangani olib, yoniga solib, Oqtosh shahrini oralab chiqib ketdi. Bir rastada borayotib edi, bir supada to'rtta mulla, non puli topay deb, rangi o'chib, xayoli qochib o'tiribdi. Bu mullalar Koyiston mamlakatidan kelgan mullalar edi. Bular mullalik, imomgarchilik qilib, pul topmoqqa kelgan edi. Kampir to'rt yuz tangani to'rt mullaga berdi. Mullalarning vaqti xush bo'lib, kampirdan: «Bizga bu pullarni nima uchun berdingiz? Ilmning hurmatiga berdingizmi, yo zakot, jonibidan berdingizmi, yo xayri xudoyi deb berdingizmi? Yo savob uchun berdingizmi?» deb so'radi. Kampir aytdi:

— Mening zakotga yetgan davlatim yo'q. Savob, xayri xudoyi bilan ham ishim yo'q, bolam, mening savob soladigan idishim ham yo'q. Men sizlarga to'rt yuz tangani berdim, mening nima deganimni xatga solasan, gapirganimni arza qilasan. Shunday qilib yozasan: o'qiganda bir-biriga to'g'ri kelguday, o'qigan odam ma'nosini bilguday, bitgan arzang Sultonxonning qoshida mu'tabar bo'lguday bo'lsin!

Kampir mullalarga shunday bit deyotir:
Nima deb, amr etsam, shuni qilinglar,
Huroyim ustidan dodqa bo'linglar,
Shunday qilib, bolam, xatga solinglar:
Oqtosh elda Huroyimi qurisin,
Tul badani qora yerda chirisin,
Ergashtirdi yoshi bilan qarisin,
Yig'ib oldi yigitlarning barisin!
Ko'chalarda quloch urib yuradi,
Oqtoshning shahrini shunday bulg'adi,
Mehmonxonalarda bazm beradi,
Chiroq o'chirib, hamisha o'ynab-kuladi.

Oqtosh elda Huroyimi qurisin!
Sultonxonning yuzin tuman qiladi.
Poshsho qilgan xotining shunday qildi.
Qay betiman Sulton elga keladi?!
Ko'ringan yigitni qaytarib olib,
Kim bo'lsa qo'lini bo'yniga solib,
Poshshoyim, Huroyim yoring qurisin,
Oqtosh shahring ketdi bari bulg'onib,
Sultonxon, bul ishdan o'zing bexabar,
Huroyim ko'nglida buzuqchilik bor;
Katta-kichik shohning holiga kular.
Huroyimning elda nimi ishi bor?
Atrofida alvon-alvon yigitlar,
Shunday qilib elda davronin surar.
Nima qilsa Huroyimda ixtiyor,
Yurt bo'lg'andi, shohim, qanday gap bo'lar?
Huroyimning yomonligin ko'rsatib,
Bul arzaga bitayotir mullalar.
Necha so'zni bunda kampir amr etti,
Qo'l bosdim qip necha xalqi-elatni,
Bul ishlardan xalqning xabari yo'qdi(r),
Shunday qilib, mulla arza xat bitti.
Bitayotir to'rt yuz tanga hurmati,
E'tiqodman mullalarning xizmati.

Mullalar xatni bitib tamom qilib edi, Oqtoshda qolgan katta-kichik amaldorlar, olti yoshlardan oltmish yoshargacha, yetti yoshardan yetmish yoshargacha bo'lgan odamlarning otini yozib, hech kimning xabari yo'q, qo'l bosdim deb, ularning qo'lini qo'yibdi.

Kampir bu xatni o'qitib eshitib, dimog'i chog' bo'lib, ro'molining uchiga tugib oldi. Yog'ochdan qildi otni, qog'ozdan qildi qanotni, po'latdan qildi murvatni, endi kampir qilib to'g'ri g'ayratni.

Kampir mindi yog'och otdi,
Buradi po'lat murvatdi,
Havoga kampirning oti —
Shul zamonda chiqib ketdi.
Borayotir kampir ayyor,
Bo'lib bulutga barobar,
Bul osmonda yarqillaydi,
Falakda uchib yo'l olar.
Jo'nadi kampiri ayyor.
Ko'nglida ancha gapi bor:
Bul osmonga chiqib ketgan,
Buni ko'rmas turgan ellar.
Borayotir pastga qarab,
Huroyimman bo'lib taraf,
Tez yursin deb, borar ko'kda,
Otining murvatin burab.
«Sultonxonga borsam, deydi.
Arzim-dodim qilsam, deydi.
Oqtosh degan mamlakatni
Bunda vayron qilsam», deydi.
Ko'kda borar otin tezlab,
Mudom yomonlikni izlab.
Bul osmonda yurib qarar.
Pastga tashlab uchgan vaqtda,
Ko'ziga ko'rinar ellar.
Yarqillashib katta ko'llar.
Shunday bo'lib borayotir,
Buzuqlikka kampir botir.
Qurudimni bul yoqalab,
Chodir tikib poshsho yotir.
Bul yaqinladi-bordi.

Shul zamonda ko'rib qoldi,
Ul Sultonxon yotgan yerni
Murvatini chapga burab,
Aylanib bir yerga qo'ndi.
Yomonlikni mahkam ushlab,
Jirandaga otni tashlab,
Kampir yayov-piyodadi(r),
Ko'p alami ziyodadi(r).
Ko'zidan to'kib yoshini,
«Dod!» deb chiqarib dovshini.
Hechkim buni bilmas endi,
Ayyor kampirning ishini.
Sochin yoyib, betin yulib,
Yo'lga kirdi chaqqon bo'lib,
Ko'p qayg'uli g'amga to'lib,
Borayotir qurg'ur kampir.
Tikilgan chodirmi ko'rib,
Kampir boradi yo'l yurib,
Qarar yo'liga termulib,
Borayotir yayov yo'rtib.

Sultonxin chodirda o'tirib edi. Dasht yer, pana qiladigan narsa yo'q. Qaradi, Oqtosh tarafidan bir qora mildirab kelayapti, ko'rib o'n to'rt mahramini buyurdi:

— Oldiga peshvoz chiqinglar, mabodo bizga xudo o'g'ilmi, qizmi berib, suyunchiga kelayotgan qoramikan?

O'n to'rt mahram oldiga chiqib ketdi. Qarasa, bir kampir, hech kim bilan ishi yo'q, og'zida tishi yo'q; sochini yoyib, betini yulib, yig'lab kelayapti. Mahramlar aytdi: «E attang, buning yurishidan yaxshilik xabar emac. Xudoning xonga bergan o'g'limi, qizimi — farzandi o'lipti-da, Oqtosh mulki yana besohib bo'lipti-da. Xayolida poshshoning yurti egali bo'lganday bo'lib qolib edi. Endi qanday bo'sa, so'zning anig'ini bilayik, bu kampirdan so'rayik», — deb bu mahramlar kampirdan so'z so'rab turipti:

«Jonim moma, xizmat etay bir alvon,
Olmos po‘lot belda, egnimda qalqon.
Soching yoyib sen yig‘laysan, mehribon,
Mahram savol so‘rar, kelgin momajon!
Bir jarohat, jigar-bag‘ringni tuzlab,
Yig‘laysan cho‘llarda bo‘taday bo‘zlab,
Ishing bo‘lmay yig‘lab ketib borasan,
Momajon, kimni sen borasan izlab?
Palak urib bog‘da gullar so‘ldimi?
Xudo bergan shoh farzandi o‘ldimi?
Oqtosh yurti boz besohib bo‘ldimi?
To‘xtab turib, bizga bergin xabarni,
Moma, xafa qilma bul mahramlarni.
Davlatim bor, sholi-sholdom o‘rayman,
Gul tarzim sarg‘ayib senga qarayman,
Men bilaman, Oqtosh eldan kelasan,
Ulmi, qizmi Huroyimning tuqqani?
Rostin aytgin, moma, sendan so‘rayman?
Bizlar xafa bo‘ldik sening holingga,
Piyodalab yo‘l tortgan ahvolinga,
Yo bir gap bo‘ldimi Oqtosh elinga?
Xabar bergin, qanday bo‘ldi mamlakat?
Poshshomiz Oqtoshdan bul chiqib ketdi.
Necha oy, necha yil oradan o‘tti.
Bir xil odam mamlakatni unitdi.
Bilmaydi elatda ne bo‘lgan gapdi,
Biz so‘raymiz unda qolgan elatdi,
Abgor bo‘lib yig‘lay berma, uyatdi(r),
Seni odam bilib mahram so‘z qotdi!»
Mahramning so‘ziga quloq solmadi,
Kampir mahramlarni pisand qilmadi,

Borayotgan kampir yo'ldan qolmadi,
Kampirning xayolin mahram bilmadi.
Mahramlar keynidan ergashib ketdi.
«Bul kampirni, ul qayerga borar», deb.
«Chodir ko'pdir qaysisiga kirar», deb.
Necha chodirlardan oralab o'tdi,
Sultonxon qoshiga bul kampir yetdi.

Shunda bo'lak yoqqa burulmay, kimda ishi bor ekanini hech kim bilmay, mahramlar ham ergashib kelib otidan tushdi. Kampirdan hech gapning tayinini bilmadi. Chodirda kampir Sultonxonga ro'para bo'ldi. Bul poshsho deb, irqilmay turdi. Mahramlar qoshiga ro'para kelib: «Eshitayik, qani yaxshilikmi, yomonlikmi bizga aytmadi. Nima xabar olib keldi ekan? Nima gap bo'lsa, poshshoning o'ziga gapirar ekan», — dedi. Shunda kampir Sultonxonga qarab, bir so'z aytib turgan ekan:

«Ayo shohim, sizga aytar arzim bor,
Senichun gulday so'lgan tarzim bor,
Oqtosh eldan mehnat tortib kelaman,
Sabil bo'ldi Oqtosh elda kirdikor.
Kuyganimdan yetkazdim men sizga xabar,
Vayron bo'lib ketdi Oqtoshday shahar,
Bo'lgan ishdan senday shohim bexabar.
Yurt topshirib kelgan Huroyim yoring,
Necha yillar o'tdi, yo'qdir xabaring.
Ko'chalarda o'yin-kulgi qiladi,
Yigitlarga hamisha bazm beradi,
Odam iyaradi uning ketidan,
Yosh-u qari qolmay birday yuradi,
Hamma ko'rib, shohim, sizga kuladi.
Kuyib-yondik sira qolmadi toqat,
O'ylaganda elga buldi qiyomat,
Bu so'zimga ishonmasang begizot,

Katta-kichik qolmay qo'l bosti qilgan,
Mana, shohim, o'qib ko'ring arza xat». Bu so'zdaytib kampir ko'zin yoshladi, Poshshoning qoshiga xatni tashladi. Kampirning arzasin olib Sultonxon, Xatga qarab bildi, judayam yomon. So'z so'zlab hech kimga joriy qilmadi, Ne xat ekanin haloyiq bilmadi, O'zi o'qib, o'zi bildi poshshoning, Oh urib, tanida toqat qolmadi. Ko'rdi sabil bo'пти Oqtoshday yurti, Ovaragarlikda ul mamlakati, Shunday bo'пти bul kampirning mehnati. O'qib poshsho, har tarafga qaradi, Ko'zlaridan o'ti chiqib boradi, «Jallod!», deb, shul zamon dovush qiladi. Jallod quloq soldi bu nolishiga. Sultonxonning dovushini eshitib, Uch yuz oltmish jallod keldi qoshiga. «Qandayin odamning kuni bitdi», deb. Qani xizmat, kimga ajal yetdi, deb. «Ishni ma'qul qildim, — deydi bu ayyor, Jallodlar xizmatga bo'lgandi tayyor, Xohi Oqtosh, xohi o'zga mamlakat, Nasli odam bunday gapdan bexabar». Jallodlarga so'z aytadi poshshosi: «Otlaninglar, bundan safar qilinglar, Ot-anjoming bilan Oqtosh boringlar, Gunohkorni men aytaman sizlarga, Hayallatmay tandan boshin yulinglar!»

Jallodlar bu soʻzlarni Sultonxondan eshitib, tayyor boʻlib turdilar. Shunda Sultonxon ularga qarab: «Biz Oqtoshdan chiqib ketganimizga necha zamon oʻtdi, balki oʻn toʻrt yilga yaqinlab yetdi. Huroyimga mamlakatni topshirib chiqib edik. Oʻsha Huroyim Oqtoshni bulgʻatdi. Men Oqtosh shahriga bormay, koʻzini-koʻzima tushirmay, yuzini-yuzima tushirmay, siynasini dogʻlab, ikki qoʻlini orqasiga bogʻlab, Oqtosh shaharidan haydab chiqaringlar! Chortutda qurilgan Mansurning dori bor. Haydab borib, Huroyimning boshini kesib, Mansurning doriga tortinglar. Poshshoning xotini deb andisha qilmanglar!» deb buyurdi.

Shunda poshshoning amri bilan, uch yuz oltmish jallod joʻnay berdi. Necha yildan beri elni sogʻinib qolgan nechalalar: «Biz ham boramiz, bir chetda turamiz, birga yurib, osilganini koʻramiz», — deb ergasha-ergasha besh yuz kishi boʻlib joʻnadi. Bular Oqtosh qarab kelayapti.

Shoʻ kecha Huroyim bir tush koʻrib, uyonib tushidan qoʻrqib: «Mening sendan boʻlak doʻstim yoʻq:», — deb Ximcha kaniziga tushini aytib turib edi, deydi:

Yotib edim, namoz vaqti tush koʻrdim,
Bul tushimda bir ajoyib ish koʻrdim.
Falak titrar tushimdan nolishima,
Rahm qilmas hech kim koʻzda yoshima,
Uch yuz oltmish jallod keldi qoshima,
Qor-yomgʻirday qamchi urdi boshima.
Arza hol aytolmay deni toʻshima,
Tushimning tabgiri Ximcha ne boʻldi?
Yomon dema, yaxshi joʻra sabildi,
Oq yuzima qirmiz qonlar quyildi,
Qora sochim har tarafga yoyildi.
Jallodlar haydadi menday oyimni,
Bu tushning tabgiri bilmam, ne boʻldi?
Tushni koʻrib, mening koʻnglim buzildi,
Oqtosh oʻlkasidan rizqim uzildi.
Oʻlarda koʻrmadim Rustam qoʻzimdi,

Berahm jallodlar qarab turmadi,
Bilmayman, ne bo'ldi tushning tabgiri,
So'z so'zlasam, sira quloq solmadi.
Qonxo'r jallod ikki qo'lim boyladi,
Gul badanga achchiq qamchi tayladi.

Ximchaoyim bu so'zlarni eshitib, ko'ngli buzilib, bag'ri ezilib, Huroyimga
bir so'z aytib turgan ekan;

Tushingdaytting, opa, ko'nglim buzildi,
Oqtoshning shahridan rizqing uzildi.
Ko'rolmaysan, bildim, yolg'iz qo'zingdi,
Kelgin sarson opa, endi birga yig'layik!
Shunday gaplar kirib sening tushingga:
Kun o'tmaydi, jallod kelar qoshingga.
Bu tushing xabari shunday bo'ladi:
Hayallamay, opa, jallod keladi,
Bu ishlarni bir dushmaning qiladi,
Kelib seni bunda boylab oladi.
Bilmam qayerlarga olib boradi,
Boshing kesib, seni nobud qiladi.
Endi umring oxir bo'lgan o'xshaydi,
Kelgin, opa, endi birga yig'layik!
Kelib olar seni jallodlar bosib.
Poshshoning amri deb boshingni kesib,
Jallodlar oldida ahvoling ko'rgan,
Bunda qolar haloyiqlar yig'lashib.
Xafa bo'lib hozir qonlar yutasan,
Bu dunyodan pano bo'lib ketasan,
Qaytayin, ko'nglinga og'ir olasan,
Zulm bilan, opa, pano bo'lasan.
So'zingni eshitib o'tday kuyaman,
Yaxshi ko'rib, jonim, seni suyaman,

Bul boshinga bir qabohat kun bo'lsa,
Ayolman-da, endi qanday qilaman,
Holing ko'rib, ko'yganimdan o'laman.
Men qayga borayin seni axtarib,
Kimga aytib yig'lay, dardimni yorib,
Sen ketgan so'ng menam bo'larman g'arib,
Kuyugingdan men o'larman oh urib,

Huroyim bul so'zni eshitib: «E Ximchaoyim, men seni do'st odamim deb, tushimni aytib edim. Sen ham dushmanlik qilding, tushimni yomon yo'lga boshqarib gapirding», — deb xafa bo'ldi.

Ximchaoyim aytdi: «Opa, bildim, ko'nglingga og'ir olding. Aytuvingga qaraganda, tushing shu gapga tug'ri keladi. Xoh og'ir ol, xoh og'ir olma. O'zing bilasan-da».

Huroyim aytdi: «Tushning tabgiri shunday bo'lsa, kun aynalmay jallod kelsa, bizning ustimizdan poshshoga bir josus boripti-da, bo'lmasa tushning tabgiri bunday bo'lmasa kerak edi. Endi sen qo'rg'onning to'rt tarafdagi darvozalarni qir to'kdirib ko'mdirgin. Sultonxon keladigan ko'chadagi darvozani qulflab, mahkam qilib, o'zing erkak libosini kiyib, ichkarida jazoyil miltiqni qo'lingga olib turgin. Sultonxon kelib, uning ko'zi ko'zimga tushmaguncha, hech bir kishiga darvozani ochib yo'l bermagin», — deb tayin qildi.

«Xayr», deb, Ximchaoyim odam yig'ib, qo'rg'onning har tarafdagi darvozalarini ocholmaydigan qilib ko'mdirib, Sultonxon keladigan ko'chadagi darvozani qulflab, mahkam qilib, kalitini yoniga solib, erkak libosini kiyib, belini bo'g'ib, qunduz jiyakli telpakni kiyib turdi.

Miltiqni qo'liga olib, darvozabon bo'lib turib edi, jallodlar ham kelib qoldi. Jallodlar ko'rdi: qo'rg'onning hamma darvozasi mahkam. Jallodlar aytdi: «Barakallo, Huroyimning ishiga, kunduz kuni qo'rg'onning darvozalarini mahkam qilib, yigitlarning barini yig'ib olib, xo'b kayf-u safo qilib yotgan ekan-dal»

Jallodlar darvozaga qarab, qo'rboshini so'rab, bir so'z aytib turgan ekan, deydi:

Oh tortsam to'kilar ko'zimning yoshi,
Haq deb chiqar g'amli qulning dovushi,
Otimni xoritdi tog'larning toshi,
Darvozani ochgin, bova qo'rboshi!
Kajga aylangan shum falakning gardishi,
Ilohim qurisin poshshoning ishi.
Sabil deydi o'ynab o'sgan Oqtoshi,
Kelib qoldi jallod uch yuz oltmishi,
Ochgin darvozani, bova qo'rboshi!
Poshshoning jallodi mahtal bo'lmasin,
Yomon bo'ldi, qurg'ur poshsho kelmasin,
Bizlarni ham gunohkor qilib yurmasin,
Darvozani ochgin, bova qo'rboshi!
Bizlar jallod, shohning amrin tutamiz,
Huroyimni bundan haydab ketamiz,
Haydab-borib bizlar Mansur doriga,
Boshin kesib, ani dorga tortamiz.
Poshsho buyrug'ini senga aytamiz,
Darvozani ochgin, bova qo'rboshi!
Jallodlar aytmaydi senga yolg'ondi,
Bul Huroyim poshsho bo'lib turgandi,
Eri hukmi kushga tayin qilgandi,
Poshshoning izmiman jallod kelgandi(r),
Darvozani ochgin, bova qo'rboshi!

Ximchaoyim bu gaplarni eshitib, ichkaridan turib jallodlarga bir so'z aytib turgan ekan:

Sirin aytmay, bir nechadan yashirgan.
Ulug' degan, ostonaga bosh urgan,
Darvozani irim bilan quvshirgan,
Shoh kelguncha ochilmaydi darvaza!
Oshib o'tsang, uchib o'tsang oblodan,

Zulm qilsang, men jazoyil otaman.
Darvoza girdini g'animlar tutdi,
Burungi poshshomiz olamdan o'tdi,
Bu poshshomiz nabiy rahmat yigitdi(r),
Darvozani mahkam qilib berkitdi.
Darvoza kaliti o'rdaga ketti,
Necha so'zni, bilgin, qo'rboshi aytdi,
Shoh kelguncha ochilmaydi darvoza!
Poshsho kelar, o'n to'rt yili bitadi,
Qo'rboshilar yo'lga qarab yotadi,
Qanday odam bo'lsa taqdirdan ko'rib,
O'zi kelib, o'z yo'liga ketadi.
Zulm bilan qilsang bunda siyosat,
Bu qo'rboshi seni poylab otadi!
Hozir qaramayman sening sha'ningga.
Kim bo'lsang ketaber kelgan yo'lingga,
Behuda so'z so'zlab turmagin menga.
Poshshodan beamr ochmayman senga!
Bu poshshoni burungiday ko'rmagin,
Ko'p aylanib, baring bunda o'lmagin!
Jallod bo'lsang ketgin, yo'ldan qolmagin,
Qo'rboshini senam nodon bilmagin!

Jallodlar bu so'zni eshitib aytdi: «Poshshoning o'zi kelib bu darvozani ochib bermasa, bu o'z kayfi bilan. Qo'rboshi-po'rboshisi barining gapi bir», — deb qaytib jo'nay berdi.

Jallodlarining ichida Cho'ntoq jallod degan bir kishi bor edi. Bora turib, Cho'ntoq jallod aytdi: «Kelgan besh yuz kishimiz. Besh yuz kishi bir ayolning hisobini qilolmay, poshshoning oldiga qanday boramiz?»

Shunda o'zga jallodlar aytdi: «Bu qo'rg'onni ochmasa, uchib o'tadigan qanoting bo'lmasa, ketmay nima qilasan?»

Cho'ntoq jallod aytdi: «Bunga bir hiyla qilayik».

«Bunga nima hiyla qilasan?»— dedi boshqa jallodlar.

Shunda Cho'ntoq jallod aytdi: «(Hozir Oqtoshda) poshsho ayol. Nima bo'lsa o'zi-o'ziga buriladi. Qo'rboshini ham xotindan qo'ygan. Shu xotinni aldamay bir gap bo'ptimi?»

To'rt otning ustini og'ir yoptirdi, tong otguncha keng hayatda to'balab choptirdi. Oppoq ko'pikka botirdi, tong shamoliga qotirdi, ikkita-ikkitanidan mindirib, darvozaga choptirdi. Buyoqda, keyinida jallodlar sarboz nag'masi qilib, sibiziq, surnay tortib borayotipti. Ilgarigi chopgani darvozaga yetdi.

«Qo'rboshi, darvozani och, poshsho kelib qoldi», — deyotir.

«Poshsho keldi» degandan keyin, Ximcha darvozaning yorig'idan qaradi. Ko'rsa, otlar juda uzoqdan chopib kelayotgan ot. Ichini urib, ter qotib turibdi. Sibiziq, surnayning tovushi qulog'iga kelabardi. Shu vaqtda u ikkitasi ham chopib keldi: «Hali ham ochgan yo'qmi? Poshsho kelib qoldi, tayin o'ldi!», deb kelayotir. Shunda Ximchaoyimning ko'ngliga keldi: «Bu otlar ham juda olisdan chopib kelayotgan ot. Men uncha anglamayman. Poshsho emas desang, poshshoning to'rtta choparchi mahrami bordir-da. Tag'in poshsho kelib, mahtal bo'lib qolib, mening xonumonimga o't qo'yib yubormasin», — deb, darvozani ochib yubordi.

Jallodlarning achchig'i kelib, Ximchaoyimni ushlab olib: «Bizni shuncha mahtal qilding», — deb, kuloband qilib, darvozaga boylab tashladi.

Jallodlar poytaxt qarab o'tib ketdi. Taxt ustiga chiqib bordi. Poshsho Huroyimning siynasini dog'lab, ikki qo'lini orqasiga bog'lab, urib, pastga haydab tushira berdilar. Ko'rgan haloyiq hayron bo'lib, Huroyimning nimaga gunohkor bo'lganini hech kishi bilmay qoldi.

Shunda Huroyim jallodlarga qarab bir so'z aytib borayotir:

Ne sababdan bo'ldim endi gunohkor?
Gunohimni aytib urgin, jallodlar!
Zulm bilan kelib qo'lim boylading,
Gul badanga achchiq qamchi taylading,
Poytaxtdan meni boylab haydading.
Nima gunoh qildi mendek mushtipar?
Gunohimni aytib urgin, qonxo'rlar!

Yoshga to'lib aning jodugar ko'zi,
Bunda zabun yig'lar Huroyim o'zi,
«Opa!» deydi chapak chalib, iyarib,
Keynida yig'lashib qirqin kanizi.
Oq yuziga qirmiz qonlar quyuldi,
Har tarafga qora sochi yoyildi.
Jallodlar haydadi shunday oyimdi.
Tog'larda ma'rashar qo'y bilan qo'zi,
Dod-u bedod qilar Huroyim o'zi,
«Bolam» deb termulib narbaslar ko'zi,
Huroyimning holin ko'rib yig'laydi,
Xizmat qilgan uning qancha kanizi.
Shu zulmda darvozaga boradi,
U, bog'lovli Ximchaoyini ko'radi,
Necha so'zni aytib, o'tib boradi:
«Ximcha, quloq solgin aytgan nolama,
Sel quyildi mening kulbaxonama,
O't tutashib bunda gulday tanama,
Ximcha, xabar bergin yolg'iz bolama.
Oyoq bekar, tirik qoldi bu ko'krak,
Rustam bolam kelsa edi ertarak.
«Xazon bo'ldi tar ochilgan gulim», deb,
«Bemahal boshima yetdi o'lim», deb,
Jallodlar qoshida oyim yig'laydi,
«Zaminda bexabar qoldi ulim», deb,
«Qani, bo'lsa mening jon-u dilim?» deb.
«Umidim ko'p edi haqdin shafolat,
Bul boshima yog'di bir nohaq tuhmat.
Holimni tamosho qildi jamoat.
Endi menga bo'ldi vahmi qiyomat.
Yoqamni chok etib yig'ladim faryod,

Suyangan bolamni qilib men ham yod.
Ximcha, xabar bergin yolg'iz ulima,
Kelib jarov bersin qattiq kunima,
Enam, deb qayishar mening holima,
Ximcha, xabar bergin Rustam ulima!»

Bu so'zlarni aytib, qo'rg'onning darvozasidan chiqib ketdi. Bir to'da qizlar darvozagacha ergashib borib, Ximchaoyimni bog'lovli ko'rib, endi Huroyimdan umidini uzib, kanizlar Ximchaoyimning qo'lini yechdi. Ximcha bog'lovli yotgan yerida Huroyimning aytgan so'zlarini eshitgan edi. O'midan turib: «Rustamga xabar berayin. Enasining ahvolini bildirayin», — deb saroyga qarab ketdi. Tagizaminga tushib, mullani ko'rib, bir so'z aytib turgan ekan, deydi:

Bir Olloga yetgay bandaning dodi,
Mo'min qulni haq aylasin jannati.
Sizga salom berdim, bolam ustodi!
Ximchaman, so'zladim, so'zlarim o'sal,
Bugun uch kun bo'ldi Huroyim kasal.
Rustamni ko'rmoqqa bo'ldi intizor,
Shul sababdan keldi menday gajakdor.
Huroyimning dardi osha yomondir,
Rustamni ko'rmog'i uning gumondir,
Ozod qiling Oqtosh elning to'rasin,
O'lmay, borib ko'rsin bulam enasin,
Ulam ko'rsin, sho'rli, yolg'iz bolasin.
Rustambekka javob bering, mullajon,
Bolam, deb enasi intiq bo'lmasin,
Jon berar vaqtinda halak bo'lmasin.
Kasalini ko'rdim bag'rimni dog'lab,
Dardi yomon, hayron bo'ldim qon yig'lab.
Jo'nating turg'izmay Oqtosh xonini,
Shuytib keldim bek Rustamni so'rog'lab.
Ko'rib qolsin shunday mehribonini.

«O'z jonimga o'zim qildim zulm», deb,
«Kimga aytay endi o'lar holim», deb.
O'lar chog'da afsus tortib yig'laydi;
«Boshimda bo'lmadi Rustam ulim», deb.

Ximchaoyimdan bu so'zni eshitib, Rustamni o'qitib yotgan mulla Ximchaga qarab bir-ikki og'iz so'z aytib turgan ekan, deydi:

Ximchaoyim, quloq sol mening tilima,
Hali javob yo'qdir Rustam ulinga,
Ketaber, kanizak, kelgan yo'linga.
Qaramayman kasalingning holiga,
Hech in'om tegmadi mulla qo'liga,
O'lsa o'ladi-da, xudo bandasi,
Qancha ilm o'rgatganman uliga.
Necha kun bu yerda qarab turaman,
Huroyimning in'omini ko'raman,
Oltoydan so'ng xonga javob beraman.
Oltoygacha javob yo'qdir ulinga,
Mulladan eshitgin so'ylagan tildi,
«Huroyim bergan yo'q sarpoyman puldi,
Men bilmadim, fe'li ketib ne bo'ldi?
Bopabep, kanizak, kelgan yo'lingga».
Mulla so'ylab qovog'ini uyadi.
Qachon sarpoyini bersa kiyadi,
«Oltoygacha javob yo'qdir ulinga,
Oltoydan so'ng bunga javob tiyadi.
Ko'p so'ylama, ketgin to'g'ri yo'linga».

Mulladan bu so'zni eshitib Ximchaoyim qaytib ketdi. G'aznaxonaga yetdi. G'aznaxonadan bir la'li tillani olib, ko'tarib, tag'in mullaning qoshiga yetdi. La'lidagi dunyoni ko'rib, mulla aytdi:

— Rustamxon bugun borsin, enasini ko'rsin, ertaga ham oldida tursin, xo'p mehriga qonsin. Huroyimning dardi yomon bo'lsa, ko'rmog'i gumon

bo'lsa, enasi tuzuk bo'lguncha aylanib yursin. «Mulla koyiydi», — deb mening qoshima oshiqib (yurmasin), shoshmay kelsin.

Mulla vaqti xush bo'lib Rustamni jo'natdi. Rustamxon bilan Ximchaoyim ikkovi birga-birga tagizamindan chiqaberdi. Shunda Rustamxon aytdi:

«Men enadan bino bo'lgandan beri umrim tagizaminda o'tdi. Men kunning ko'zini nimchala ko'rganman. Siz kattasiz, men tag'in sizning oldingizga tushib yurib, gunohkor bo'lib qolmayin?»

Ximchaoyim aytdi: «Bu to'g'rida gunohkor bo'lsang, gunohingni o'tarman. Oldimga tushib yuraber».

Rustam aytdi: «Nega ko'zingizga yosh olasiz? Enamning dardi juda yomonmi?».

Shunda Ximchaoyim Rustamga enasining dardidan xabar berib turgan ekan:

Bir nechani shod-u shodmon ayladi,
Uch yuz oltmish jallod qo'lin boyladi,
Mansur dorga shul enangni haydadi.
Men yig'lamay kim yig'lasin, Rustamjon!
Seni ko'rib mening bag'rim ezildi,
Sel bo'lganday ko'zda yoshim tizildi,
Qaytay, xafa qildim senday qo'zimdi,
Seni ko'rib mening ko'nglim buzildi.
Enang ketdi jallodlarning zulmida,
«Zaminda bexabar qoldi bolam», deb,
«Nohaq qamchilarni yedi tanam», deb,
«O'larda ko'rmadim yolg'iz bolam», deb,
«O't tutashdi mening gulday tanam», deb.
Hayron qoldik jallodlarning ishiga,
Qor-yomg'irday qamchi yog'ib boshiga,
Borolmadi hech bir odam qoshiga.
Falak titrar ul enangning zoriga.
Enangdaydab ketdi Mansur doriga,
Tan berganmiz manglaydagi sho'riga.

Enang tushdi qonxo‘r jallod qo‘liga,
Berahmlar sira rahm qilmadi,
Dod, degan so‘ziga quloq solmadi,
Nima gunoh qildi oyim mushtipar,
Gunohini hech bir kishi bilmadi,
Chidab bo‘lmas jallod siyosatiga,
Ko‘p alomat bo‘ldi Oqtosh yurtiga.
Zulmda yod olib enang yig‘ladi —
Ko‘zi to‘rt bo‘b, sendayin farzandiga.
Bu shahardan chiqib ketdi dalaga.
Jasadingdan menday opang sadag‘a.
So‘z aytarman senday yolg‘iz bolaga!
G‘ulg‘ula bo‘lgandir bunday shaharda,
Enangni osdimi ul Mansur dorda?
Ketdi yolg‘iz zolim jallod qo‘lida,
Enang qanday bo‘ldi yomon kunlarda?!
Ketgan cha shundayin azob berdimi?
Men bilmadim, Mansur dorga bordimi?
Men bilmadim, bul azobda o‘ldimi?
Yo jallodning so‘ngra rahmi keldimi?

Rustamxon bu so‘zlarni eshitib, Ximchaoyimga qarab bir so‘z aytib turgan ekan:

Bejo qilding, opa, holim bilmading,
Ilgaridan nega xabar bermading?
Enamdaydab ketdi qaysi yo‘l bilan?
Ketgan tarafini ko‘rsat qo‘l bilan.
Qiyg‘ir degan qush o‘ltirar qiyada,
Bu so‘zdeshtib dardim bo‘ldi ziyoda,
Ketgan tarafini ko‘rsat enamni,
Yuguray ketidan ro-yu piyoda.
Enam deb to‘kayin ko‘zdan yoshimdi,

Yo'lida sarf uray aziz boshimdi,
Jonim opa, mehribonlik qil endi,
Enam ketgan yoqqa yo'lga sol endi!
Yugursam keyinidan yetib borayin,
Jallodlarman qon to'kishib ko'rayin,
Enam tirik bo'lsa, holin so'rayin,
O'lgan bo'lsa, enam o'chin olayin,
Jonim opa, menga rahbar bo'l endi,
Hayallatmay meni yo'lga sol endi!
Bu so'zdeshtib menda quridi darmon,
Enamni ko'rmasam qoladi armon,
Nasib etsa jallodlarga borarman,
Ularning boshini bog'day chalarman.
O'g'li-qizin mamlakatda yig'latib,
Jallodlarni shunday qilib sulatib,
Enamning qasosin undan olarman,
So'zima quloq sol, opam Ximchajon,
Tushibdi boshima qorong'i tumon,
Hayallatmay yo'l boshqargin shul zamon,
Jo'nab ketsin bundan bolang Rustamxon.

Ximchaoyim bu so'zlarni eshitib, Rustamxonning tarziga qarab yana bir so'z aytib turgan ekan:

Xazon bo'lmay bog'da gullar so'lmaydi,
So'lgan gulga bulbul kelib qo'nmaydi,
Avval g'ayratingni aytgin, Rustamxon,
Piyodadan murod hosil bo'lmaydi.
Ostinga mindiray arabi otdi,
Enam desang, so'ngra qilgin g'azotdi,
Enam, deb yugurib yurmoq uyatdi(r).
Bedov mingin sag'risini toshirib,
Mudom jurgin tuyog'iga bosh urib,

Mazgilga yetkizar qirdan oshirib.
Bedov minsang sag'risini silatib,
Arpa berib oltoy boqsang to'latib,
Dushmandan o'chingni olsang yig'latib,
Avval g'ayratingni aytgin, Rustamjon!
Bolam, yoshsan — o'n to'rt yoshga borasan,
Yo'lga sol, deb meni zamlab ko'rasan,
Mana shu yo'l deb, bolam, senga ko'rsatsam,
Yayov yurib, bolam, qayga borasan?
Qo'lingda bo'lmasa keskir po'latiing,
Minganda bo'lmasa bir bedov oting,
Piyodadan murod hosil bo'larmi?
O'yla, bolam, kimga kelar quvvating!
Er yigitni sherdil qiladi po'lat,
Ostida mingani bo'lsa bedov ot,
Yarog'i yarqillab qo'lida tursa.
Unday vaqtda kelar yigitga g'ayrat.
Yayov-yalpi yo'l ko'rsat, deb so'raysan,
Ko'rsatsam bo'lmasmi sha'ningga uyat.
O'n to'rt yoshga kirding, bo'lding azamat,
Rustam degan oting qo'ygan ul enang,
Rustamning nomiga senda ko'p quvvat.

Rustamxon bu so'zni eshitib: «Ey, opa, behuda ko'p so'zlab, meni qiynab, gapga aylantirib turguncha, agar unday minadigan otim bo'lsa, egarlab, choqlab, meni enamning ketgan tarafiga yo'lga solib yuborgin!» — dedi.

Shunda Ximchaoyim: «Xo'b» deb, uni ergashtirib, o'zi bilan bir kunda paydo bo'lgan, Rustam qanchaga kirgan bo'lsa, u ham shunchaga kirgan otning qoshiga bordi. Borsa, otning sag'risi toshib, yoli qulog'idan oshib, uchadigan qushday, har ko'zi tarkashday, yulduzni ko'zlab, paraqqos boylab, o'ynab turibdi. Ximchaoyim otni yalang'ochlab, qashlab, otga qarab bir-ikki og'iz so'z aytib turibdi, deydi:

Seni minsa qolmas yurakning dog'i,
Tos tepaga bitgan ikki qulog'i,
Bugun safar qilar Oqtosh g'o'chchog'i,
Nazarkarda hayvon bu to'buchog'i.
Seni minar bugun Oqtoshning mardi,
Mansurning doriga bolam g'azoti,
Toshib ketsin Rustamxonning g'ayrati,
Qichab quvmoq sipoyining odati.
Nazarkarda sensan, bolamning oti.
Yo'liqsa dushmanning bag'rini ezgin,
To'g'ri kelsa — og'ir saflarni buzgin.
Asl tulpor bo'lgan bolamning oti,
Yo'liqqanda dushman qal'asin buzgin!
Enam deb, xafa bo'p Rustamday qo'chqor,
Yo'lda bo'shab yurma nazari tulpor,
Shuldir nasihatim: kechikmay yetkar,
Rustamday qo'zimning hojatin bitkar.
Tablada tarbiya ko'rgan jonivor!

Bu so'zni otning sha'niga aytib, Rustam «Jo'nay qolsam», — deb oshiqib, oshiqqanini Ximchaoyim bilib, [gapni] ko'p cho'zib yurmay ishni oson qilib, otni egarlab, chog'lab, Rustamga kerakli kiyim-kechak kiygizib, beliga keskir yaroqlarni bog'lab, xo'shlashib Rustamni yo'lga soldi.

Rustam jo'nagandan keyin, tepkida turgan tozilar ko'rib urina berdi. Ximchaoyim aytdi: «Bu tozilar Rustamni ko'rib talpina berdi. Bularni Rustamdan olib qolib bu tozilarni nima qilaman?» — deb ularni tepkidan bo'shatdi.

Rustam enasining ketib borayotganini ko'rmagan, tozilar ko'rgan. Ular Rustamdan oldin yo'lga tushib, yo'lbarsday yo'l tortib jo'nay berdi. Peshin vaqtida Oqtoshdan chiqib, tozi oldin, Rustam keyin ketib borayotir:

«Enam, — deydi bek Rustam, —
Menga bo'ldi ko'p sitam,
O'tib ketdi dard-u g'am,

G'ayrat qildi bek Rustam».
Bedovga qamchi chotdi,
Qamchisi simday botdi,
Ostidagi jiyron ot,
Kam-kamdan ichin tortdi.
Yo'lda bo'ynin uzatdi,
Yurishini tuzatdi,
G'ayrat qilib bek Rustam,
Otga qildi shiddatdi.
Qiyada qilpillatdi,
O'r kelsa o'mganlatdi,
Arna kelsa irg'itdi,
Shuytib Rustam yo'l tortdi.
Cho'llarni to'zon tutdi,
Ostida jiyron oti,
Ko'pdir Rustam g'ayrati,
Yurakda g'ussa, dog'di.
Qistaydi to'buchoqdi,
Yaqin qilar yiroqdi,
Ostida mingan oti,
Qushday uchar-piroqdi(r).
Shuytib Rustam yo'l tortdi,
Kunlar botib, kech bo'lib,
Oqshom tushmay yo'l tortdi,
Tonglar otib shul zamon,
Endi choshgohga yetdi.
Rustam yolg'iz qaradi,
Tozilar ketib boradi,
Rustam quvib yo'l tortar,
Mingan oti saradi.
Yurar yo'ldan qolmadi,

Yo'l qo'vsa ham tolmadi,
Rustam yigit shag'almas,
Yo'lni ko'zga ilmadi.
Sira parvo qilmadi.
Qaramas o'ng-u so'lga,
Enasidan hech o'zga.
Sira kelmas ko'ngliga!
Enam, deb qistab otni,
Qilar otga shiddatni.
Dushman bilan yo'liqsa,
Tosha kelar g'ayrati.
Sira qolmay toqati,
Qichab, ketib boradi.
Enam, deydi oh urib,
Ko'pdir bekning mehnati.
Borayotir bek Rustam —
Yonib o'tday tutashib,
Necha bellardan oshib,
So'ragani odam yo'q.
Mansur dor deb qarashib.

Rustamxon ketib borayotib edi, ko'p qo'shin ko'ziga ko'rindi. Bul qo'shin Sultonxonning qo'shini edi. Qurudimdan, Xorazmdan Oqtosh mamlakatiga qaytib kelayotib edi. Shunda Sultonxon qaradi. Qarasa, bir yigit: arabi o'tli, adras to'nli, ajab siyosatli; oldida ikki tozi, yo'lbarsday yo'l tortib kelayotipti. Sultonxon aytdi:

— Ketganimizga ko'p vaqt bo'lipti-da. Bu jasadli yigit Oqtosh mamlakatida yo'q edi. Yo, bo'lak mamlakatdan kelib yurganmikan? Qanday shohning, qanday bekning o'g'li ekan? Odamga qaramaydi, hech kimni pisand qilmaydi. Yurgan yo'lidan chiqib turmaydi. Indamasam, bu o'tib ketaberar, balki salom ham bermaydi. Yonboshimga yaqin kelganda, bir otining jilovidan ushlab, o'sgan mamlakatini so'rab qolayin, qaysi qo'rg'onni so'rab turgan bekning o'g'li bo'lsa bilayin.

Sultonxon bu gaplarni o'ziga ma'qul bilib, ko'nglini xushlab, Rustam yaqin kelgan so'ng, Rustamning otining jilovidan ushlab, Rustamga qarab: «Bolam, sen qaysi mamlakatdan bo'lasan?», — deb so'rab turgan ekan:

Tar ochilgan toza bog'ning gulisan,
Enangman-otangning jon-u dilisan;
Tarzing ko'rib, mamlakating so'rayman,
Qay shaharda, qaysi shohning ulisan?
Menga bayon ayla mamlakatingni,
Nima deydi o'ynab o'sgan yurtningni?
Nima deydi urchigan avlodingni?
Men so'rayman, bolam, sening otiningni.
Jamoling mengzadim osmonda oyga,
Qoshingni o'xshatdim egilgan yoyga,
Jasading o'xshaydi bo'z qarchig'ayga,
Qarchig'ay changallim, kimning ulisan?
Bino bo'lding qaysi gavhar donadan?
Senday yigit bino bo'lgan enadan,
Parvoz qilding qaysi manzilxonadan,
Baland parvoz bolam, qaydan bo'lasan?
Seni ko'rib eziladi yuragim.
Qarchig'ay changalli, yo'lbars bilaging,
Urushga kirganda qoplون yuraging,
Qaysar sifat bolam, qaydan bo'lasan?
Shunday bo'ldi menga haqning farmoni,
Seni tuqqanlarning bormi armoni,
Dushman ko'rsa sira qolmas darmoni,
Rustam sifat bolam, qaydan bo'lasan?
Gasht aylab kelibsan necha cho'llardan,
Ot terlatib chiqib uzoq yo'llardan,
G'ayratman jo'nading qaysi ellardan,
Yigitning me'roji, qaydan bo'lasan?

Sen borasan yo'lda ko'nglingni xushlab,
Bu cho'llarda o'zing daryoday toshib,
Qaramaysan juda aqling shoshib,
O'taberding shuncha odamni bosib,
So'z so'radim, bolam, senga yonashib,
Yo'l bo'lsin, jon bolam, qayga borasan?
Ostingda horigan bul mingan oting,
Qarayman, belingda keskir po'loting,
Har kimni shoshtirar bul siyosating,
Rustami Dostoncha bordir quvvating?
Qayda bo'lar sening ul mamlakating?
O'ynab-o'sib, katta bo'lgan elating,
Yo'l bo'lsin, mard yigit, qayga borasan?
Qaramaysan sira o'ng-u so'lingga,
Qistab etasanmi mazgil — elingga?
Otingning jilovi mening qo'limda,
Yo'l bo'lsin, bek bachcha, qayga borasan?

Rustam bu so'zni eshitib, o'zini rostlab, boshini ko'tarib, tiklab [Sultonxonning] betiga qaradi. «Ke, qari kishi ekan, beadablik qilmayin», — deb xayoliga keldi. Otining jilovidan ushlab to'xtatganiga juda g'ayrati toshib, achchig'i kelgan edi, mo'ysafidligini hurmat qilib, shaxtidan tushib, bir so'z aytdi, deydi:

Yig'lasam, yo'q bo'ldi dardimga davo,
Boshimga tushibdi bir turli savdo.
Makon-mazgil menda nima qiladi?!
Makoni yo'q, asli o'zim benavo.
Hayallatib, meni yo'ldan qoldirma,
Jilovimni qo'yib yubor, jon bobol
So'rasang otamni, asli bepadar,
Bepadar uliman, o'zim darbadar.
Senga aytay desam, elim bo'lmasa,
Yurt ustida yurgan menam qalandar.

Menday g'arib qalalarda nima bor?
Jilovimni qo'yabermog'ing darkor!
Qizil gulman, meni muncha so'ldirma,
Ko'p to'xtatib, yo'ldan urib o'ltirma.
Men so'rayman, yoki bir ishing bormi?
Qo'yabergin endi otning jilovin,
Jonim bobo, qariliging hurmati,
O'z holiga, to'g'ri yo'lga yuradi,
Ko'p so'zlasam, sening ko'ngling qoladi,
To'xtatganing menga botib boradi,
Menday gado, bobo, yo'ldan qoladi!
Yaxshi so'zlab, bobo, bo'ldim minnatdor.
Qo'yabersang sendan ko'nglim to'ladi.

Sultonxon bu so'zni eshitib, Rustamxonga qarab yana bir so'z aytib turgan ekan:

Shohlarning boshinda tillodan toji,
Necha shaharlardin oladi boji!
Tarzingga qarayman, yigit me'roji,
Bir lochin boqishlim, qaydan bo'lasan?
Ostingga minibsan arabi oting,
O'zingga yarashgan xanjar po'loting,
Balki sening bordir toj-u davlating?
Bepadar, darbadar senday bo'lmaydi,
Benavoga kelmas sening kelbating!
So'z so'zlasang kelar, bolam, g'ayrating,
Nima bo'lar o'ynab o'sgan elating?
Rost aytmasang senga javob bermayman,
Qalandarligingni qabul qilmayman,
Sen aytmasang jilovingni qo'yamayman,
Rostin degin, bolam, qaydan bo'lasan?

Rustamxon otasiga qarab, bir so'z aytib turgan ekan:

Davlatli qul gulni gulga eshadi,
Yashin tushsa, baland tog'ni teshadi.
Ko'p so'rating, bobo, bo'g'nim bo'shadi,
Bizning elimizni Oqtosh deyishadi.
Otam Sultonxondir, enam Huroyim,
Barchani yaratgan qodir xudoyim,
Jilovimni qo'yabergin, bobojon.
Hayallamay Mansur dorga borayin.
Enamdaydab ketgan ekan jallodlar,
Men qolibman mamlakatda bexabar,
Huroyimning farzandiman, bobojon,
Albatta, o'lmayin etmog'im darkor.
Enam dedim, bo'lib chiqdim xizmatkor.
Enamning dardidan bul g'amga to'lib,
Hayalladim, men turibman chirpinib;
Qo'yabergin, bobo, otning jilovin.
Men ketayin endi bundan yo'l yurib,
Enamdizlab Mansur dorga boraman,
Yetishsam, jallodning boshin olaman,
Qonxo'rlarga qora kunni solaman!
Mening enam hech gunohsiz mushtipar,
Begunohni opketipti jallodlar,
Qanday nodon hukmi kushga tayin qip,
Ko'p ishlarni menga soldi dushmanlar,
Buyurganni topsam, o'lar muqarrar!

Sultonxon bu so'zni eshitib, bo'g'ini bo'shab, otning tizgini qo'lidan qanday chiqib ketganini bilmadi. Rustam qichab o'ta berdi. «Unday bo'lsa o'zimning ulim ekansan», — deb aytmogqa ham quvvati qolmadi. Sultonxon otning boshini burib og'zi angrayib, burni tangrayib, Rustamxonning keyinidan qarab turdi. Sultonxonning bir dono vaziri bor edi. Vazir Sultonxonga qarab bir-ikki og'iz so'z aytib turgan ekan:

O'z bolangga bunday javob berasan,
Sen o'g'lingni endi qachon ko'rasan!
Bunday javob berma yolg'iz ulingga,
Rustam qaytib kelmas sening elingga.
Senam bundan Oqtosh elga borasan,
Kim yaxshi, kim yomon so'rab bilasan,
Bu ishlarning haqiqatiga qonasan,
So'ngra, shohim, ko'p pushaymon qilasan.
Bolam, deysan so'ngra ko'zingni yoshlab,
Toj-u davlat unda taxtingni tashlab.
Qalandar bo'p sen ketarsan Oqtoshdan,
Farzand uchun unda ko'nglingni jo'shlab.
Yurarsan tay urib dunyoni kezib,
So'rog'in topmayin ko'nglingni buzib;
Hali ham qaytargin yolg'iz ulingni,
Bunday sabil qilma Oqtosh elingni!
O'z qo'lingdan sen jo'natib turasan,
Qay betingman bek Rustamni ko'rasan?
Hali ham qaytargin Rustam bolangni,
Jo'natma Oqtoshga, qaytar to'rangni!

Sultonxon bu so'zni eshitib: «O'zimning ulim ekan, qaytarsammikan», dedi. Yana qoshidagi bir necha amaldorlar, bir necha inoq kishilar: «Ey poshshoyi olam, yo'lingizdan qolmang. Vazir aytsa aytdi-da. Bunday ahmoq gapga quloq solmang. Uning gapirayotgani bir bo'lmag'ur gap. Avvali bu gap — bo'lmagan gap; bo'lgan vaqtda, sizning o'g'lingiz endi o'n to'rtga kirar edi. O'n to'rt yashar yigit shunday bo'larmi? Hali ham sizning yuragingiz bor ekan. Shuncha gapirishib turdingiz; so'z qotmoq tugul, g'ayrati, siyosatiga odam betiga qarab bo'lmaydi. Endi «Betga aytgan gapning zahri yo'q» degan gap bor, qaraysizmi, bir tog'ni to'lg'ab etgunday quvvati bor. Sizning o'n to'rt yoshar bolangiz shunday bo'larmi? Sizning shul ayolingiz yomon bo'lgan ekan. Biz shunday cho'tlab turibmiz: bir g'ayri eldan og'ishib kelgan

bahodir ekan-da, sizning ayolingiz yomon bo'lib, bu unga aylanishib qolgan ekan-da. Jallod borgan vaqtda, bu bo'lak yerda yurgan ekan-da. Agar o'sha yerda bo'lganda, bu jasadiga qaraganda, uni jo'natmas edi. Jallodlar omon qolmas edi. Qancha dushman bo'lsa, qon quyib, tig'i damdan o'tkazib yuborar edi. Bu bexabar qolgan, so'ngra kelib eshitsaki, bul hodisa bo'lgan. Ishqibozlik qiyin narsa, shunday qilib, qichab yo'lga kirgan. To Mansur dorigacha borayin, o'lmay yetsam jallodlardan ajratib olayin», deb ketayotgan. Hali eshitib qolarsiz, agar o'lmay yetsa, jalloddan [hech biri] Oqtoshga omon kelmaydi. Nima qilsa qiladi, ketgan jallodingizning bari o'ladi», dedi.

Bu so'zni eshitib, Sultonxon nima derini bilmay hayron bo'lib, Oqtosh tarafiga qarab qo'shinini iyartib ketaberdi.

Rustam borayapti. Borib-borib yo'l uch ayrilib ketdi. Qaysi yo'lga yurarini bilmay, otining jilovini tortdi. Shunda Rustam bu so'zni aytdi:

Tog'lar aziz bo'lar tuman bo'lmasa, —
Bog'lar aziz bo'lar bog'bon bo'lmasa.
Daryolarda obiravon bo'lmasa,
Yo'llar aziz bo'lar karvon yurmasa.
Yo'li ketdi uch tarafga ayrilib,
Yo'l boshqarar, so'rar kishi bo'lmasa.
Bo'lib qolmayinda yo'lda men sarson,
Yo'l adashib bunda boshim gangigan.
So'ramoqqa yo'qdir odam naslidan.

Rustam bu so'zni aytib turib edi, tozilar yo'l tortib, chap qo'ldagi yo'lga tushib jo'nay berdi. Rustamxon: «Shul tozilar nazari», — deb, bul ham tozining keynidan yo'lga tushib ketdi.

Shul vaqtda jallodlar Huroyimni haydab, endi Mansurning doriga yetdi. Bu yer ham ilgari bir katta shahar edi. Minora, peshtoqlari bor edi. «Ul vaqtinda arab mamlakatidan kelganlar bu shaharning ustida ko'p urush qilgan, qonlar ariqdagi suvday oqib qolgan. O'sha vaqtda to'rt choriyor, bu yerga bittadan to'rt tut ekan, o'shandan beri bu yer Choriyor deb atalib qolgan, degan gap bor: Mansur osilgan dor shul vaqtgacha turgan».

Necha kundan beri yo'l tortib Huroyim bechora abgor abgashta bo'lib kelgan. Bu yerlarni Huroyim ko'rdi, chordevor, cho'liston bo'lib qolgan. Arabning qilgan ishi shu bo'lgan. Necha zamondan beri Mansurning dori turgan.

Shunda Huroyim jallodlarga qarab bir so'z aytib turgan ekan:

Ajab ishlar ko'rdim foni dunyoda,
Uch kun yayov yurdim po-yu piyoda,
Bir soatga sabr qilgin, jallodlar,
Ilohim, davlating bo'lsin ziyoda.
Kalma aytay menam qizil tilimdan,
Kunim bitsa, yuz qaytarmay o'limdan,
Men mushtipar, ne ish kelsin qo'limdan?
Bir soatga xabar oling holimdan!
Chashmada yuvinib toza bo'layin,
Qo'l ochib haqingga duo qilayin,
Bo'yimda bor edi tangrining qarzi,
Tangrining qarzidan ozod bo'layin.
Bir soatga sizdan ruxsat so'rayin,
Taqdirda bor ishga nima qilayin,
Xor-u zor ayladi meni xudoyim,
Sirimdaytib endi haqqa yig'layin.
Bir soatga sabr saqlang, jallodlar,
Chashmada o'tirib tarat olayin!
Sultonxon topshirdi Oqtosh elini,
Mol-u mulk-u barcha ixtiyorini.
Poshsholik qip men ham Oqtoshda turdim,
O'zimdan pastlarni ko'p manzur qildim.
Kambag'al, qashshoqning holini so'rdim,
Boyi-badkorlarman ishim bo'lmayin,
Oxiri shundayin tuhmatni ko'rdim!
Tuhmat bilan ikki qo'lim boylanib,
Haydalib Mansurning doriga keldim.

Bu soʻzlarni eshitib, Choʻntoq jallod buning gapiga quloq solmay, gapining paymidan bilmay, oʻz bilganidan qolmay, bir soʻz aytib turibdi:

Yaxshi kishi sira senday boʻlmaydi,
Koʻchalarda quloch urib yurmaydi.
Soʻz soʻzlama, xaridoring kelmaydi,
Gapingga jallodlar quloq solmaydi.
Kel, shallaqi, chalib dorga tortayin!
Xaridoring qoldi Oqtosh elida.
Oʻliging qoladi Mansur dorida.
Sen oʻlarsan odamxoʻrning qoʻlida.
Kel, shallaqi, chalib dorga tortayin!
Necha shumlik, bunda quvlik aylaysan,
Jilva qilib jallodlarga soʻylaysan,
Bu soʻz bilan sening joning qolmaydi.
Boshing kesib, endi dorga tortayin!
Tortilasan bugun Mansur doriga,
Yoʻliqding poshshoning gʻazablariga.
Tan beraber manglayingning shoʻriga.
Poshshoning amrini bizlar tutamiz,
Necha kundan beri haydab jetamiz.
Sultonxonning soʻzi shunday bizlarga.
Xanjar urib, seni dorga tortamiz!
Oʻliging qoladi Mansur dorida,
Gapirarmiz borsak Oqtosh shahrida.
Bul oʻtirgan jallod yosh-qarida,
Maʼqul bular jallodlarning bariga.
Soʻylaganman bizni yoʻldan urmaysan.
Jallodlardan, bilgin, omon qolmaysan!

Bu soʻzni Choʻntoq jalloddan eshitib, jallodlarning ichida Mirzaboshi degan bir jallod bor edi. Mirzaboshi aytdi: «Obbo bachchagʻar Choʻntoq, soʻzlagan soʻzingning bari ahmoq. Shu gapning boshidan oyogʻini

cho‘mmanglab sen buzib kelayapsan. Poshshong hukmi kushga buyursa, buyurdi-da, ahmoq bo‘lib. Bir tuhmat bilan begunoh o‘lib borayapti. Poshshoning oldiga arza xat ko‘tarib borgan kampir qanday odam? Bilasanmi? Poshsho bo‘lsa, bo‘pti-da. U Sultonxonda es nima qiladi? Esi bor kishi o‘sha kampirning ko‘tarib borgan xatiga ishonadimi? U xatga Oqtosh mamlakatining yosh-u qari qancha odami qo‘l qo‘ygan ekan. Shuncha amaldorning hech qaysisining yonida muhri yo‘qmikan, bittasi «shul rost» deb muhrini bosmabdi. Sultonxon ahmoq bo‘lib, bemuhr xatga ishonib, bul munglig‘ bechorani hukmi kushga tayin qildi. U esa yo‘q, bachchag‘arning gapini qaytarib bo‘lmaydi. Bu gaping yolg‘on, desang, seni ham o‘ldiradi. Oqtoshda ham qaysi go‘rdan shumlikni sen topding, bu yerda ham shu niyattan chiqmay yotting. Endi qo‘y, nima ishing bor, shu ko‘pning biri bo‘lib o‘ltir sen ham!» — dedi.

Mirzaboshidan bu so‘z chiqqandan keyin, jallodlarning hammasi ham Mirzaboshining so‘zini ma‘qul dedi. «Tahorat qiladimi, namoz o‘qiydimi, nima ishing bor», — deb hammasi ham gapirdi.

Huroyim o‘z ko‘nglida: «Shunday bahona qilib hayallab tursam, Ximchaoyim Rustamga xabar bersa, kelib qolar», — degan umid dunyosida. Jallodlarning baridan javob bo‘lgandan keyin, Cho‘ntoqning gapi kor topmay qoldi.

Huroyim chashmaning bo‘yiga borib, qo‘l-betlarini yuvib, oyoq-boshlarini yuvib, toza bo‘lib, qibla tarafga qarab o‘tirib, Rustamning yo‘liga ko‘z tutib, bu so‘zlarni aytib turgan ekan, dedi:

Ishq o‘tiga yona-yona,
Xohi oshna, xoh begona,
Bunda keldim o‘tday yona,
To‘lgan o‘xshaydi paymona.
Shirin tandan uziladi —
Birga yurgan shirin jon-a,
Gul yuzim so‘ldi naylayin.
Bulbulli, maskanli bog‘lar,
Bul meni o‘limga chog‘lar,

O'limning sharbati yaqin,
Yuragim ham bag'rim dog'lar.
Hech ko'zimga ko'rinmaydi,
Usti qorli baland tog'lar.
Haqqa yetgay ayg'on nolam,
Menda ko'pdir dog'i alam,
Bexabar qoldimi bolam?
Hech kim quloq solmas zora,
Bo'lib keldim bunda xor-a,
Meni osar Mansur dora;
Yuragim bo'lib yuz pora!
Yolg'izman, gangidi boshim,
Yonimda yo'qdi sirdoshim,
Bu ishdan bexabar qoldi —
Mening necha emikdoshim.
Qattiq kunda holim tangdi(r),
Jon shirindir, boshim gangdi(r).
Men suyangan yolg'iz bolam,
Ulam bexabar qolgandir.
Enam deb, meni bilmadi.
Sutimni hurmat qilmadi,
Qattiq kunda qolgan vaqtda,
Qo'zim boshimda bo'lmadi.
Meni esiga olmadi.
Dushmanning dodini bermadi,
Ne bo'ldi, Rustam kelmadi! —

deb, namoz o'qigan kishi bo'lib, hayallab, taysallab, jon shirinlik qilib turgan
vaqtinda, Cho'ntoq jallod Huroyimga bir so'z aytdi:

Senga yoqdi Mirzaboshining so'zi,
O'qig'anman sira ado bo'lmaydi,
Ko'p ekan-ku, shallaqining namozi!

O'qigan namozing sening bas bo'lar!
Mahtal bo'lib turadimi jallodlar,
Kelgin beri endi dorning ostiga,
Kesib boshing dorga tortmoqlik darkor!
Qiblaga yuz tutib muncha qaraysan,
Qibla betda qanday ishonching bor?
Jallodning qo'lida nechalar o'lgan,
Qonxo'ring qo'lidan kimlar qutulgan;
Jon shirinlik qilib hayallab turding.
Kimdan bo'lar endi sening umiding?

Huroyim bu so'zni eshitib: «Endi bo'lmadi, Rustamdan hech xabar kelmadi. Vaqti zamoni yetdi, mening kunim endi bitdi»,— deb, yuziga fотиha tortib, jondan umidini uzib, qibla tomonga yana bir qarab oldi. Ko'ziga bir qopa ko'rindi. Ko'rди, to'zon tortib kelayapti, Ko'nglida aytdi: «Ximchaoyim xabar [qilgan] bo'lsa, albatta, shu kelayotgan Rustam. Ancha-muncha odam bu tartib yurolmaydi, yolg'iz otning yurishi cho'lni bunday to'zon qilolmaydi. Mening mehrim tortib, g'ayrat bilan Rustam kelsa, mening bu ahvolimni ko'rsa, jallodlarni omon qo'ymaydi. Bularning ham o'g'il-qizlari bor, bekorga manmanlik bilan o'lib ketib, bolalari yetim-yesir qoladigan bo'ldi. Bular bolani nima biladi», deb, jallodlarga qarab bir so'z aytib turipti:

Jallod, eshit mening aytgan so'zimdi,
Menam ko'rdim kelayotgan qo'zimdi,
Kelib bolam o'ldiradi o'zingdi,
O'ylasam sizlarga o'lim lozimdi(r),
Qaytib ko'rolmaysan ulu qizingdi.
Kelayotir Rustam bolam zo'rabor,
Oti Rustam, o'zi misli ajdahor,
Ishqirganda, dushman bo'lmas barobar,
O'lar vaqting yaqin keldi, jallodlar.
Endi o'lding, boshpanangni qilaber!
Dod desangam eshitmaydi so'zingni,

Bolam kelib o'yar ikki ko'zingni,
Endi qutilmaysan Rustam changidan,
Yetim qilding elda ulu qizingni!
Mening bul so'zimni hazil bilmagin,
Bir behuda so'z deb o'ylab yurmagin,
Boshpanangni qilgin, munda turmagin!

Bu so'zni Huroyimdan eshitib, Cho'ntoq jallod: «Ana, asli yomon-da. Yomondan yaxshilik chiqadimi? Mirzaboshi «namoz o'qiydi»,— deb, yaxshilik qilib edi. Bolam kelib baringni o'ldirib ketadi»,— deb bu hunarni chiqarib o'tiribdi. Buning odam o'ldiradigan bolasi bor ekanini qaysing bilasan?» — dedi.

Jalldolar uyalganday bo'lib, Cho'ntoq jallodga hech nima deyalmay qoldi. Cho'ntoq jallod o'rnidan turib, Huroyimning qoshiga borib: «Bolang kelsa, o'ldiradi-da, unday bo'lsa, seni bolasi keladikan, deb biz bunda yo'lga tikilib o'tirmaymiz. Bolang kelguncha seni dorga tortib, bir yoqli qilayik»,— deb, burumidan ushlab, dorning ostiga yetaklab olib kelaberdi. Shunda Huroyim dorga qarab bu so'zni aytib turdi:

Qodir Ollo sen bilasan holimdi,
Bevaqt berding menga nohaq o'limdi,
Mening qilgan gunam senga malumdi,
Begunoh ustinga olma tanimdi.
Senga osilgandir tuhmatning bari,
Begunoh quridi oyimning sho'ri,
To'rt ming gaz ko'taril Mansurning dori,
Otganda yetmasin jallod arqoni!
Dor ostida mening aqlim ketadi.
Dorga qarab necha so'zni aytadi:

«Sen necha zamondan beri turgan dorsan. Senga necha begunoh odamlar osilgan. So'ngra Mansurni osdi. Mansur ham menday tuhmat bilan osildi. Poshsholarning begunoh, tuhmat bilan hukm qilib yuborgan odamini har yerda bo'lsa, haydab kelib senga tortdi. Sen dor, bu dunyoda shu tuhmatning egasi bo'lding! Poshsholar gunohkorning boshini kesib, dorga tortsa, hammasida

ham o'zining qurilgan dori bor. Seni begunoh tuhmat bilan o'ladigan kishilarni osmoqqa qurgan. Mudom sen shu tuhmatni qumsab turding. — O'zing asli tuhmat uchun qurilding. Mana men! Meni ham tuhmat bilan senga osishga yuborgan. Meni qumsab turgan bo'lsang, mana men tayyor!» Huroyim bu so'zni aytib bo'lgandan keyin, dor shiqirlab joyidan qo'zg'alib ko'tarildi. Dor ham endi bu tuhmatdan xazar qildi.

Shunda jallodlar nima bo'larini bilmay, Huroyimning bo'yniga pichoq solmay, pichoq solmoqqa ko'ngli bo'lmay: «Baribir, o'lim-da, ikki boshdan unda ham o'ladi, bunda ham o'ladi», — deb, Huroyimning bo'yniga sirtmoq solib, arqonning uchini dorga otdi. Dor ko'tarilib ketgan, arqonning uchi yetmaydi. Jallodlar ancha vaqt ne qilarini bilmay qoldi.

Shu vaqtda Rustam yaqinlab yetdi. Rustamdan burun ikki tozi dorning ostiga borib qolib, jallodlarning qo'lidan arqonni tishlab tortib olib, jallodlar bunga hayron qolib, Chortutni yoqalab chiqib turdi.

Jon shirin, Huroyim ko'zini ochgani yo'q edi, tig' tegmasa ham, o'lim halokatiga kelib edi. Hech nima qulog'iga kirmay qolib edi. Ko'nglida, sal quvvat enganday bo'lib, ko'zini ochdi. Bag'ana o'zining boqib yurgan tozilarini ko'rdi. Rustamga ko'zi tushmay, bu so'zlarni aytib turdi:

«Ikki tozi keldi, bolam kelmadi,
Yolg'iz bolam tozilarcha bo'lmadi,
Dushmanlarga qora kunni solmadi,
Holim ko'rib, oh-u fig'on qilmadi.
Ikki qitmir keldi, bolam kelmadi,
Yolg'iz ulim qitmirlarcha bo'lmadi,
Vafodorlar keldi, bolam kelmadi».
Bu so'zlarni bunda Huroyim aytdi,
Dor ostiga bek Rustam yaqin yetdi.
Enasini ko'rib dorning ostida,
«Enamdiopkep — osg'onkan jallod», deb,
Sherday bo'p ot qo'ydi jallod ustiga!
Shul zamon Rustam yetishdi,

Jallodlarning aqli shoshdi;
Olib qo'liga po'latdi,
Jallodning boshini kesdi.
Enam, deydi aqli shoshib,
Rustambek juda tutashib,
Qaytmayin Rustam savashib,
Jallodlarga yashin tushib.
Bir maydon Rustam savashdi,
Kesib qo'ydi ancha boshdi;
O'liklarga quzg'un tushti,
Jallodlar har yoqqa qochdi.
Qochgan bilan qutulmaydi,
Rustamdan omon qolmaydi.
Rustambek qildi maydonni,
Maydonli kun sotar jondi.
Qo'lida xanjar isfixon,
To'kar yerga qizil qonni,
O'ldirdi necha dushmani.
Qilar dushman pushaymonni,

Murda degan bunda qiyrab,
Mansurning dorida qoldi.
Bahra tog'ning g'ajirlari,
O'lik izlab bunda keldi.
Ko'p o'likka ega bo'lib,
G'ajirlar maydonni ko'rib,
Har o'likka bitta qo'nib,
Endi go'shga to'yaberdi,
Rustambekni duo qilib.
Ko'ring Oqtoshning to'rasin,
Jallodga berdi izzasin.

Rustambekka duchor bo'lib,
Kelgan jallod bunda o'lib.
Endi yetti-sakkiz qolib,
Ko'p jallodlarni o'ldirib,
Bek Rustam ishin bitkardi,
Beshtasini tiriklayin,
Qaysar Rustam ushlab olib,
O'zga jallodning barisin,
Qilich damidan o'tkarib.
Bek Rustamning ishi g'olib,
«Kel ha!», deb qiziqqan vaqtda.
Jallodlarning bari o'lib,
Endi qolgandi sop bo'lib.

Rustamxon jallodlardan beshtasini tirik ushlab oldi, bir nechasing qulog'ini kesdi, bir nechasing burnini kesdi, birining tilini kesdi: «Bor endi, nima ko'rgan bo'lsang, ko'rganingni Oqtoshga, Sultonxonga aytib bor. Tag'in jallodi bo'lsa, mening qoshimga yuborsin!» — deb bek Rustam beshovini Oqtoshga qarab haydab yubordi.

Beshovi yo'lda gapirsak deydi, tili yo'q, kesilgan, gapiraman desa, g'uldurab qoladi, nima deganini odam tushunmaydi. Qulog'i kesilgan, tili, burni sog'i, kallasi kadiday bo'lib, gapirmoqqa dami chiqmay, ko'zi bo'zarib imlab qoldi. Tili sog', qulog'i sog', burni kesilgan gapirayin desa, bul ham bo'lmaydigan, mangqalanib, buning ham gapiga odam tushunmaydi. Bular ko'nglida gapirib, bir-biri bilan imlashib borayapti.

Endi Rustam: O'lgan jallodlarning bitta-yarimtasi ponada tirik qolgan bo'lmasin, o'likning ostida pisinib joni qolmasin, — deb, ko'rib yurib edi. Huroyimning hushi o'ziga keldi, o'midan turib(di). Shu vaqtgacha Rustam enasining tirik ekanini bilgan yo'q edi. Rustam jallodlarga yetishgan vaqtida enasini dorning ostida ko'rib edi. «Enamning boshini kesib, dorga tortgan ekan», — deb hech nima ko'ziga ko'rinmay, dor betga qaramay, jallodlarning dodini berib yurib edi. «Tog'in ham bitta-yarimta joni bori yo'qmikan», — deb ag'darib ko'rib yurib

edi. Shu vaqtda Huroyim Rustamni ko'rib qoldi. Dunyoga qaytadan kelganday bo'ldi: «Bul ko'rganim o'ngimmi, tushimmi», deb Rustamga qarab bir so'z aytdi:

Parvarishlar ko'rgan jon-u tanammi,
Yuragimdan ketgan dog'i alammi,
O'liklar ichida shunqor ko'rindi,
Zabinda bexabar bo'lgan bolammi?!
Ko'rinar ko'zima Rustam farzandim,
Necha kundan beri tortgan mehnatim,
Hech rohat yo'q, qolmagandir quvvatim,
Ko'rindi ko'zima yolg'iz farzandim.
Bul qo'zi-qo'chqorim mening rohatim,
Kepti omon-eson mening davlatim,
Shuncha ish qilibdi yolg'iz farzandim.
Manmanlikdan bu zolimlar o'libdi,
Qilgan ishlariga huzur qilibdi,
O'lsa ko'r bo'lsin-da zolim, badbaxtlar,
Go'daklari yetim bo'lib qolibdi.
Rustam hammasining boshin olibdi,
Qaramaydi, bolam, izlab kelibdi.
Belingga boylabsan xanjar isfixon,
Mehnat tortib mening uchun sotib jon,
Jasadingdan menday enang sadag'a,
Hayallamay beri kelgin, Rustamjon!
Seni ko'rib, ketdi mendan yuz armon.
Enang bunda sening uchun mehribon,
Beri kelgin, bolam, asov qulunim,
Hayallamay beri kelgin, Rustamjon!
Havo yog'ib, halqob yerlar loylansin,
Har yerda dushmanning qo'li boylansin.
O'ldiribsan zolim jallodlarini,
Jasadingdan menday enang aylansin!

Ko'rib quvonaman sening ishinga,
Shunday kunlar tushdi mening boshima,
Rustam qo'zim, bo'tam, kelgin qoshima,
Bolam, deb bosayin seni to'shima!
Kelgin, bolam, chopson kelgin qoshima!

Huroyim Rustambekni ko'rib, o'rmdan turib, Rustamga qarab bormoqchi bo'lib intiladi, turmoqqa quvvati kelmaydi.

Rustam o'liklarni ag'darib yurib edi, qulog'iga: «Bolam Rustam, qo'zim, bo'tam!», degan dovush keldi. Rustam boshini ko'tarib, uyoq-buyoqqa qaradi. Enasining bor ekanini endi bildi. Dorning ostida dustaman bo'lib yotgan enasi bag'rini ko'tarib, qulochini yozib, Rustam, deb chaqirib turibdi.

Rustam enasini ko'rganda, unga qarab yugurib, bu so'zlarni aytayotir:

Yuraginga tushgan dog'i alammi!
Jallodlar zulmini ko'rgan enammi?
Toqat qilolmayman enam dovshiga,
Rustam deb chaqirgan sen mehribonmi?!
Bu so'zdaytib borib qoldi qoshiga,
Rozi bo'lib harna bo'lgan ishiga.
Ingranib o'rmdan turib Huroyim,
Bolam deb quchoqlab bosdi to'shiga.
Ena-bola mehribonlar topishdi,
Enasin tarziga Rustam qaradi,
Holi-ahvolini Rustam so'radi:
«Enajon, zabinda qopman bexabar,
Qanday azob berdi senga jallodlar?
Qanday kunlar ko'rib, enam, xor-zor,
Sen ketgan so'ng yetdi menga bu xabar.
Enam dedim, so'ngra bo'ldim intizor,
O'lib ketdi zulm qilgan jallodlar.
Kechikib qoldim-da, so'ngra bildim,
O'ldimi deb yig'lab ko'p armon qildim,

Endi topilgandir murod-maqsadim.
Izlab kelgan menam yolg'iz farzanding,
O'tib ketdi ko'rgan qancha rohating,
Omon-eson, o'lmay, enajon, ko'rdim,
Eson-omon ko'rdim sening davlating.
Ena, quloq solgin uling tiliga,
Qaramadim zolimlarning holiga.
Ena, o'ylab yaxshi bergin maslahat,
Endi borasanmi Oqtosh eliga?
Ixtiyori senda, ena, so'rayik,
Hayr desang, Oqtoshga birga borayik».

Bu so'zni eshitib enasi Rustamga qarab bir so'z aytdi:

Meni desang Oqtosh elga bormayman,
Otangning diydori qursin, ko'rmayman.
Qaytib borib, bu ish esimga tushib,
Sira, bolam, burungiday bo'lmayman!
Meni desang boshqa yurtni izlagin,
Qursin Oqtosh, men ixtiyor qilmayman.
Oqtoshning shahrida poshsholik qildim,
Necha vaqt davron ustida o'tirdim.
Xalqning o'rtasida tuhmatga uchrab,
Qanday azob bilan bu yerga keldim,
Jallodlar zulmida qanday kun ko'rdim,
Yetmagan ajalim, qutulib qoldim.
Nega endi men Oqtoshga boraman?
Otangni deb yana burilib borguncha,
Har shaharda gado bo'lib yuraman!
Elatim deb yana qaytib borguncha,
Boshqa yurtda g'arib bo'lsam bo'lmaymi?
G'aribi go'riston o'lsam bo'lmaymi?
Erisin tog'larning qori, erisin,

Yer ostida zolim tani chirisin;
Otangning izzasi o'tib boradi,
Poshsholikman zolim otang qurisin!
Oqtosh borib, bolam, nima qilasan?
Borgandan otangning taxtin ko'rasan.
Otang poshsho, qilgan ishi tuhmatdi(r),
Shu tuhmatga sen ham bir kun qolasan!
Tuhmatxona joyda nima qilasan!

Rustam esi kirib, er yetib qolgan, kitob o'qib, har gapning ma'nisiga tushunadigan bo'lgan serfahm, o'yli, aqli ko'p yigit edi. Enasining so'zlarini tinglab, ma'nisiga tushunib, otasining qilgan ishlariga oshib-toshib otasidan ko'ngli qolib, enasining gapi ma'qul bo'lib: «Ena, unday bo'lsa ixtiyor senda. Sen shu gaplarni aytding; men otamning qoshiga bormayman, sendan ayrilib qolmayman. Tirik bo'lsak — bir tepada, o'lik bo'lsak — bir chuqurda. Endi sening xayoling qayerda bo'lsa, men ham o'sha yerda», — dedi.

Shu yerda o'lgan jallodlarning otidan bir semiz otga Rustam enasini mindirib oldi. Boradigan shaharining tayini yo'q. O'zi ham o'tlanib, tozilarini iyartib: «Ana, ena, adashganning oldi yo'l degan gap bor, shu oldi betga qarab yo'l tortayik», — deb, bu so'zlarni aytib ketib borayotir, deydi:

Enasiman Rustam shunday yo'l yurib,
Borayotir g'ayri yurtni axtarib.
Ot anjomi, bunga, xo'b ko'ngli to'qdir.
Borar mazgilining qarori yo'qdir.
Enasini o'ziga yo'ldosh qipti,
So'ylashmoqqa yaxshi ermak bo'libdi.
«Ena, — deydi, — na yerlarga borarmiz?
Hali betayinmiz; odam bo'larmiz,
Dunyoning davrini axir ko'rmiz,
Bizlar ketdik eldan umidni uzib.
Ko'z ko'rmagan necha cho'llarni kezib,

Ena, bu cho'llarda hamdam bo'ldingiz.
Qayga borsak birga bo'lib ikkimiz».
Bu so'zlarni aytib Rustam yo'l yurdi,
Bedov minib, yo'l yursa ham mo'l yurdi.
Parvoz qilib, har tarafga qaraydi,
Odamzod nishonidan ko'rmaydi.
Qistab yurar endi ostida otdi,
Cho'l-u ko'lda necha vaqtlar yo'l tortdi.
Hech ko'rmasi qora daraxt, elatdi.
Ko'kulu tog'iga bek Rustam yetdi.
Bu tog' juda haddin ziyoda balanddi(r)
Ostidagi mingan otni to'xtatdi.
Enasiga Rustam necha so'z aytdi:
«Qani, jonim ena, bering maslahat,
Necha kundan beri yo'qdir farog'at,
Shu toqqa qo'nayik, qilayik rohat.
Baland ekan, chiqib tog'ning boshiga,
Ena, rozi bo'ldim taqdir ishiga.
Toqqa chiqib, har tarafga qarayik,
Bir tarafda xalq ko'rinsa borayik.
Bundayin beega cho'lda qolmayik;
Jonim ena, endi bering maslahat,
Shul toqqa, enajon, bugun qo'nayik.

Bu so'zni eshitib, enasi Rustamga qarab bir so'z aytdi:

Bul tog', bolam, juda xatarli joydi(r).
Qo'nmoqqa izlama bul mazgil joydi,
O'ylasam, yuragim o'tday yonadi,
Bu yerda yotganing sira bo'lmaydi.
Bu yerlar, jon bolam, yo'lbarsxonadi,
Enang qursin, bolam, munlug' mushtipar,
Bu yerning yo'lbarisi juda ko'p bo'lar.

Yolg'izsan-da, holing qanday bo'ladi?
Bunda yotganingni yo'lbars bilmasin,
Kelib, senga qora kunlar solmasin,
Qursin enang, bir baloga qolmasin!
Avvali o'ylagin, bu tog'da yotma,
Yolg'izsan-da, bolam, manmanlik etma!
Sen o'zingni baland chog'lab, farzandim,
Hech vaqtida aslo o'zingdan ketma!

Rustam bu so'zni eshitib: «Ena, ayollik qilma! U aytgan yo'lbarslaring hozir ko'zingga ko'ringani yo'q. Ko'rinmagan yo'lbarsdan qo'rqib, bunday xafalik tortma! Ena, ko'p meni yolg'iz bola dema, yo'q narsalardan bekorga g'am yema», — deb enasini toqqa boshlab, bu kecha shu tog'ning joyili yerida qo'nib yotdi. Tong otar-otmasdan, Rustam o'rnidan turib, tog'ning bir baland cho'qqisiga chiqib ketdi. Har tarafga qaradi. Shahar, mamlakatdan nishon ko'rmadi. Yuqori betga qarasa, kun chiqib kelayapti. Qibla betga qarasa, qibla betdan ham bir kun chiqib turibdi.

Rustam aytdi: «Bizning yoqda kun bitta bo'lar edi, buyoqning kuni ikkita bo'lar ekan, buni enamdan so'rayin», — deb tog'dan tushib keldi. Kelib enasiga aytdi: «Ena, bizning yoqda kun bir yoqdan chiqar edi, bu yoqda ikki yoqdan chiqar ekan; bu — yuqoridan chiqqan kun, hamishagi o'zimizning kun, bu qibla betdan chiqqan kun kimning kuni?»

Enasi Rustamdan bu so'zni eshitib, bir so'z aytib turgan ekan:

Yuqoridan chiqqan Olloning kuni,
Etakdan ko'ringan devning makoni.
Oftoboyga devlar oshiq bo'lgandir,
Devoriga tillodan suv bergandir.
Kun chiqardi kun shu'lasi urgandir,
Kunday bo'lib, ul yarqillab turgandir.
Bahra tog'da, bolam, devning makoni,
Shunday obod qilgan u manzil joyini.
Ichida bor, ko'rsang, necha saroyi,

Belgili devlarning bul manzil joyi.
Yarqillasa, kun deb garang bo'lmagin,
Shu'lasi uzoqdan ko'zingni olar,
Bul ishlardan senday bo'tam bexabar.
Oftoboy deganim bir shohning qizi,
Qancha bo'ldi unda devlar talashi,
Nechaning uzildi tanadan joni.
Ko'p talashib, buzilgandir qo'rg'oni,
Oftoboyni shunda olib kelsak deb,
Oftoboyga atab solgan makoni.
Sen kun deb yuribsan anglamay bolam,
Bachchalikdan bo'lma enang lodoni.
Bahra tog'da turgan ajoyib makon.
Qancha usta necha yillar ishlagan,
Hunari borini unda bildirgan,
Ko'ngirasin po'latdan qip endirgan,
Darvozasi yoqut, tillodan bo'lgan.
Bahra tog'da devlar shunday ish qilgan,
Kun deb kelib sen so'rading, Rustamjon.

Shunda Rustam aytdi: «Ena, biz ko'rmoq tugil, eshitganimiz ham yo'q. Sen dev deb gapirding, makoniga qaraganda, imoratga shunday bino qo'yib o'xshatibdi. Shunga ko'ngil qo'ygan odam ekan-da».

Enasi aytdi: «Bolam, ul odam emas, odam ko'p yurmagan yerlarda bo'ladi. Juda bahaybat, siyosatli, yomon narsa. Agar odamning tushiga kirsam ham, odam shaytonlab qoladi».

Rustam aytdi: «Ena, gaping qanday bo'p ketdi. O'zi odamdan bo'lmasa, juda yomon narsa bo'lsa, uni o'ngida ko'rmay, odam tushida ko'rsa ham shaytonlab qolsa, undaycha narsaga bunday makon nimaga darkor? Ena, ikkovimiz o'tlanayik, shul makonga borayik. Eshitdik, lekin ko'rganimiz yo'q; makoni shunday ekan, qani, egasi qanaqa bo'larkan? Borib bir tomosha qilayik».

Enasi aytdi: «Bolan, unda necha zo‘r devlar bor. Borib, ular bilan barobar bo‘la olmaysan. Ul devlarga havas qilma!»

Rustam aytdi: «Ena, meni yo‘ldan urma! Nima bo‘lsa boramiz, aylanib bir tomosha qilamiz. Qanday jondor bo‘lsa ham, biz indamasak, tomosha qilgan odam bilan bekorga bo‘g‘isha bermas», — deb Rustam otlandi.

Huroyim ham bolasini ko‘zi qiymay, so‘zini bo‘lolmay, o‘g‘li bilan birga otlanib, tozilarini iyartib, Bahra tog‘iga qarab yo‘l tortdi.

Yo‘l yurib, yo‘lda necha beldan, darbanddan oshib, Bahra tog‘iga yaqinlab yetishib, usti betidan tushib keldi.

Ko‘rsalar: bul rabot, tillaning suvini yugurtirib solingan, eshik bo‘zag‘alarini yoqut-javohirotlardan o‘tqazib, tilladan suv bergan. Kun chiqqandan odam qarab bo‘lmaydi, shunday yarqillab turgan.

Rustam qaytmaydi, enasini iyartib, ochib kirib borgan. Qaradi: bir qo‘rg‘on, munaqqashli mazgil-joylar, ko‘shku ayvon, ajab saroylar. Ichida besh yuz sarhovuz bor, elaslab turibdi. Yangitda birov kelib ketganday, yaxshi liboslar to‘shalgan har turli anjomlar tayyor bo‘lgan. Araq-sharoblar ham quyulgan, uncha-muncha to‘kilgan belgilari turgan. Shunday joy. Hech jonzot yo‘q. Olmalar pishib yotir, toza sarg‘aygani to‘pillab ostiga tushib yotir. «Buning egasi qayoqda», — deb gap so‘raydigan ham jonzot yo‘q. Shosupaga suvlar sepilgan, qoshiga gullar ekilgan. Namoyishga chini gujumlar tikilgan, gujumning soyasiga jami qushlar yig‘ilgan. Jinqarcha, musicha, balki murotalibachcha, bari bola-chaqasi bilan yig‘ilib, bir laylakni sozanda qilib aytirib o‘turur edi.

Rustam aytdi: «Ena, dev deb eding, yo dev, yo bo‘lak jonzot yo‘q. Mana, laylak jami qushga suxangar bo‘lib, aytib o‘tiribdi ekan. O‘zi katta qo‘rg‘on ekan. Buning egasini topamiz, deb qayerini qaraymiz. Qanday bo‘lsa, laylakdan so‘rab ko‘rayik, xabarini shul ham bilar», — deb bir so‘z aytib turgan ekan:

Qirq ming tup olisha, qirq ming tup anor,

Soyangda salqinlab yotadi beklar.

Jami qushga sen bo‘libsan suxangar,

Saltanatli joylar kimning joylari?

Shosupa ustiga suvlar sepilgan,

Atrofiga yaxshi gullar ekilgan.
Har alvonda qushlar bunda yig'ilgan,
Munaqqashli mazgil-joylar kimniki?
Qushlar o'rtasinda sayrab turibsan,
Hammasidan bo'yning uzun, g'olibsan,
Qushlardan ham ko'proq gapni bilibsan,
Ko'shki ayvon mazgil-joylar kimniki?
Enam yo'ldosh bo'lgan bizga mushtipar,
Devni aytib menga bergandi xabar,
Laylak, senga aytadigan so'zim bor.
Xo'b guliston mazgil-joylar kimniki?
Shundayin tog'larda bul makon qilgan,
Hechkim yo'q bu tog'da shunday joy solgan,
Bu makonda qancha dunyo sarf qilib,
Kim bo'lar bu joyning rohatin ko'rgan?
Bu ishlardan asli o'zim bexabar,
Men so'rayman, javob bergin, sen qushlar,
Laylak, bo'psan jami qushga suxangar!

Shunda Rustamning so'ziga hech bir qush quloq solmadi. Laylak aytuvidan, o'zga qushlar sayrovidan qolmadi.

Rustam aytdi: «Ena, sen devning makoni deb bilmay aytgansan. Aytishingdan dev — bir pahlaz narsa bo'ladi. Bunday joyda dev nima qiladi? Bizlarning mamlakatimizdan judo bo'lganimizni xudo bilgan, bul makonni sen bilan bizga atab solgan. Sen bilan mendan bo'lak kishining haqi yo'q bu yerda», — deb otdan tusha berdi. Tozilari bilan otni o'tga qo'yib, hech nimaga zarur emas, hamma narsa bor, har turli mevalar. Otlarini o'tga qo'yib, enasi bilan bunda turdi. Rustam tog'-toshda yurib ov qilib keladigan bo'ldi. Rustam ov ovlab keladi, enasi pishirib beradi. Shunday bo'lib qirq kecha-yu qirq kunduz oradan o'tdi. Yo dev, yo odamzod «Bu joy bizniki edi», — deb kelmadi. O'zlarining hovlisiday bo'lib bag'ir bosib qoldi. Birov, «Joy bizniki», — deb keladigan bo'lsa ham Rustam xayolida bermaydiganday.

Shunday qilib orada bir necha kun o'tdi. Bir kun enasi aytdi:

— Bolam, sen ovda, tog'-toshda ko'p yurasan, yaqin orada borib kelguday bir mamlakat, joy ko'rinadimi, borib kelsang? Usti-boshimiz kir bo'lib ketibdi. Tuzsiz ovqat yeb, qovoqlarimiz ham shishibdi. Tuz bilan sovun topib kelsang!

Rustam aytdi:

— Kecha ovda yurib, bir tog'ning baland cho'qqisidan qaragam, tog'ning etagida bir qora daraxt ko'rindi. Lekin olis-yaqinligini bilmayman, magar shunga borib kel demasang.

— Unga borsang, qay mahal kelasan? — dedi enasi.

Rustam aytdi:

— Erta-mertan jo'nab ketsam, govgum yotarlarda kelib qolarman.

Enasi aytdi:

— Bu bir xatarli joy. Qanday bo'lsa kunin borib, kunin kell! Tag'i sen hayallab ketib, bu joyning egasi kelib qolib, men baloga qolib o'tirmayin!

«Xayr», — deb shul maslahatni qilib, shu kecha yotdi. Erta-mertan tong otdi. Rustam o'rnidan turib, egarlab, choqlab mindi bedov otdi. Enasi bilan ikki tozisini Bahra tog'da, Oqrabotga tashlab, Rustam yo'l tortdi:

«Chuv!» dedi qamchi urib,
Jo'nadi yo'lga kirib,
Rustam ketib boradi,
Tuz-u sovun axtarib.
Qilar Rustam g'ayratdi.
Tog' yoqalab yo'l ketdi.
Kechgacha borib kelsam deb,
Qistaydi mingan otdi.
Ko'rgan qora daraxtdi,
Izlab Rustam yo'l tortdi.
Kunga Rustam qarabdi,
Tushga yaqinlab qopti.
Bugun borib kelsam deb,
Uradi mingan otdi.

Qamchi urib bedovga,
Shunday ko'kalam tovga,
Chorvadorlar qo'y yoyar,
Sarkasini ay-haylab,
Boshqarib solar zovga.
Tush og'ayin deganda,
Shuytib Rustam yo'l tortib,
Tog'ning etak betida,
Yaqinladi o'tovga.
Bul o'tovni ko'radi,
G'ayrat bilan boradi,
Bir boyning mazgili deb,
Ko'ngliga keladi.
Shuytib Rustam yo'l tortib.
Bordi o'tovga yetib.

Rustam ko'nglida: «Bu — mol o'tlatgani chiqqan, tog'ning etak izasiga, o'tlik betiga tikib qo'ygan moldor kishchining uyi ekan», — deb bordi. «O'tovning yon-yog'ida hech bir mol-jonning izi yo'q. Bu o'tov tikilgandan beri sira mol tuxmidan kelgan emas». Ot ustida o'tovning bo'sag'asidan qaradi. Ko'rdi: ajab suratli bir qiz, jamoli kunni xira qilguday, harkim husnini ko'rsa, aqli ketib, otdan yiqilib qolguday. Ikki qo'li orqasiga boylangan, sochidan uyning keragasiga bog'lovli turibdi. Rustam ko'rib hayron qoldi. «Shunday odamni ham ovloq bir cho'lda, ko'z ko'rmagan yerda boylab tashlaydigan ham gaplar bor ekan-da. Kel, o'ylab turguncha, so'ylab bilayin», — deb Rustam bir so'z aytib turgan ekan:

Alifday qomating, xipcha belingdan,
Menga bayon ayla o'sgan elingdan,
Xabar olmay hechkim sening holingdan,
Bu yerlarga qanday nomard boyladi?
Boylaganni menga bayon aylagin!

Qanday odam qildi qayg‘u zulmni?
Xafa qipti senday toza gulimni?
Otdan tushib yechayinmi qo‘lingni?
Boylaganni menga xabar ber endi.
Maloyik suratli, gulyuzli dilbar.
Seni ko‘rgan odam bo‘lar beqaror,
O-yu kundan ziyod sening husning bor,
Nega qildi seni boylab giriftor?
O‘z yurtingda biror ishni qildingmi?
O‘lim ishga duchor bo‘lib qoldingmi?
Bir tuhmatga sen giriftor bo‘ldingmi?
Xabar bergin, qanday lodon boyladi?
Menga aytsang o‘ynab o‘sgan yurtingni,
Nima deydi sening ismi, zotingni?
Menga aytsang, senam sir-u holingni,
Javob bersang, yechib qo‘yay qo‘lingni!

Qiz bu so‘zni Rustamdan eshitib, boylovli turgan yerida Rustamxonga javob berib, bir so‘z aytib turgan ekan:

Bahorda ochilgan bog‘ning gulisan,
Otangman enangning jon-u dilisan,
Anglamay, begijon, bunda kelarsan,
Albatta aylanma falokat joyga.
Bunda tursang armon bilan o‘larsan,
Ollo sening aql-u hushing oldimi?
Ajal yetib, sening kuning to‘ldimi?
Albatta, aylanma xatarli joyga,
Seni bunda ajal haydab keldimi?
Meni so‘rab, bexos bo‘lib turmagin,
Hayallama, ketgin, yo‘ldan qolmagin,
Vaqti zamon mening kunim bitgandir.
Ketgin, menday bo‘lib bunda o‘lmagin!

Bu soʻzlarni aytar mendayin nochor,
Dam-badamda etib kelar ajdahar,
Soʻngra qochib qutilmassan undan,
Hayallamay bundan ketmogʻing darkor!
Kelsa mamlakatni toʻzon qiladi,
Ishqirib damiga tortib oladi,
Kim yaqinda boʻlsa, tayin oʻladi,
Sendayin yoʻlbarsni nobud qiladi.
Hayallama, ketgin, bu yerda turma!
Bizning shahrimizni ajdahar olgan,
Uy boshiga bir qizdan soliq solgan,
Men boylandim, bugun navbatim kelgan,
Koʻp turmagin, ketgin bundan, begijon,
Xayolingni bunda turib boʻlmagin,
Yaxshilik koʻr, yomonlikni koʻrmagin,
Sen mening husninga hayron qolmagin,
Oʻlib ketib ajdaharning damida,
Sen meni qoningga zomin qilmagin!
Men turibman oʻlaman deb, mugʻoyib,
Gulday yuzim zaʼfaronday sargʻayib,
Duchor boʻlsang ajdaharning damiga,
Harna bor davlating boʻlar besohib.
Ota-enang qolar sochini yoyib,
Ketaver, begijon, bunda turmagin!
Ajdahar haybatli, nima bilasan,
Sen eshitding, turib nima qilasan?
Hayal oʻtmay kelib qolar ustingga.
Tortganda damiga duchor boʻlasan!

Rustam bu soʻzni eshitib, oʻz boshini qutqarib, qizni tashlab ketgani koʻzi
qiyamay, ajdaharga bir begunohni bergusi kelmay, qizga qarab bir soʻz aytib
turgan ekan:

Kerak

②

Oh ursam to'kilar ko'zimning yoshi,
Obloning tobida odamning boshi.

O'limdan qaytarmi, bilgin, mard kishi,
Bundan qo'rqib ketmoq — nomardning ishi!

Ushbu damdir o'zga damni dam dema,
Ajdahardan sira meni kam dema!

Qay tarafdand bunda kelar ajdahar?

Mushtipar san, o'ladi deb g'am yema!

Ajdahar yo'lini ko'rsatgin dilbar,

Ajdahar deganing bitta ilonda,

Bir ilonning nima quvvatlari bor?

Elingning zahrasin toza olibdi,

Zaharini butun elga solibdi,

Elingda yo'q ekan daf' aytgich odam,

Bir ilonga seni duchor qilibdi.

Hech zamonda shunday ishlar bo'larmi?

Ajdahar deb seni boylab berarmi?

Ko'rsatgin ajdahar kelar yo'lini,

Meni o'ladi deb, munglig', g'am yema!

Ajdaharga ko'rsatayin ishimni,

Yo'lingda berayin aziz boshimni,

Omon-esson ajdahardan qutulsang,

So'ngra borib ko'rgin qarindoshingni.

Qay tarafdand bunda kelar ajdahar?

Chirpinib turibdi mendayin shunqor,

Seskanib ilondan qo'rqma, mushtipar,

Nasib etsa, ot o'ynatib borarman!

Ko'rsat yo'lin, ne kunlarni solarman,

Ajdaharni necha bo'lak qilarman!

Menga ko'rsat ajdaharni yo'lini,

Tortinmayin ajdaharga borayin.

Ajdaharning tandan boshin olayin!

Bu so'zni eshitib, qiz ilgari ajdaharni o'z ko'zi bilan ko'rgani yo'q, xalqning qilgan ta'rifiga, elning maobatiga, Rustamning qaddi-jasadiga, el gapirgan ajdaharning siyosatiga qarab: «Yaxshi yigit ekan, o'lmasin», — deb yanayam ko'p qaytardi. Shunda ham Rustam: «Mard so'zidan, yo'lbars» izidan burilmas degan gap bor. Ajdahar damiga tortadi, meni yutadi, deb vahm qilmayman. Qayishmay ajdaharning yo'lini aytgin! — dedi. Shunda qiz aytdi: «Harchand zo'r urdim, bo'lmadi; sening ham ajaling yetgan ekan, kuning bitgan ekan, gavda-go'shting ajdaharga taqdir etgan ekan», — deb bir beldor qirni ko'rsatdi: «Ajdahar shu tarafdin keladi», — dedi.

Shunda Rustam qizning gapi bilan otiga qamchi urib, boynagi ko'ndalang qirning ustiga chiqdi. Qarasa, ajdahar tog'ning tangisidan ko'zi olovday yonib, ishqirib, har tarafga o't sochib, Charxin ko'l degan ko'lga suvga tushib kelayotgan ekan:

Chopinib ajdahar damga tortadi,
Ko'lining qamishlari tappa yotadi,
Ishqirib ajdahar damga tortadi,
Charxin ko'lining suvin birdan yutadi.
Ishqirib ajdahar damin olganda,
Dunyoni qorong'u to'zon tutadi.
Yaqinlab bek Rustam shunday qarasa,
Tog'ning toshi zing'illashib o'tadi.
Ajdahar damiga toshlar ketadi.
Haybat bilan kelayotir ajdahar,
Yaqinladi Rustambekday zo'rabor;
Ajdahar chopinib damga tortganda,
Langar to'kib Rustam o'zin to'xtatar.
Hech narsani pisand qilmas ajdahar,
Chidayalmay endi Rustam zo'rabor,
Bir-biriga endi yaqinlab qolar,
Na'ra tortib bunda Rustamday qaysar.
Quvvatiman Rustam na'ra tortdi,

Rustamning tovushi ajdarga yetdi,
Bu tovushdan uning qulog'i bitdi,
Ko'targan boshini y yerga tashladi,
Jiyirib quyrug'in o'ziga tortdi.
Ajdahar behushdi, Rustambek bildi,
Qilichni chiqarib qo'liga oldi.
Haybatli ilonning qoshiga bordi.
Ilonning boshiga qilichni soldi.
Haybatidan qo'rqmay Rustam ish qildi,
Ajdaharni qaysar Rustam o'ldirdi.
Dushmanni o'ldirib ko'nglin xushladi,
Buni qirq bir g'ola qilib tashladi.
Bir g'oladan oldi uzun bir tasma,
«Ajdahar belgisi», dedi, jo'nadi.
Rustamning zarbidan ajdahar o'tdi,
Tog'ning jondoriga yemish bo'b yotdi,
Rustam qaytdi ajdaharni o'ldirib,
O'tovdagi qizning qoshiga yetdi.
Ul qiz ko'rdi: Rustam keladi omon,
«Ajdaharni ko'rmapti», deb mushtipar,
Ko'nglidan kechirdi ana shul zamon.

Rustam qizning oldiga borib, «Ishonar belgisi», — deb ajdahardan olgan tasmani qizning oldiga tashladi. (Oftoboy) ajdaharning terisidan olingan tasmani ko'rib, ajdahar o'lib, o'zining omon qolganini bilib, quvondi. Rustam ot ustida turib, u qizga qarab bir so'z so'rab deydi:

O'ldirganman sening dushmanlaringni,
Endi aytsang menga o'sgan elingni,
Yechib qo'ysam endi sening qo'lingni.
Senam bir yaxshining ko'rar ko'zisan,
Balki ko'rar ko'zda, so'zlar so'zisan,
Shul zamon, mushtipar, sendan so'rayman,

Xabar bergin, o'zing kimning qizisan?
Ajdahar damiga duchor bo'libsan,
Necha kundir sen boylovli turibsan,
Qachon o'laringni o'zing bilmayin,
Diqqatlikda qattiq kunlar ko'ribsan.
Men bilayin sening o'sgan yurtingni,
Menga xabar bergin endi otingni!
Armon bilan o'lib ketdi ajdahar,
Joningga sababkor mendayin shunqor,
O-yu kundan suluv sening tarzing bor,
Qayg'u g'amdan ozod bo'lding, gajakdor.
G'am tortib sen ajdaharni ko'rmading,
Ul badbaxtga sen bir duchor bo'lmading.
Charxin ko'lda duchor bo'ldi ajdahar,
Haybatidan titrar bir necha shahar.
Ajdahardan nobud bo'lgan odamlar,
Shuning biri bo'lgan sendayin nochor.
Endi so'zlab, xabar bergin elingni.
Men chechayin otdan tushib qo'lingni.
Men so'rayman sening manzillaringni!

Rustambekdan bu so'zlarni eshitib, qiz ham boylovli turgan yeridan
Rustambekka qarab bir so'z aytib turgan ekan:

Savashli kun botir tortar sari yoy,
G'amli kunda ko'p tortganman oh-u voy,
Shu vaqtida sizday bekni yetkizdi,
Bul jonima sabab qildi bir xudoy,
Otimni so'rasang mening, Oftoboy.
O'z elimda chin deganning o'ziman,
Enamman otamning ko'rar ko'ziman,
Bujul elda Xisrav shohning qiziman.
Sizday bekka aytay ahvollarimni,

Ajdahardan nobud bo'lib yo'q bo'lgan,
Ajdar yutgan necha kanizlarimni.
Mendayin oyimning navbati kelib,
O'limning sharobi yoqamdan olib,
Bul o'limdan sizday shunqor qutqarib,
So'zlayin holimni siz quloq solib,
Yechaman, deb, xonim, sen halak bo'lma,
Ketabergin, endi yo'lingdan qolma,
Enam bilan qarindoshlarim kelsin,
Kelib mening turgan ahvolim ko'rsin.
Kelib yechsa, men ham elga borarman,
Sizday bekni o'zim topib olarman,
El ichida to'yu ma'raka berib,
Sizday xonman birga davron surarman.
Nasib etsa adras, kimxob kiyaman,
Haqdan kelgan ishga bo'ynim iyaman,
O'zgani demayman mamlakatimda,
Xalq ichida sizni suyib tiyaman.
Yomon kunda ko'p so'rading holimni,
Qabul qilib, bag'ishlayman tanimni,
Halak bo'lib, xonim, yechma qo'limni!

Bu so'zni eshitib, qizning gapiga kirib, Rustam otidan tushmay, yerga tashlangan tasmaga qaramay, o'z yo'liga qarab ketdi. Boshida o'zi tuz bilan sovunga chiqqan edi. Shu orada qancha gaplar o'tib ketdi. O'sha tog'da ko'ringan qora daraxt Bujul shahri ekan. Tog'dan yaqinday bo'lib g'uborlanib ko'ringan ekan. Hali o'sha ko'rgan yeriga yetolgani yo'q. Qichab ketib borayapti. Necha ko'llardan, necha ellardan, tog'u cho'llardan o'tib shahri Bujulga yetib bordi.

Borsa, Bujul shahri shunday: devorini zakka bo'yagan, hammasi kiyimini ko'kka bo'yagan. Birov-biroviga yonashmaydi, ortiq-kamini hisoblashmaydi. Rustam bir nechaga so'z qotadi, gapiga quloq solmay ketadi. Rustam aytadi: «Bu shaharning odami jovligi bilan gungmikan?», hayron bo'lib, boqqol

kosiblarning qoshiga boradi. Tuz bilan sovun so'radi. O'zi gapirib o'zi kuyadi, hechkim gapiga quloq solmadi. Rustam hayron qoldi. Bu shaharda bir gaplashadigan odam bo'lmadi. Bu nima voqea ekanini Rustam bilmadi. Shunda Rustam qo'rg'onning darvozasiga yetdi. Qaradi: bir mo'ysafid turibdi. Boshdan-oyog'igacha ko'kmak, qo'lidagi tayog'igacha ko'kmak. Rustam aytdi: «Qo'lida tayog'i bor, ham darvozada turibdi. Poshsholik hech mahalda qo'rboshini gungdan qilmaydi. Shundan bir so'rab ko'rayin, albatta tili bordir», deb Rustam qo'rboshiga qarab bu ahvollarni so'rab turgan ekan:

Qiyomatcha bo'lar mardning savashi,
Falakning gardishi, Olloning ishi,
Gangimasin menday jo'mardning boshi,
Ne sababdan baring bunday, qo'rboshi?
So'z so'zlasa qovog'ingni uyan,
Biringamas, baring qora kiyasan,
Daladan kelganni hayron qilasan,
Til bilmagan baring qanday balosan?
Ne sababdan baring bunday, qo'rboshi?
Hayron qolib ahvolingni so'rayman,
Tiling bo'lsa, xabar bergin sen mag'an,
Elingni ko'rdim-u, bo'lganman hayron,
Ko'nglimning qal'asin qilmagin vayron.
Har kinga so'z qotib, bo'ldim dar hayron.
Tiling bo'lsa, xabar bergin sen mag'an,
Azali shahringdan gapir, bobojon!
Ne sababdan baring bunday, qo'rboshi?

Qo'rboshi bu so'zni eshitib, u ham Rustamga qarab bir so'z aytib turgan ekan:

Osha eldan josus bo'lib kelasan,
Xisrav shohga xabar bersa, o'lasan,
Bilmaslikka olib so'rab turasan,
Ket, musofir, elda nima qilasan!
Sen bilmaysan endi qilar ishingni,

Bachchag'ar, astaroq chiqar dovshingni!
Xisrav shohim bilsa, kesar boshingni,
Dorga tortib qilar sening ishingni!
Bizning elni bunda poylab kelmagin.
Josus bo'lib, ahvollarim bilmagin,
Hayallamay ketgin endi shahardan,
Ketgin, josus, sira bunda turmagin!
Yosh ekansan, josuslikni qilibsan,
Xalqning sirin sen bilmoqqa kelibsan,
Bilmaslikka olib, so'rab turibsan,
Ket, musofir, elda nima qilasan!

Bu so'zni bobo aytdi. Rustamga juda o'tib ketdi. O'tday tutashib, otini qimsib, boboga yaqinlashib, Rustamning g'ayrati toshib, bir so'z aytib turgan ekan:

Xudoyim saqlagay bandani omon,
Ko'nglingda bor ekan qayg'uli tuman,
Josus deb aylading sen meni gumon,
Unday deb gapirma, bobo beimon!
Yulduzni ko'zlaydi bu mingan otim,
Yarqillar belimda keskir po'latim,
Bunday so'zga kelar mening g'ayratim,
Sen tilingni tortib so'zla, bobojon,
Darbozada qolar sening jasading!
Josus degan so'zing menga o'tadi,
Bachchag'ar, josus deb kimni aytdi?
O'yla, josus odam menday bo'larmi?
Kelib sendan gapni so'rab turarmi?
Achchig'lansam men qilarman ishingni,
Josus deb sen chiqarmagin dovshingni!
Kesarman taningdan aziz boshingni,
Yig'latarman qavm-u qarindoshingni!
Bobo, bilasanmi aytgan so'zimdi,

Yetim qilsam sening o'g'il-qizingdi,
Josus deding meni, bunday nah urding,
Shul gapingga senga o'lim lozimdi.
Menday odam josuslikni qilarmi?
Xayoling shundayin ahmoq bo'larmi?
Sen qaribsan, darvozada turibsan,
Necha vaqt poshshongga xizmat qilibsan,
Ahmoq, so'zni o'zing ko'p mashq qilibsan,
Josus deb so'zlama, bobo, o'larsan,
Josusning ishini so'ngra ko'rarsan!

Bu so'zni eshitib, u bobo turib aytdi: «Bu juda toti chapani enag'ar ekan. Ostida bedov ot, yonida keskir po'lat, tag'i bir gapini qaytarsam, qilichni g'ilofdan sug'urib olar, boshimga birni solar. Hamma o'z vahmi bilan, mening bilan kimning ishi bor, o'lganimni hech kim bilmay qolar. Men bir qari odam, barobar bo'lib o'rashib yurmoqni kim qo'yibdi? Shaharga kelgan odamlarning kimi do'st, kimi dushman shuni bil, deb menga Xisrav shoh xat berib qo'yibdimi? Amaldorsinib gapirib, yomon odamga duch bo'ldim. Avvali bu gaplarni menga kim qo'yipti? To'g'ri javob aytib o'tkazib yuborabermak-da», — deb bobo bir-ikki og'iz so'z aytib turibdi, deydi:

Mard yigitsan, bolam, eshit tilimni,
Ey yigit, so'rading mening elimni,
Men senga aytayin ko'rganlarimni,
Eshit, bolam, bu ko'nglimda borimni.
Bobotog'dan biror ajdahar kelgan,
Odamlar yetti yil urishib ko'rgan,
Yetti yilgachayin ko'p odam o'lgan,
Ajdahar zo'rigin bunda bildirgan.
Yurtimizni so'ngra ajdahar olgan,
Gapirishib unday key mamlaga kelgan,
Kuniga bir qizdan soliqni solgan,
Ko'p qizlar ajdahar damida o'lgan.

Oftoboyga endi navbat keb qolgan.
Poshshomizning qizi unda boylangan,
Ajdahar yutgandir, Oftoboy o'lgan.
Poshshomiz shundayin elga chaqirgan,
Savdo-sotiq, so'zlashmoqlik yo'q bo'lgan.
Hamma odam Oftob azasin qilgan.
Tarzingga qarayman — ochilgan guldi,
Bir chamandan parvoz qilgan bulbuldi.
Kelib bunda mamlakatim so'rating,
Azali yurtimning ma'nisi shuldi,
Mayling, oralasang bundayin eldi.

Bobosidan bu so'zni eshitib, Rustam aytdi: «Bobo, shumlikni o'ylab, o'zingni qiynab gapirib yotguncha, ilgaridan shunday javob aytasang bo'lmasmi?» — deb qo'rg'ondan ichkari kirib ketdi.

Endi kun kech bo'ldi. Rustam Oqsaroy degan saroyga borib, qo'nib mehmon bo'ldi. Endi Rustam ham tushunib qoldi. Bir nima olar bo'lsa, yonidan pulni chiqarib beradi; ul odam ham indamaydi, qo'li bilan nimani ko'rsatsa, puliga yarasha shundan olib beradi. Poshsholik chaqirtib qo'ygan: savdo-sotiq, birovga so'ylab gapirmoqlik — hamma gap yotib qolgan. Hamma biladi, josus voqeanavislar oralab yurgan. Shunday shaharda yo birov bilan birovning savdo qilganini, yo so'zlashgani, muomala qilganini bilsa, voqeanavislari poshshoga xabar beradi. Poshsho o'sha odamni olib borib dorga tortadi. Jonidan qo'rqqanidan hech kim gapirmaydi. Rustam Oqsaroyda mehmon bo'lib yotdi: «Enam bilan tozilar bugun kelmadi, deb yo'lga qarab turar-da; bir kun yarim kunda savdo ochilar-da», — dedi. Shu oqshom Oqsaroyda yotdi. Erta-mer-tan tong otdi. Oftoboyning enasi o'rimdan turgandan poytaxt qarab ketdi. Xisrav poshshoning qoshiga yetdi. Hisrav shohga qarab xotini bu so'zni aytdi:

Yotib edim, tong oldida tush ko'rdim,
Bul tushimda bir ajoyib ish ko'rdim,
G'arib bo'lgan ko'nglimni xush ko'rdim,
Bul tushimda u ajdahar o'lganday.

Mening Oftob qizim tirik qolganday,
Osha yurtdan bir qarchig'ay kelganday,
Qarchig'ay ajdarga changal solganday,
Qarchig'ay changida ajdar o'lganday.
Bu tushimda shunday bo'lib bilindi,
Mamlakatlar behbudchilik bo'lganday,
Hamma o'z ishida tinchib qolganday,
Ul dushman — ajdahar nobud bo'lganday.
Tushimdan quvondim qolmas toqatim,
Olti oylik yo'ldi so'rar hukumating,
Ajdahardan ko'p edi vahm-zulmating,
Boshingda bor sening toj-u davlating,
Qizam bo'lsa Oftob yolg'iz farzanding.
Oftoboydan xabar olsang na bo'ldi!
Gap eshitgin tushda ko'rgan so'zimdan,
Albatta, sen xabar olgin qizingdan,
Bejiz emas mening ko'rgan bul tushim,
Xabar olgin kechikmay yolg'izingdan!
Yolg'iz qolib, ko'zdan yoshin to'kmasin,
Motam tutib, yana afsus tortmasin,
Xabar olgin, xonim, Oftob qizingdan,
Yolg'iz qolib, malomat bo'p yotmasin.

Xisrav shoh bu so'zni eshitib, amaldorlarini yig'ib, bir so'z aytib turgan ekan:

Botir bo'lib, bu maydonda turguday,
Xizmat qilib, in'omimni olguday,
O'ng-u so'lda bir azamat bormisan,
Ajdahardan xabar olib kelguday.
Ajdahar o'likmi yo unda tirikmi,
Borib ajdaharni ko'rib kelguday?
Qani, amaldordar, talab qilasan,

Kim botir bo‘b chiqar, o‘zing bilasan.
Shahar, elga chiqib xabar berasan,
Hamma ham eshitsin, jarchi qo‘yasan,
El-u xalqdan biror botir chiqarmi?
Kimki botir bo‘lsa, olib kelasan!
Amaldorga poshsho necha so‘z aytdi,
Necha sipohilar otlanib ketdi.
Chaqirar, hech kimdan sado chiqmaydi,
Ajdaharga men boraman, demaydi.
Poshsholik chaqirtadi, odam kelibdi,
Hammadan so‘raydi endi Xisrav xon,
Ajdahar deb aning nomin aytgandan,
Poshshosidan bari bezor bo‘libdi.
Odamlar yig‘ilgan bunda ko‘p bo‘lib,
Poytaxt ostida xo‘p to‘p-to‘p bo‘lib,
Bir-biriman turdi maslahat qilib:
«Poshsho bizni bul o‘limga buyurib.
In‘om deydi, bizga savol qiladi,
Borgan odam ajdahardan o‘ladi.
Borgan kishi bunda omon kelmaydi.
O‘lgan so‘ng in‘omni nima qiladi?»
Hamma hayron bu poshshoning ishiga,
O‘lik-tirigini bilib kel, deydi,
Bilmoq uchun kim boradi qoshiga?

Xalq poshshoning so‘zini eshitib: «Uning o‘lik-tirigini bilmoqqa yaqinlab borib bo‘ladimi? U, sening shahardagi jo‘rangmi, gaplashib yuradigan?! U bir katta ilon. Qorang ko‘ringandan damiga tortadi. Odam boruvi bilan ot-poti bilan ichiga urib ketadi. U, qanday narsa bo‘lsa yutadi», — deb hech kimdan men boraman, degan sado chiqmadi.

Poshsho turib aytdi: «Mol-u dunyoga zaril qisilib kun ko‘rib yurgan, xo‘p kambag‘alchilik bilan kunni o‘tkazgan, xohi qimorboz, xohi bedanaboz, o‘z

mashg'ulotida yurgan odamlarga ham xabar qildinglarmi? Tirikchilik joniga tekkan, bu yurishdan yo o'layik, yo qolayik deb yurgan kishi chiqib qolmasmi?»

Amaldorlar aytdi: «Shunday rejali belgili odamlar eshitdi, yo ulardan hech gap chiqmadi. Men botirman deb otlanadigan bo'lmadi. Umrida bir yaxshi kiyim kiymagan, ot tugil, eshak minmagan, egni yangi chopon ko'rmagan odamlardan nima maslahat chiqar deysiz?»

Poshshoning pastroq amalida turgan bir kishi: «Har so'zga dadil javob aytaberding, sen erinsang, men xabar qilayin, tegirmonchidan bir bo'p degan gap bor», — deb otlanib xabar qilgani ketdi.

U vaqtda shunday rasm bor edi: kambag'alning bobosi deb, bir odamni kambag'allarga boshchi qilib qo'yar edi. Qanday kambag'al gunohkor bo'lsa ham, bosti javobini shundan so'rar edi. Bir yurtidan bir yurtga og'ishib kelgan, poshsholarning nazdida betayin odam bo'lsa, bo'lak er joy bermasa, bilsa o'zi borar edi, bilmasa, u kambag'allarning kattasi — kambag'al bobo «bul bizning odamimiz» deb yig'ib olar edi.

O'sha vaqtida Tog'ay degan bor edi. Kambag'allar Tog'ayni bobo ko'targan edi. U kambag'allarga bosh bo'lib turgan edi.

Tog'ay shunday odam edi: hammomning kuliga lavlagi pishirib, jo'rulari bilan yeb, o'z gapi bilan bir-birining vaqtini xushlab, birovi besh tanga topsa, «Hammamizning topgan davlatimiz o'rtada» deb, o'rtaga tashlar edi. Ularning qoshiga qorni to'q kishidan hech bir kishi bormas edi. Ular ham shu yurishida otli, to'nli, badavlat kishini odammisan deb pisand qilmas edi. Tog'ay har kimning xizmatini qilgan, ganada hammomda o't yoqib kun o'tkazib kelayotgan, birovning haqidan qo'rqqan, hech kimga zarari tegmagan, kim kambag'al bo'lsa, shuning bilan topishib, ko'nglini olgan, to'g'ri yo'ldan qolmagan, egri yo'lga bormagan, o'g'irlikni bilmagan, umrida xiyonat ishni ko'ngliga ham olmagan, yangi chopon kiymagan, yirtiq qirq yamoq janda-jundadan boshqani topib kiymagan, ot tugil eshak minmagan, yayovlik bilan umrini o'tkarib kelayotgan odam edi.

Tog'ay yonboshlab, kambag'al jo'rulariga gapirib turib edi:

— Poshsho chaqirtib, hammaga xabar berib, yig'ib olibdi. «Ajdaharga borguday bir na'rasher bormisan?» — deb so'rabdi. Bizni kambag'al, deb

pisand qilib esiga olmabdi. Bizning jami kambag'al bari ham qopti, poshsho qilar ishini bilmabdi.

O'zga jo'ralari aytdi:

— Xabar berganda nima qilasisiz? Xalq hamma odamlar yig'ilgan yer. Sizning, bizning ustimizda to'nimiz bo'lmasa, minib ko'zga ko'rinadigan otimiz bo'lmasa. Bizni nima qiladi?

Tog'ay aytdi:

— Ajdaharga buyurgan bachchag'ar otni, to'nni o'zi beradi-da. Agar menga xabar berganda, bosh-oyoq sarpo, bir yaxshi ot, bir yaxshi yaroq berganda, ajdaharga borar edim, poshshoning bu xizmatini o'rin qilar edim. O'lgan bo'lsa, o'lgan xabarini berar edim, agar ajdahar tirik bo'lsa, g'ayrat qilib ajdaharning tanidan boshini olar edim. Agar bu ajdahar tirik bo'lsa, unga birov chiqib javob aytolmasa, u bachchag'ar zaharli narsa, tiklab shaharga bosib kelsa, tag'in qattiq kun sen bilan mening boshimga tushadi. Poshsholarga nima vahma! Uytib, buytib qutulib qoladi. Tag'i bir gap bor, poshshoning: «Agar shu ajdaharni kim o'ldirsa, qizimni beraman», degan gapi bor edi. Agar borib, to'qinib ajdaharni o'ldirsam, balki poshshoning qizini olib, poshshoga kuyov bo'lib qolsak ham ajabmas.

Shunda jo'ralari aytdi:

— Unday bo'lsa, katta odam bo'lib, bizlar bilan gaplashmay, hol-u ahvol so'rashmay ketasiz-da?

Tog'ay aytdi:

— Sening u xayoling xomdir. Poshsho, poshsholik davlatini, dunyoda ko'rgan rohatini, Oftobday farzandini bergan vaqtida ham, men sizlar bilan bir dam baland-past gapirishib o'tirganimga olmayman. Ajdaharni o'ldirib, poshshoning qizini olgan vaqtimda, barimizga choy qaynatib berib yuradi. Bulam o'z tirikligida biz bilan birga bo'ladi. Men poshshoning qizini oldim deb, Xisravshohning davlat xonasiga bormayman. Uning bilan jo'ra bo'lolmayman. Ularning ko'ngli hech mahal biz bilan bir joydan chiqmaydi. Ular bo'lak gap topmaganda ham: «Kambag'alda nima aql bor, aqli bo'lsa, o'zini-o'zi o'ngarib, boy bo'lib olar edi», — degan gapi sira qolmaydi. Bu

gaplar mening yuragimga sig'maydi. Unday odamlar bilan sira bizning sozimiz kelmaydi. U katta odamlar oshib-toshib, dunyoning kamchiligini ko'rmagan, og'ziga siqqancha gapirib o'tib ketayotgan odamlar. Hali biz kambag'alchilik, yo'qchilik bilan, kamchilik bilan kelayotgan odam. Agar shu ishlar bo'lgan vaqtda ham, bizning ko'kayimizdan kambag'al — kamchiligimiz ketmaydi. Hech kimga biz katta gapirmaymiz.

Jo'ralari: «Tog'ay aka, qani, katta bo'lganingizda ko'ramiz-da», — deb turib edi, poshshoning xabarchi mahramlari kelib: «Shularning gapi ado bo'lsin, undan keyin gapiramiz», — deb quloq solib turib edi.

Bo'lak odam bilan ishi bo'lmay kelib Tog'ayning bilagidan ushladi. Boyagi kambag'allar bildi, poshshoning mahrami ko'nglida aytdi:

— Xudo urdi. Tog'ay gunohkor bo'lib qoldi. Obbo bachag'ar, bular kelib quloq solib turgan ekan, shuncha gapni gapirib yubordik. Poshshoning qiziyam qursin. Hozir, bo'lmagan narsaga Tog'ay gunohkor bo'lib qoldi.

Tog'ay mahramlarga aytdi:

— Ha, mening bilagimdan ushladinglar, biz nima gunoh qildik?

Mahramlar aytdi:

— Hech gunoh qilganing yo'q. Sen axir ajdaharga boraman deyapsan-kul!

— Ajdaharga boraman deganga gunohkor bo'ldimmi, men?

Mahramlar aytdi:

— Biz shuncha shahardan, Xisrav shohning davlatidan «ajdarga boraman» degan kishini topmadik. Sening «ajdarga boraman» deganingni o'z qulog'imiz bilan eshitdik. Bu shahar ichi biz kelib seni ushlaganimiz — poshshoning xizmati (uchun). Ajdaharning haybat-siyosati, bu oson gap emas. Bunga har qanday kishi borolmas. Bu xizmatga yurak qilmoq oson emas. Biz ot ustida turib aytsak, qo'rqib qochib ketib, so'ngra tonib, bo'yniga olmay yurami deb kelib bilagingdan ushladik. Sen qo'rqma, boyagi gaplaringni poshshoga aytmasmiz.

Tog'ay aytdi: «Sizlarda bir gap bor: «Kambag'alning nima tutrug'i bor, qochadi» deb fahmlayapsizlar. «Mard so'zidan, yo'lbars izidan burilmaydi» degan gap bor. O'zim talab qildim. Hech kim mening bo'ynimga zavlim solgani yo'q. So'zidan qaytmaydigan kambag'al dan chiqadi», — deb o'mida turabardi.

Shunda ham mahramlar ishonmay, otiga minib, Tog'ayni o'rtaga olib, shohning saroyiga haydab jo'nadi.

Tog'ayni haydab borayotganini odamlar ko'rib: «Bu kambag'allarning bobosi gunohkor bo'пти-da, buni shunday qilib, o'rtaga olib, haydab ketayotipti», — deb turdi.

«Buni nimaga haydab ketayotgan ekan, — deb amaldorlar so'radi. — Bu nima gunoh qildi?»

Mahramlar aytdi: «Ajdaharga men boraman deb turibdi».

Bu xabar poshshoga yetdi. Poshsho: «Bunda olib kelsin!» — dedi. Mahramlar Tog'ayni olib, poytaxt ustiga chiqib ketdi. Poshshoga ro'para qildi. Poshsho tog'ayga qarab bu so'zni so'rab turibdi:

«Yuragingdan ketsin sening oh-u voy,
Mazgil-joying bo'lsin sening keng saroy,
Ajdaharga borarsanmi, er Tog'ay?
Hafa bo'lmay, bunda o'ynab-kulmoqqa,
Poshsho in'omiga ega bo'lmoqqa,
Chog'ladingmi sen o'zingni xizmatga,
Borib ajdaharni bilib kelmoqqa?
Menga ma'lum bo'ldi sen aytgan so'zing,
Xizmatga chog'lanib kelganday o'zing,
Nazarimda baland o'xshar himmating.
Qilib kelsang yana shunday xizmatim,
Senam bo'lgin qiyomatlik farzandim,
Senga mindirayin nazari otim,
Belingga boylayin keskir po'latim.
G'amli bo'lib bunda qobog'im uydim,
Qancha xaloyiqni boshima yig'dim.
G'ayrat qilgan bir azamat chiqmadi,
Sening bu so'zingdan men ham suyundim.
Mening davlatimda xizmat qilganlar,
Yaxshi so'ylab, mendan in'om olganlar,

Davlatimda bordir kuchli polvonlar!
Hech qaysidan bunday g'ayrat chiqmadi!
Ilgaridan g'ayratingni bilmagan,
Amaldorlar seni pisand qilmagan,
Xaloyiqdan shuncha odamlar keldi,
Bu xabarni ilgari siz bilmagan.
So'ngra o'zim anglab yuborganman xabarni,
Uyalmadim men ham qilgan ishimdan,
Yaxshi javob aytib, qilding safarni,
Avvaldan ko'nglimda shu so'zlar bordi,
Menga eshitkizdi shunday xabarni.
Ajdaharga borarsanmi, er Tog'ay?
Qani, Tog'ay, erligingni bildirgin,
Dushmanlarni g'ayrat qilib o'ldirgin,
Xursand qilib menday shohni kuldirgin,
Nima bo'lsa erligingni bildirgin!»
Bu so'zlarni Xisrav shohi aytadi,
Aytgan so'zni qulog'iga tutadi;
Poshshodan eshitib Tog'ay bu so'zni,
Bilganini Tog'ay so'ylab yotadi:
«Buyurgin, poshshoyim, borib kelayin,
Maydon bo'lsa, yuz qaytarmay turayin.
Mening qilgan xizmatlarimni bilsang,
O'lim xizmat bo'lsa, meni buyursang.
Kambag'al deb meni nazarga olmay,
Qilib kelsam mening ko'nglim qabarmay,
Turibman bormoqqa ko'nglimda o'ylab,
Ajdahar qasdiga belimni boylab,
Shohim, bersang ot-asbobingni shaylab,
Yurmayman vahm qilib yo'llarda o'ylab.
Yo'lni tortib ajdaharga borarman,

Jonim qiynab ajdaharga berarman!»
Bunday so'zni Xisrav poshsho eshitdi,
Xisrav shohning juda vaqti xush bo'пти.
Obod qilsam, deydi bu mazgil-joydi,
Er Tog'ayning shuytib vaqtin xushlaydi.
Poshsho turib o'z qo'liman shul zamon,
Tog'ayga kiygizdi yaxshi sarpoydi.
Tog'ay kelib yangi ko'rdi beklikni.
Shiqirlatib kiydi-ku ko'k etikni.
Tog'ay shunday yon-yog'ig'a qaraydi,
Bul boshiga sholdan salla o'raydi.
Tog'ayning ishida bo'lmaydi xato,
Boyladi beliga kurmali po'ta,
Shunday qib kiyintib bul vallamatni,
Poshsho minadigan norko'kday otni,
Mahramlar abzallab bunga opkeldi,
Boyladi beliga shamshir po'lotni,
Ajdaharga Tog'ay qildi g'azotni,
Er Tog'ayni endi bul holda ko'rib;
Tog'ayning ishini kulgu qip yotdi,
«Poshshomizam ajab ahmoq bo'libdi.
Kambag'alga ot-u sarpo beribdi.
Poshshoning aqlini xudoy oldimi?
Ajdaharga borib bir gap bo'ldimi?
Bu shaharda burilib nima qiladi,
Tog'ay bovang bir narsasi qoldimi?
Kim, qaysi yurtlarga bulam ketadi,
O'tishiga ot-anjomni sotadi,
Bo'lak yerdan topib yana bir mazgil,
Kambag'allar bilan xo'p ob yotadi,
Poshshomizning oti qo'ldan ketadi».

Saroydagi odamlar Tog'ayning bu ahvolda otlamayotganini ko'rib, shivir-shivir gap qilib yotdi: «Xisrav shoh aqlini yitirib, bulam savdoyi bo'lgan ekan. Bu bir kun ko'rolmay yurgan kambag'al narsa. Buning ajdaharda nima ishi bor? Shuncha sarpo, nazarkarda otni mindiribdi, bunga ishonib kambag'al-larning bobosi bo'lsa bo'bdi-da. Shunday shaharda yo bir mazgil-joyi yo'q. Bir tom solib olmoq katta gap. Aqalli choydosh qaynatadigan bitta o'choq tuzatib olgan odam emas. Kambag'al odamning ham shunday rizqilisi bo'ladi ekan. Osmondan tashlaganday, o'zidan-o'zi dunyoga ega bo'lib qoladi ekan. Qaysi yurtlarga borib, bul anjomlarni pullab olsa, bor umri yotib yesa ham sob bo'lmaydi», — dedi bir nechasi.

Bularning gapirib yotganidan Tog'ayning xabari yo'q.

Bir xil odamlar: «Hozir unga kiydirgan, mindirgan buyumlarni ilgari ko'rmoq tugul, guzaridan o'tgan emas. Sotganda, bular narxini ne biladi? Bir tuzuk odam sal pul bilan qo'lidan aldab oladi», — deb o'zavanda gapirib qoldi.

Tog'ay (o'z) mashg'ulotida borayapti. Shunda o'zining kambag'al xonasida (jo'ralari): «Bizning boshchimiz o'zini mardlikka olib ketdi. Qanday bo'lib kelar ekan?», qarasa, Tog'ay juda siyosatli, otli, to'nli, anjomli bo'lib kelayapti.

Shunda, juda o'zini yaqin olib, qayishib yurgan jo'ralaridan bir nechasi Tog'ayning oldiga chiqib, gapirib turibdi:

Poshshoning otini bejo minibsiz,
Jondan kechib, ajab ishni qilibsiz!
Ajdahr haybati ko'pdir eshitdim,
Men sizga qayishib, o'zimdan ketdim!
Aqlim qochib, dangi-dungim unutdim,
Sizdan bordi bormas, degan umidim.
Ostingizga siz minibsiz yaxshi ot,
Poshshoga qilmoqchi bo'libsiz xizmat,
Yig'ilib yotgan bunda kambag'allarga.
Boshchimizsan, o'lsang bo'lar qiyomat!
Yo'ldan urmay, men haqqa yig'layin,
Qo'l ochib haqingga duo qilayin,

Omon borib, omon kelgin ajdardan,
Yo'lga qarab intizor bo'p turayin!
Ajdahar qilmasin senga qiyomat,
O'z ko'nglingman talab aylab borasan,
Kelgin, Tog'ay boshchim, sog'u salomat!
Bu so'zni eshitib, Tog'ay jo'ralariga qarab aytdi:
Men boraman, bilgin xizmatim katta,
Duo qilib bunda turing albatta!
Nasib bo'lsa ajdaharga boraman,
O'lgan bo'lsa, o'ldi xabar beraman,
Ul ajdahar tirik bo'lsa u tog'da,
Yuz qaytarmay borib, urush qilaman.
Agar yulsam ajdaharning boshini,
Poshsho ko'rsa er Tog'ayning ishini,
Mening xizmatimni u ham biladi,
Qanday bo'lsa, bir qo'rg'onni beradi.
Quloq solgin Tog'ay aytgan so'zlarga:
Bir qo'rg'on tanho tegsa bizlarga,
Bir nechangni mirshab qilib olaman,
Bir nechangni men amaldor qilaman,
Hamмамizning o'rtamizda joy bo'lsin,
Qo'rg'onning nomini shunday qo'yaman:
«Kambag'al qo'rg'oni» unga nom qo'yib,
Jami kambag'allar unda yig'ilib,
Poshshoning in'omi o'rtada ko'rib,
Omon-eson qaytib kelsam bu yerga,
Bir qo'rg'on so'rasak ittifoq bo'lib,
Bir odamday manzil-joyga yig'ilib,
Davlat-u molimiz o'rtada turib,
Omon-eson borib ajdardan kelsak,
Ishimizga do'st odamlar suyunib,

Dushman ketsin o'tday bo'lib kuyunib!
Bu so'zdeshtib duo qilib qoladi,
Xo'shlashib ajdarga Tog'ay jo'nadi,
Chorsi-registonda otni o'ynatib,
Shul zamonda Tog'ay ketib boradi.
Kambag'al boshchisi hamma biladi,
Er Tog'ayning yurishiga kuladi,
Mast bo'lib er Tog'ay shunda jo'nadi.
O'z sha'niga so'zlar aytib boradi:
«Odam bo'lib bul Bujulning shahriga,
Minib oldim poshshoning tulporiga».
Ko'ring Tog'ay shamshir bog'lab beliga,
Ajdaharga talab qilib boradi.
Quloq soling er Tog'ayning so'ziga,
O'z ko'nglida: «Ajdaharga yo'liqib,
Uchrab qaytay bul poshshoning qiziga.
Tirik bo'lsa bilmaganin bildirib,
Shamshir urib ajdaharni o'ldirib.
Omon-eson turgan bo'lsa boylovli,
Olib qaytsam shohning qizin mindirib,
Harna desam aytganima ko'ndirib».
Bu so'zdaytib Tog'ay ketib boradi,
Borayotib shu zamonda er Tog'ay,
Yo'l ayritqa Tog'ay duchor bo'ladi.

Tog'ay aytdi:

— Boya elda so'ramabman. Bu yo'lning bu yerdan ayrilib ketishi esimga kelmapti. Aniqlab yurmasam bir yo'lga tushib ketaversam, shu yo'l boradimi, bormaydimi, bilmasam. Besh kun, to'rt kun orada o'tsa, men tayinini bilmay yurib ketsam, poshsho «kelmadi» deb yo'lga qarab tursa, bu xabarni eshitmasa; badavlat kishini har narsaga gap qila bermaydi, kambag'alning toshi yengil bo'ladi, har qanday betayin gap ustiga ag'anab, malomat gapning egasi bo'la

beradi. Men hayallab ketsam, poshsho sap katta odamlar bilan o'tirib: «Ajdaharga ketgan odamdan hech xabar bo'lmadi», — deb og'zidan chiqsa, poshshoga gapirgich odam ko'p chiqib qoladi. «Hali ham shuni keladi deb yuribsizmi? Uning bu yerda bog'u chorbog'i bormi kelib? Shuncha qimmatbaho aslahani qo'liga berib yubordingiz, u o'lmay qaytib kelarmi?», deb poshshoni ham uyaltiradi.

Shu vaqtda ko'ziga bir qora ko'rina berdi. Otining jilovini tortib turdi. U odam yaqinlab kelgandan keyin, Tog'ay bul odamga qarab ajdahar tarafga boradigan yo'lni so'rab turgan ekan:

Gap eshitgin menday mardning tilidan,
Chiqdim botir bo'lib Bujul elidan.
Men adashib munda turdim yo'limdan,
Achchig'lansam har ish kelar qo'limdan!
Poshsho berdi, surib o'ynaydi tulpor,
Bujulning zahrasin olgan ajdahar.
Ajdaharga talab qilib boraman,
Qay tarafda bo'lar? Mag'an yo'l boshqar!
Shodmon qilsam Bujul mamlakatini,
Qilib kelay Xisrav shoh xizmatini,
Xizmat uchun minib chiqdim otini.
Tushmasin boshima bir turli savdo,
Ajdahar mazgili qaysi bir tovda?
Ajdaharni so'rab ketib boraman,
Mingan otim asl tulpor bedovdi(r).

Bul so'zni eshitib, u odam Tog'ayga qarab bir so'z aytdi:

Sag'al ish deb bu xizmatni o'ylabsan,
Mard odam qilichin belga boylabsan,
Bekor ajdaharga talab aylabsan!
Bilasanmi, ulam yotgan ajdahar,
Ajdahar demoqda qancha zo'r gap bor!
O'zing o'yla, sening esing bormidi?

Ishqirib tortganda ketadi tog'lar,
Chivinja yo'q minib yurgan bedovlar.
O'zdan-o'zi borib o'lmoq ne darkor!
Ajdahar deb sira og'zingga olma,
Qaytaber, ajali yetgan bachchag'ar!
Naryoqqa burmagin otning boshini,
Poshsholar ham qilolmaydi ishini.
Ajdahar deb so'rab nima qilasan?
Jinni bo'lib sen chiqdingmi elingdan?
Ot-u qamchi ne ish kelar qo'lingdan!
Xisrav shohda qancha to'p, to'pxona bor,
Bilgin shunday poshsholikda anjomlar,
Necha yillar ajdaharman urushib,
Bo'lolmadi ul badbaxtman barobar.
Yetgan joyin yakson qilib ketadi,
Bir shaharni bir oqshomda yutadi,
Qanday odam yo'liqib javob aytadi.
U yo'lga yurmakni hisobi bitgan,
Ajdaharga yo'liqib kuni bitgan.
Tag'i bir qir oshsang yetib borasan,
Senam o'tib ajdahar chegarasiga,
O'z oyog'ing bilan borib o'lasan!

Bu so'zni eshitib, Tog'ay bildi, ajdahar shu yo'lda ekan. Tog'ay aytdi:
«Bu tentak bachchag'ar so'rasam, qayta menga yo'q yerdagi gaplarni aytadi.
Hech nimani ko'rib boshidan o'tkazmagan odam ekan bu».

Tog'ay tog' betga qaragan yo'lga otining boshini burdi: «Bor, o'z yo'lingdan
qolma, sen meni yo'ldan urma!» — deb jo'nay berdi.

Shunda u odam ham o'zavonda gapirib, ketib borayotibdi qiyshayib: «Bu
odam qanday odam bo'lsa? Poshshoning amaldorimi? Ajdahar shahardan
shunday bitta-yarimtani avrab oladimish deb, ham odamlar gapirgich edi.
Mabodo otini bilib duo bilan shunday avrab chaqirgan odammi? U o'ldi!

Bu ajdahar avragan kishini harchand qayt degan bilan, ko'ziga qizday ko'rinib qaytmaydi emish, degan. Bu ham ajdaharning avrashiga yo'liqqan odam ekan» — deb ketdi.

Tog'ay yo'lini olib borayotib edi, qirning boshiga chiqib qaradi. Tog'dan pastga enkaygan yerda, Charxin ko'lning yoqasida bir narsa misli bo'ktarilgan tog'ning bir darasiday bo'lib yaltirab yotibdi. Tog'ay aytdi: «Endi tavakkalni haqqa qilayin. Shu yotgan ajdahar ekan. Otni tezlab, bir-ikki urayin. Ajdahar beg'am yotgan ekan, xabar topguncha shamolday g'uvullab ustiga borib qolayin. Borgandan boshiga shamshirni solayin; ajalim yetsa o'layin, buning bilan bir yoqli bo'layin?!»

Jabr qildi hayvonzotning joniga,
Qirq bir qamchi urdi otning soniga,
Ot olib jo'nadi shunday falakka.
Qattiq ketdi, Tog'ay ko'nglin xushladi,
Shobiri bilinmay yashinday og'ib,
Bir qo'liman egar qoshidan ushladi.
Hayron qoldi bu tulporning ishiga,
Borib qoldi ajdaharning qoshiga,
Haybatidan aqli shoshib Tog'ayning,
Qilich urdi ajdaharning boshiga.
Bu bilan ajdahar harba qilmadi,
Ajdahardan hech siyosat bo'lmadi,
Ancha o'tib otning boshini tortdi,
Ajdahar qoshiga er Tog'ay yetdi,
Endi kelib bunda ajdarni ko'rsa,
Zo'r ajdahar armon bilan o'libdi.
Sanab ko'rdi: qirq bir bo'lak bo'libdi.
Ajdahar qolibdi jazosin topib.
Qilichin bilmasdan o'likka chopib,
Ko'ring endi Tog'ay vallamatini,
Tushib mindi shu zamonda otini.

Quloq soling mard Tog'ayning so'ziga,
Borib qoldi bu poshshoning qiziga.

Tog'ay ko'nglida: «Ajdahar ilgari o'lgan ekan. Bu boylovli turib ajdaharning o'lik-tirikligini ne biladi? Men bunga bir yolg'on aytayin. Qani, nima der ekan. Agar ma'qul desa, qo'lini yechib, mindirib ketayin, nima degan so'zini eshitayin, nima desa shunday deb poshshoga xabarini aytayin», — dedi. Bu shumlikni o'ylab ot chopib, Oftoboyning qoshiga borib, Tog'ay yolg'ondan bir so'z gapirib turibdi ekan:

Men ekanman Bujul elda zo'rabor,
Xon otangga bo'lib keldim xizmatkor.
Ajdaharning bilmaganin bildirdim,
Armon bilan ajdaharni o'ldirdim.
Endi obod qilay Bujul elingni,
Otdan tushib men yechayin qo'lingni,
Mening bilan birga Bujulga borib,
Ko'rgin ota-enang, qolgan elingni.
Ajdahar deb ko'p tortgansan zulmni,
Hech kim so'ragan yo'q sening holingni,
Mening qilgan xizmatimni bil endi,
Qo'ling yechay, kelib mingash, bo'l endi!
Mening bilan sen ham bir yur endi!
Necha vaqtlar qolding xo'rlikni tortib,
Bu yerda kun ko'rding ko'p g'amga botib,
Sen yolg'iz turgansan hasratlar tortib.
Mening bilan, shohning qizi, yur endi.

Bu so'zni eshitib, Oftoboy Tog'ayga qarab ikki og'iz so'z aytib turgan ekan:

«Osha eldan biror lochin kelgandi,
Lochin keb ajdarga changal solgandi,
Barakallo, kelgan bul g'ayratingga,
Lochinning changgida ajdar o'lgandi.

Bu yolg'on, o'zingga ma'lum turgandi(r),
Xiyolman so'ylading menga yolg'ondi(r).
Asti nomardlarning ishin qilmagin,
Xabar olding, juda yaxshi bo'lgandi.
Mard bo'lsang sen ko'p aylanib turmagin.
Hayallamay bundan qilgin safarni,
Tirik deb otamga bergin xabarni,
Qistab borgin minib kelgan tulporni,
Yolg'on so'zning nima foydasi bordi(r)?
U poshsho otamga xabar berasan,
Tirikligim elga ma'lum qilasan,
Qancha in'om suyunchini olasan,
Bir yurtning egasi bo'lib qolasan!»
Oftoboy bu so'zni Tog'ayga aytdi,
Ma'qul tushib bundan er Tog'ay qaytdi,
Ajdar ilgaridan o'lganin bilgan,
Shunday qilib endi Tog'ay yo'l tortdi.
Bujulning qorasin ko'rib er Tog'ay,
Shaharga u zamon yaqinlab yetdi.
Qarasa, ajdardan Tog'ay kelibdi;
«Bormay yo'ldan qaytib kelgan bu Tog'ay,
Haddi bormi ajdaharga bormoqqa,
Ajdaharning qorasini ko'rmoqqa,
Tog'ayning ishimi shunday qilmoqqa,
Xizmat qip poshshodan in'om olmoqqa,
Kambag'alning ishi emas bu xizmat,
Bir yerlarda ish ko'rsatib kelmoqqa».
Shahar ichida xo'p gapirib yotadi,
Poshsho saroyiga Tog'ay yetadi.
Chiqib xizmatkorlar otini ushlab,
Poytaxtga ketdi Tog'ayni boshlab.

Shunda Tog'ay borib, poytaxt ustida poshshoga ro'para bo'ldi. Bir-birini ko'rib, hol-ahvolini so'rashib, omon-eson kelganini bilib, jo'natganda «Qiyomatlik farzandim bo'l», degan gapi esiga tushib, Tog'ayga aytdi:

— Qani, Tog'ay ko'rgan-bilganingdan gapir!

Shunda Tog'ay poshshoga qarab bir so'z aytib turgan ekan:

Men otlanib qildim bul kuni xizmat,
Ort-sirtimdan ko'p gap bo'ldi malomat;
O'limga bel boylab menday vallamat.
Ot chopib cho'llardi baland-pastiga,
G'ayrat bilan bordim ajdar qasdiga,
Ot choptirib borib qoldim qoshiga,
Urdim xanjar bilan dushman boshiga.
Avval qilich urib, so'ngra bildim,
Ajdahar o'lganin men so'ngra ko'rdim,
Tirik emas, o'likka duchor bo'ldim:
Shohim, borib Oftob qizingni ko'rdim.
Omon-eson unda boylovli qolib,
Kanizlari bilan bu enasini,
So'raydi boylovli esiga olib.
Yolg'iz qoldi shunday cho'lda mushtipar,
Boshqa so'ylab o'tirmoqlik ne darkor?
Borib yechib olib kelsin kanizlar.
Necha so'zni sizga bu Tog'ay aytdi,
Xolisona qilib keldim xizmatdi.

Tog'ay «Xolisanlillo, xizmat qildim» degandan keyin poshsho: «Xolisanlillo qilgan xizmating uchun maqsadingni tila mendan», — dedi.

Shunda Tog'ay aytdi:

— Men sizdan nima tilayman? Bir nima olaman deb xizmat qilgan bo'lsa, tilasam tuzuk edi. Menga tila demang. Menga bir nima bersangiz ham xolisanlilloh berasiz.

Poshsho aytdi:

– Aqlingning ko‘pligidan bu kambag‘allarni bovasi bo‘lib yurgan ekansan. Shunda Tog‘ayni o‘z ixtiyoriga qo‘ymay, xizmatining orqasidan bir qo‘rg‘onga qo‘rg‘onbegi qildi.

Shunda Tog‘ay qo‘rg‘onbegi bo‘lib, poshsho bilan xo‘shlashib, qo‘rg‘onbegi amali bilan poytaxtdan chiqib, kambag‘allarining qoshiga qarab jo‘nab ketdi. Poshsho Tog‘aydan eshitgan xabarni quvonib xotiniga bildirib, Oftoboyning kanizlarini olib, ikki aravaga kanizlar bilan Oftoboyning enasini solib, qancha mahram, xizmatkorlar qo‘shib Oftoboyga jo‘natdi. Shu kuni bular arava bilan qizning qoshiga jo‘nay berdi. Enasi yo‘lda bu so‘zlarni aytib borayotgan yori:

«Ko‘tarsam boshimdan qayg‘u alamni,
Uyimning bozori yolg‘iz bolamni,
Ko‘rguncha yo‘q, yo‘lda mening toqatim,
Qaytadan dunyoga kelgan sanamni,
Necha kun boylovli yolg‘iz qolibdi,
Oftob munda, menam shohlik shavkatda,
Makonim, mazgilim zindon bo‘libdi.
Necha so‘zni bular bu yo‘lda aytdi,
Oftoboy boylangan o‘tovga yetdi.
Aravadan ko‘rib tashlab o‘zini,
«Bolam», deb quchoqlab yolg‘iz qizini,
Kanizlari kelib yechdi qo‘lini,
Yig‘lashib, topishib jon-u dilini,
So‘rab bir-birining bunda holini.
Oftoboyni enasi kiyintiradi.
Kanizlarman olib endi shul zamon,
Bujulning shahriga qaytgandi omon.
Omon-eson qizi tegib qo‘liga,
Kelib qoldi o‘rda-mazgillariga.
Ajdahar zulmidan gangigan boshi,
Kelib ko‘rdi otasi, qavm-u qardoshi.

Shu kecha hammasi ko'rishib, so'rashib yotdi. Erta bilan tong otdi. Poshsholik shunday xabar qo'ydi: «Odamlar ko'kini tashlab, vaqtini xushlab, o'z ishida bo'lsin, bozorni yurgizsin, savdo-sotiqni boshlasin!» Bu xabarni eshitib, bozorga xumori bo'lib qolgan xalq tong otmay yig'ilib, bozor ochilib, shahri Bujulga odam to'lib ketdi.

Shunda kun chiqish haddiga yetdi.

Oftoboy Rustamni ko'nglidan chiqargani yo'q edi. «Seni o'zim topib olarman», degan gapi esida edi. Shu gapi bilan: «Endi Rustamni bozorda axtarayin, albatta, shu bozorda yurgandir, toparman», — deb kun chiqqandan so'ng kanizlarini iyartib bozorni sayil qilib chiqib ketdi. Bozorda ko'z tutib, Rustamni qarab yurur, deydi:

Oshiq fahmi oqshom kecha,
Holin bilmaydi bir necha,
Rastalarda kosibbachcha.
Har rastani oralaydi,
Kanizi bilan oyimcha.
Oftoboyning kamoli,
Oydan g'olibdir jamoli,
Bul boshida pирpiraydi,
O'ragan lovdon ro'moli.
Har tarafga ko'p qaraydi,
Xoni Rustamni ko'rmaydi.
Qarab yurur ko'nglin xushlab,
Necha kanizlar po'sh-po'shlab.
Bir nechasin vaqtin xushlab,
O'ynab kular zulfak tashlab.
Husni to'lgan oyday bo'lib,
Qosh egilgan yoyday bo'lib.
Oftoboyim kanizlarman,
Ko'p chalqigan biyday bo'lib.
Tishi gavhar, durday bo'lib,

Bujul shahrin yurib qarar,
Qizlariman birday bo'lib.
Chorsu-registonga bordi.
Yurib shaharni axtardi,
Namozgargachayin izlab,
Rustamdan topmay xabardi.
Oyim ko'ngli xafa bo'ldi;
«Bilmam, ko'zim tushmay qoldi,
Qarab daragin bilmadim,
Ko'rib holini so'rmadim,
Bu bozorda men yo'liqib,
Gaplashib, savol qilmadim»
Bu so'zdaytib uyga yetdi,
Oqshom yotdi, boz tong otdi,
Erta-mertan xabar qildi.
Erkak qolmayin chaqirtidi,
Barcha xaloyiq yig'ilib,
Qator bo'b ko'rikdan o'tdi.
Qarab turibdi gajakdor,
Bunda yo'qdir Rustam shunqor.
Hammayam ko'rikdan o'tib,
Sop bo'ldi kelgan odamlar.

Endi poshsholik so'radi: — Yana hech yerda odam qoldimi?

Bir kishi xabar berdi: «Oqsaroyda bir odam bor. «Nima ishda yurgan odamsan?», deb so'rasak, «Men asli jallobman», — deb aytadi. Jalloblik qilib, yilqi yetaklab yuradigan odamga o'xshamaydi», — dedi.

Poshsholik «Haydab kelinglar!», — deb buyurdi. Bir xizmatkor borib haydab keldi. Oftoboy hali ham olmasini ushlab qarab turib edi. Rustam ko'rikdan o'ta berdi. Oftoboy olma bilan urdi. Poshsholik Rustamni qaytarib oldi. Ajdaharni o'ldirgan shu yigit ekanini hamma bilib qoldi. Rustamning haqiga duo qilib, hammaning dimog'i chog' bo'ldi.

Shunda Rustamxonning tarziga qarab, Xisrav shoh, bir so‘z so‘rab turgan ekan, deydi:

«Qaysi eldan, qaysi yurtдан bo‘lasan?
Qaysi elda, qaysi shohning ulisan?
Xabar bergin, qaysi yurtдан kelasan?
Poshsholik davlatim senga lozimdi(r),
Qabul qilgin mening Oftob qizimdi.
G‘ayratingdan nobud bo‘pti ajdahar,
Vaqti xush bo‘b qoldi qancha odamlar,
Shohlik shavkat endi bu senga darkor.
Ko‘rsatib sen ma‘lum qilding ishingni.
Nima desang qilay ko‘ngil xushingni!»
Necha so‘zni bek Rustamga aytadi,
Shohning so‘zin Rustam qabul tutadi.
Nima desa Rustambekni ko‘ndirib,
Shul zamonda xaloyiqni yig‘dirib,
Shunday qip Rustamga berdi qizini,
Necha kunlar el-u xalqqa to‘y berib,
Poshsho qildi o‘z joyiga mindirib,
Poshsholikka bazo‘r uni ko‘ndirib.

Rustam Oftoboyini olib, poshsho bo‘lib, «Jabr-u zulm qilmay elingni so‘raysan», — deb poshsho in‘om qilgan qo‘rg‘onning ixtiyorini Tog‘ayga berib, o‘zi Bujul eliga ma‘lum bo‘lib qoldi.

Tog‘ay xizmatining orqasidan bir qo‘rg‘onning egasi bo‘lib, Rustambekdan shu qo‘rg‘onning ixtiyorini o‘ziga olib, yendi sob kambag‘allarning barini shu qo‘rg‘onga yig‘ib, o‘ziga in‘om qilingan yerni so‘rab, kambag‘al jo‘ralarining birovini mirshab, birovini mahram, nechovini shunday amaldor qilib, qo‘rg‘onning amaldorlarining barini shu kambag‘allardan tayin qilib so‘ray berdi. Shunda poshshoning bir necha amaldorlari Tog‘ayning ishiga kulib aytdi:

— Tog‘ay, sen amaldorlarni sipoyilardan, badavlatlardan, ishbilarmonlardan qilsang tuzuk edi. Sen qimorboz demading, bangi-hangi demading, o‘z aylasini

topolmaganning barini amaldor qilib yubora berding. Qayoqdagi qizil oyoq yomon odam katta bo'lib ketdi. Bular kattalikni ne biladi?

Bu so'zni eshitib, Tog'ay aytdi: «Bizga kattalik qilib, fuqaroning yuragini yoradigan odam darkor emas! Poshsholikning haqi bo'lsa, shular ham fuqarodan hisoblab olmoqni biladi. Bular kambag'al odamlar bo'lgan bilan hisobini sizlardan yaxshi biladi! Do'q urib bironing yuragini yormaydi. «Hammasi o'z odamimiz, yoru-jo'ramiz», — deb bir-birining gapiga tushuna qoladi. Shunday qilib, men amaldorlarni o'zimning jo'ralarimdan qildim. Ilgari ham bularning bobosi edim, endiyam shularning bobosiman-da. Sizlar qo'rg'onbegi desanglar dey beringlar! Biz haliyam shul bovaligimizni, o'rgangan hunarimizni, qilib kelayotgan kasbimizni qilamiz. Poshsholikning haqi bo'lsa, berarmiz», — dedi. Tog'ay shu tartibda ish tutib yotdi.

Rustam Bujulda uch kun poshsho bo'lib turdi. Oqshom Oftoboy qoshida yotib oh tortdi. Oftoboy so'radi:

— Nimaga oh tortdingiz? Mendanam o'zga biror joyda olib qo'ygan yoringiz bormi?

Rustam aytdi:

— Olgan boshqa yorim yo'q. O'ylab tursam, bu shaharga men tuz bilan sovunga kelgan ekanman. Kelib poshsho bo'lib qolibman. Bahra tog'da, Oqrabotda enam bilan ikki tozim qolib edi. Kunin borib, kunin kelaman deb edim. Yangi uyqum qochib, hisoblasam, kelganimga uch yarim oy bo'ldi. Bilmadim, enamning holi ne kechdi?

Oftoboy aytdi:

— Unday bo'lsa, ertaga otlanib, borib enangizni, tozilaringizni olib kela qoling.

«Xayr», Rustam yotdi. Erta-mertan tong otdi. Egarlab mindi bedov otdi. Ko'nglida aytdi: «Men o'z ixtiyorim bilan poshsho bo'lganim yo'q. «Poshsho bo'laman», — deb bu elga kelganim yo'q. Bir poshsho otam bo'lsa, uning zulmidan tentirab chiqib ketgan odamman. Poshsho bor yerda tuhmat bor. Tag'i kelib shunday tuhmatga ega bo'lamanmi? Poshsholigingni tag'i o'zing qila berasan», — deb bu gaplarni Oftoboy aytmay, xo'shlashib, uch kunlik

poshsholikni egasiga topshirib, jo'nab ketdi. Oqtoshda Huroyimga dushmanlik qilgan ikki kundosh har kuni g'orga, kampirning qoshiga kelar edi.

— «Huroyimni, Rustamni o'ldirdim», — der eding. O'ldirganing yolg'on ekan. Biz emish-emish eshitamiz. Qaysi bir mamlakatlarda yurt og'ishib yurgan ekan. Bir kunlari keladi, boshimizga balo bo'ladi. O'tirikning chini chiqib qoladi. Yo shularni aniqlab o'ldirib ber, bo'lmasa, bizning pulimizni qaytarib ber, — deb janjal qilar edi.

Kampir tinchimagandan keyin qirq bir no'xat tashlab, fol ochib ko'rdi. Folida shunday chiqdi: Rustamxon Bujul shahrida, Huroyim Bahra tog'ida, Oqrabotda.

Kampir yog'ochdan ot, qog'ozdan qanot, po'lotdan murvat qilib, qulog'ini burab, osmonga uchdi. Bahra tog'iga yetishdi. Chap qulog'ini buradi, quyilib yerga tushdi. Otini bir arnaga qo'yib, Oqrabotning darvozasini ochib kirib keldi. Huroyim tozilarini ikki yonboshiga olib yo'lga tikilib o'tirib edi.

Huroyim o'z yurtida ko'rgan kampir bilan ko'rishib-so'rashib qoldi.

— Bolam, taqdiri ilohiy. Sizlar shunday eldan judo bo'ldinglar. Bunday xatarli yerlarda o'tiribsan. Rustaming qani?

Huroyim aytdi:

— Rustam tuz bilan sovunga ketib edi. Kunin borib, kunin kelaman deb edi. Uch yarim oy, hali daragi yo'q. Bilmadim, bolamning holi nima kechdi?

Shunda kampir: «Men keta qolsam, bobongning odatini o'zing bilasan», — dedi.

Huroyim yolg'iz o'tirib zerikkan. Ayrilgisi kelmay, kampirdan hadik olmay: «Rustamim ham kelib qolar, ko'rib ketarsiz», — dedi.

Kampir shumlikni boshlab, Huroyimga juda mehribon bo'lib, ergashtirib, devlarning joylarini, tagizamin yerlarini ko'rsatmoqchi bo'lib, iyartib borib, tagizamiga tushirdi. Huroyimning bo'yniga g'o'l, oyog'iga kunda solib, ustidagi kiyimlarini yechib olib, o'zining kiyimlarini Huroyimga kiygizib, qaytishda qirq tomni ustidan qulflab chiqdi. Kampir bir duo o'qidi, jasad Rustamning enasi — Huroyimning o'ziday bo'ldi-da turdi. Ikki zanjir bilan, ikki tozini ikki yoqqa boylab qo'ydi. Rustamning yo'lga qarab o'tira berdi.

Shu vaqtda Rustam tog'ni oshib, yaqinlab tushib kela berdi. Enasini ko'rdi. Ikki tozini ikki yoqqa boylab, o'zi tikilib o'tiribdi.

Rustam aytdi: «Enam bechora, omon-eson bor ekan. Mening ketishim yomon bo'ldi. Mening yo'limga qarab o'tirgan ekan», — deb yaqinlab keldi. Rustam ayyor mastonni tanimaydi, enam deydi. Shunda enasi suratida bo'lib, bu ayyor bir so'z aytib turgan ekan:

Qarg'ayin desam, sen yolg'iz,
Qarg'amasam — yalmog'iz.
Ketaber, juvonmarg, yuzing ko'rmayman,
Bergan oq sutimga rozi bo'lmayman,
Enang bo'lib, etagingga yurmayman!
Jafo tig'i bu jonimdan o'tibdi.
Ayriliq xanjari bag'rim yirtibdi,
Ketganingga uch yarim oy o'tibdi.
Bolam deb gapingga mag'rur bo'lmayman.
Qozining oldida shabgir, noyibi,
Yigitga pand berar otning mayibi.
Kecha keldi Oqrabotning sohibi,
Ketabergin, men yuzingni ko'rmayman!
Yolg'iz tashlab menga solding o'tingni,
Ko'kka sog'dim, bilsang, bul oq sutimni,
Bolam deb men sira yuzing ko'rmayman,
Endaynalma, bu yerlardan ket endi.
Enam deb qoshima mening kelmagin,
Bolam bo'lib mehribonlik qilmagin!
Asli u darbadar bo'lmoq odating,
Yolg'iz qolib, qolmadi-ku toqatim,
Darkori yo'q, sening bunday rabotning!

Bu so'zni aytib, kampir teskari qarab turdi. Shunday ham bo'lsa Rustam: «Mening ketishim yomon bo'ldi, enam ko'ngliga og'ir oldi. Nima bo'lsa, ko'nglidan chiqarayin», — deb bir so'z aytib turibdi:

Xudoyim saqlag'ay bandani omon,
Qaytayin, enajon, bo'ldim sargardon.
Bugun xafa bo'lsang, erta kulasan.
Har gunohim bo'lsa o'ting, mehribon!
Quloq solgin menday uling tiliga,
Bilmay ketdim men ham uzoq yo'liga,
Aylanib ko'p qoldim Bujul eliga.
Unday yurtida ajdaharni o'ldirdim,
Xisrav shohning borib qizini oldim.
Uch kun poshsho bo'lib Bujulda turdim.
Har gunohim bo'lsa o'tgin, enajon.
Bu yurishga o'zim pushaymon qildim.
Sening qolishingga ko'p xafa bo'lib,
Shu bugun axtarib ko'rgani keldim.
O'tar dunyo, o'tarini o'ylading,
Qiyomat deb shirin joning qiynading.
Kecha kelsa Oqrabotning egasi,
Tozilarni ne sababdan boylading?
Ikki tozim edi, ena, vafodor,
Dushman kelsa bo'lar edi barobar.
Nega, ena, bu tozilar boylandi?
Tozini boylasang bag'rim ezilar!
Nima qilsang o'zingdadir ixtiyor,
Ko'p qarq'ama, rozi bo'lg'in, mushtipar!
Mening bilan yana birga bo'larsan,
G'am-u kulfat ketib, ena, boshingdan,
Ko'rmaganday bo'lib bunda yurarsan!

Bu so'zni «enasi» eshitib, yana bir so'z aytib turgan ekan:
Yolg'izlikda mening bag'rim ezildi,
Ko'zda yoshim kecha-kunduz tizildi,
Tozi dema aslo, ko'nglim buzildi.

Xazon bo'lmay bog'da gullar so'lmasa,
Ollo sening aql-u hushing olmasa.
Bu yerlarda yerga ovqat bo'lmasa!
Kam-kam tozilarning fe'li ozdi-ku,
Tozi dema, mening ko'nglim buzildi,
Pok bo'lmasa yeb qo'yayozdi-ku.
Kecha-kunduz yaxshi so'ylab o'yladim,
Aldab-suldab tozilarni boyladim.
Tozi desang ko'zdan yoshim tizilar.
Jon bolam, go'shtingni tortsin tozilar,
Ketaber, juvonmarg, yuzing ko'rmayin,
Endi senga burungiday bo'lmayin!

deb kampir burilib ketaberdi.

Rustam aytdi: «E, enamning qattiq achchig'i kelgan ekan, harchand gapirdim, ko'nglidan chiqmadi». Otini boylab, piyoda bo'lib, enasining qoshiga borib, erkalagan kishi bo'lib, ko'nglini olmoqchi bo'lib, baland-past gapira berdi.

Enasi turib aytdi:

— Bolam, sen Charxin ko'lida ajdarharni o'ldirdim deysan, Bujul shahrida uch kun poshsholik qildim deysan, Xisrav shohning qizini oldim deysan. Uch yarim oy yurib menga topib kelgan o'tiriging shul-da. Meni shunday qilib aldayman deysan-da. Meni aldasang, bundan boshqa o'tirik quribmidi? Sening otangni Sul-tonxon der edi. Bizlar barkamol qiz vaqtimizda qallicqqa boradigan edi. Bir ipak arqoni bo'ladigan edi. Otangni qo'laband qilib tortib, boylab qo'ygichidim. Chiranib tortib, uzib ketaberguchidi. Hali bolam, sen otangday bo'lganing yo'q, bul ishlarni qilganing yo'q.

Rustam aytdi: — Ena, agar arqoning bo'lganda, meni ham bog'lab ko'rganingda bilar eding. Uzib ketsam otamday bo'lganim, uzolmasam, chechib qo'yasan-da, so'ngra!

— Bolam, seni yechmay bekorga qiynay beramanmi?

Kampir ayyor kerakli narsani g'amlab yurgan. Bir ipak arqon bilan Rustamni qo'lband qilib boyladi. Rustam chirpanib tortdi. Arqon etini ezib,

suyagiga botdi. Enasiga yechgin desa, endi quloq solmay, teskari qarab turibdi. Shunda boylovli yotib, enasiga bul so'zni aytdi:

«Bag'rimdan o't chiqib tanam tutashdi.

Etim ezib, suyaginga yetishdi.

Tavba qildim, ena, yechgin qo'limdi,

O'lmascha ko'rdingmi yolg'iz ulingdi?

O'z bolangga o'zing rahming kelmasmi?

Bunday qilsang, yolg'iz bolang o'lmasmi?

Ustingga kiyibsan yashildan ko'kdi.

Farzandga enacha rahbari yo'qdi(r),

O'z bolangga sira rahming kelmabdi,

Berahmsan, ena, yechgin qo'limdi!

Nima deb amr etsang ani qilayin,

Kecha-kunduz xizimatingda bo'layin,

Erta, yechgin, o'tgin mening gunoyim!»

Bu so'zdaytib Rustam shunday qaradi,

Shu zamon enasi ketib boradi.

«Enam deb dushmanga ko'ngil beribman,

Maston ekan, bejo duchor bo'libman!

Hiyla bilan qildi mening ishimni,

Zolim ayyor endi kesar boshimni.

Enam bo'lsa so'rar edi holimni,

Bir gap bilan boylab berdim qo'limni,

Boylovliman, bo'ynima oldim o'limni.

Oyog'imga kirsan edi bir tikon,

Enam bo'lsa qilar edi yuz fig'on.

Endi bildim, bu kampir bo'ldi dushman».

Bir gap bilan qo'lin boylab Rustamxon,

O'zi qilgan ishga qilib pushaymon.

Armon bilan bu boylovli qoladi,

Dod deganda nima iloj qiladi?

Endi dushman bilmaganin bildirar,
Qilich solmay, bag'rin qonga to'ldirar.
«Boylovliman, ne ish kelsin qo'limdan,
Boshim kesib armon bilan o'ldirar.
Hiyla bilan mening aqlimni oldi,
Oxiri, oqibat kunim shul bo'ldi»

Shunda kampir ayyor har turli bo'layotir.

Bul ravotda Qizil dev degan dev zindonda edi. Kampir Qizil devning zindonini borib aylandi.

Zindonda yotgan Qizil dev qaradi. Zindonning boshida devning ko'ziga bir surxayil gardon, pista dahon, juda bir zambar bel sag'rili binoyi kelinchak ko'rindi. Dev ko'rib: «Jo'ra yo'ldoshing bo'layin, tortib oll!», — dedi. Dev ko'rib:

— Ini og'ayni bo'layin, tortib oll, — dedi.

Kampir bu so'zga ham quloq solmadi.

— Esa, ering bo'layin, tortib oll! — dedi.

Kampir bir arqonni solib, Qizil devni zindondan tortib oldi.

Kampir turib aytdi:

— Endi gap shul: mening bir o'g'lim bor, boylab, sozlab qo'yibman.

Shuni o'ldirmasang, ikkovimizni o'ynab-kuldirmas. Bu dunyoda davron surdirmas.

Dev aytdi:

— Boylab qo'ygan eringni ko'rsat, o'ldirmoq tugil pora-pora qilib yuboraman.

Kampir Rustamni boylagan yerini ko'rsatdi. Dev oyboltasini qo'liga oldi. To'qson botmon cho'yandan bo'lgan kaltagi bor edi, egniga soldi. Rustamning ustiga bora berdi.

Shobir paydo bo'lgandan keyin, Rustam shunday qaradi. Ko'rdi: bir dev kelayotir. Ko'zini olaytirib, devga qattiq tikildi. Dev qaytib, kampirning oldiga bordi. Kampir aytdi:

— Nimaga qochib kelayapsan?

Dev aytdi:

— E bolang qursin! Haybati-siyosatiga odam yaqin borib bo'lmaydi. Bir qaradi, ko'zi yomon o'tkir ekan, jonim chiqib ketayozdi.

Kampir aytdi: «Odamlar dev xalqi qo'rqoq keladi degichi edi, qo'rqoq ekansan-da. Men ilgari yurayin, qo'rqsang mening keyinimdan yur!», — deb bora berdi.

Yana bir shobir paydo bo'ldi. Rustam qarasa, enasi kelayotir, keyinida bir dev. Rustam aytdi: «Men boyagi so'zni bilmay aytgan ekanman. Bu enam ekan. Yolg'iz qolib, dev bilan aralashib qolgan ekan. Endi meni ko'zi qo'rqsin degan ekan. Endi meni yechib qo'yar», — deb turdi. Kampir bir qism turpoqni olib, dam solib, Rustamning ko'ziga otdi. Rustamning ko'zi hech yerni ko'rmay chippa bitdi.

Devga aytdi:

«Ko'zi yo'qning yuzi yo'q» degan. Endi qo'rqmay uraber!

Shunda dev urmoqchi bo'lib, cho'yan kaltakni ko'tarib, Rustamning qaddi-qomatiga, siyosat kelbatiga qarab o'yladi: «Bunday yigit bu kampirning uli emas. Uli bo'lgan vaqtda, qo'li borib, shunday ulini o'ldirarmidi?! Bu kimni biladi. Shunday bir ulini bilmagan, menga nima vafo qilardi. Kele, shashtim qaytmasin», deb to'qson botmon cho'yandan bo'lgan kaltak bilan kampirni qo'yib yubordi.

Kampir tariqday tirqirab ketdi.

Dev Rustamning qo'lini yechdi, tozilarini ham yechib, qo'yib yubordi, otini ham qo'yib yubordi. Oti o'tga aylanib ketdi.

Rustamning ko'zi hech nimani ko'rmay qoldi. Ikki tozi kelib, Rustamning yonboshida o'tiribdi. Shunda dev Rustamga qarab bu so'zni aytib turibdi:

«To o'lguncha yaratganga rost bo'ldim,
O'z fe'limdan cho'p-u xasdan past bo'ldim.
G'arib bo'lgan do'stim, haqqa topshirdim,
Xudoni o'rtaga solib do'st bo'ldim.
Quloq solgin Qizil devning tiliga,
Armon bilan tushding ayyor qo'liga,
Har kim yig'lar g'ariblarning holiga,

Men ketarman bog'i Iram eliga.
G'arib bo'lgan do'stim, eshit so'zimni,
Jabbor egam bersa ravshan ko'zingni,
Iram boqqa izlab borgin o'zimni!
Iram bog'da yettog'oyini devlar bor,
Yettovi ham haddin ziyod zo'rabor.
U kelib zindonga qildi giriftor,
Shu devlardan mening lotim olib ber!
Zindondan qutuldim, turmay boraman.
Borgan bilan nima iloj qilaman,
Quvvatim kelmaydi Iram bog'ida,
Albatta yo'lingga qarab yuraman!
G'arib bo'lgan do'stim, haqqa topshirdim.
Men ketarman bundan yo'lingga qarab,
Zo'r devlarman bejoy bo'lganman taraf.
Bir xizmat-da, do'stim, meni so'rab bor,
Bir lak dev bo'lolmas senga barobar,
G'ayrating bor ekan shuncha sinadim,
Yo'liqsa izillab qochadi devlar.
Jafolar solganman tandagi jonga,
Xazon bo'lsa zog'lar qo'nar gulshanga,
Sen bormasang men o'larman armonda,
Iram bog'da bir yo'liqsan dushmanga!»
Bu so'zlarni aytib endi Qizil dev,
Ko'tarilib, uchib ketdi osmonga.

Shunda dev ketgandan so'ng Rustam tozilarining yonboshida o'tirganini bilib, tozilariga qarab, bir-ikki og'iz so'z aytib turgan ekan:

Vafodorlar, bo'l so'zimni bil endi,
Olis turmay, sen yaqinlab kel endi,
Jonivorlar, yo'lni boshlab yur endi!
Ot chopsa gumbirlar tog'ning darasi,

G'arib bo'ldi Oqtosh elning to' rasi.
Qaytayin qolganman bunda mug'oyib,
Qizil yuzim g'ariblikda sarg'ayib.
O'ligim bo'lmasin mening besohib,
G'aribdolib jo'na bundan, tozilar!
Rustam g'arib bo'lib, aqli shoshdi,
Ikki tozi endi oldiga tushdi.
Tozilarga, ko'ring, Rustam ergashdi.
Bu ravotdan chiqib endi jo'nadi.
«Bo'lak yerni, vafodorlar, bilmaysan,
G'aribni yetkargin Oqtosh shahriga!»
Tozi bilan Rustam cho'lda boradi.
Yo'lda yig'lar endi haqqa dotu-dot,
Bir boshiga bo'lib bunday alomat,
Yetalab qilgandi tozilar hizmat.
Necha vaqtlar cho'lda yo'l yurib ketdi.
Shunda yetib bordi, yotgan mozorat.
Rustam bildi, tozi mozorga keldi,
Go'riston ekanin bek Rustam bildi.

Cho'lda ko'hna zamondan qolgan mozor ekanini Rustam bildi. Bir o'yilgan go'rga kirdi. Tozilar go'rning boshidan ketmay turdi.

— E jonivorlar, men g'arib bo'ldim. Meni qayoqqa yetaklab borasan? Nima bo'lsa hojatimni bitirding! Dalada qolmadim. Bu yotganlar ham menday odam-da. Men olib kelib, o'zimday g'arib bo'lib yotganlarga qo'shding, — deb tozilarga qarab bir so'z aytib turgan ekan:

«Jonivorlar, menday g'arib bo'lmagin.
Rizqingni ko'r, bunda turib o'lmagin.
Men yotarman ochiq go'rlarga kirib,
O'liklarman bu zamon birga bo'lib,
Sizlar bundan Bujul shahriga borib,
Kun ko'ringlar, ovqatingni o'tkarib!

Ochdan o'lib qolma bu yerda turib,
Menopkelding odamlarga yetkarib.
Bunday kunda hojatimni bitkarib,
Ketaber, tozilar, sendan roziman,
Agar borsang Bujul shahrin axtarib!»
G'arib bo'lgan Rustam aytib turadi,
Rustamning tarziga tozi qaradi.
Gapirmoqqa tili yo'qdir tozilar,
Rustamning boshida aylanib turar.
Tozilarning ko'zida yoshi sel bo'lar,
Rustamning so'zini anglab jonivor.
O'ylab-o'ylab Bujul qarab jo'nadi,
Bek Rustamga tozilari kashaldi(r),
O'lganning biri bo'b Rustam qoladi,
Har zamon keyniga burilib qaradi.
Tozilar Bujulga ketib boradi.
Jonivorlar ketdi bul yo'lga tushib.
Ikkovlari goh yerlarda chopishib,
Bordi bular Bujul elga yetishib,
Tozilar bordi-ku Bujulga kirib,
Borarga mazgili yo'qdir, jonivor,
Egasi yo'q, bunda boshi gang bo'lib.
Ikkovi mug'oyib goh yerda turib,
Tentirab qolgandi beega bo'lib.

Tozilar shunda boradigan mazgilining tayini yo'q. Har yerda mug'oyib o'tirganini odamlar ko'rib. «Bir yoqdan og'ishib kelgan musofir tozilar ekan», — deb non olib beradi. Olib bergan noni ko'payib qolsa, nonini olib, shahri Bujuldan chiqib, mozorda Rustamga berib, kuniga bir marta Rustamning holidan xabar olib yura berdi. Shunda xalqning og'zida ovoza bo'ldi: «Bujul shahriga bæega ikki tozi keldi. Bir nazarkarda tozilar ekan. Xalq bergan ovqatlarni olib ketadi, yana quruq qaytib shaharga keladi».

Xalqning bu gapini Oftoboy eshitdi. Har kun yo'lga qarab o'tirar edi: «Hayallab ketdi to'ram, kelmadi», deb. Tozining so'zi qulog'iga tekkandan keyin, Oftoboy ko'nglida aytdi: «Mening to'ram hayallab ketdi. Kelar vaqtdan o'tdi. Bilmadim, bundan borib o'zidan zo'rga duchor bo'lib, g'aribi go'riston bo'lib — o'lib, tozilari tentirab qolib(mi), xalq gapirib yurgan tozi mening to'ramning tozimisikan? Tozilarni bir ko'rsam», — deb ko'shkida o'tirar edi.

Bir kun tozilarning guzari ko'shkining ostidan tushdi. Oftoboy qaradi, ikki tozi kelayapti. «Xalqning gapirib yurgan tozisi shularmikan? Qanday tozi bo'lsa, bir so'z qotib ko'rayin. Odamlarning aytishidan, ul tozilar bir nazari tozi. Shu tozi bo'lsa, o'zim gapirib, o'zim qolaman, o'taberadi», — deb tozilarga qarab, Rustamni so'rab turibdi, deydi:

So'zima quloq sol, ikki vafodor,
Oti Rustam edi, o'zi zo'rabor,
Ketib edi, qoldim bunda bexabar,
Agar bilsang, xabar bergin, tozilar!
Unga qurbon menday oyimning joni,
Oti Rustam edi Oqtoshning xoni.
Ko'shk-u ayvonim Rustambekning makoni,
Agar bilsang xabar bergin, tozilar!
Sen qayrilsang menday munglig' holiga,
Bilmayman ketdimi Oqtosh eliga?
Men bo'laman Rustambekning oyimi,
Ko'p termulib qarab qoldim yo'liga.
Agar bilsang xabar bergin yorigal!»
Ko'shka qarab buruldi ikki tozilar,
Tozilarning yoshi ko'zda sel bo'lar.
Bu so'zlarni Oftoboydan eshitib,
Bu yerlarda qanday rahbari bor deb.
So'ylamoqqa tili yo'qdi jonivor.
Tozilarga Oftoboyim qaradi,
Ko'shkini aylanib tozi turadi.

Rustam degan bekning otin eshitsa,
Ko'z yoshi jaladay ketib boradi.
«To'ramning tozisi, — dedi, biladi,
Tozining oldiga chopib keladi.
Vafodorlar, yetkaz mehribonima.
O'lar vaqtda sabab bo'lgan jonima!
Tirik bo'lsa, borib holin so'rayin,
O'lik bo'lsa, menam birga o'layin,
Dunyoning davrini nima qilayin,
Meni boshla, men xonima borayin!
To'ram deb gangidi bu aziz boshim.
Xabarim bilmasin qavm-u qardoshim.
Yonboshimda hech bo'lmadi sirdoshim.
Alam oshib, endi bo'ldi ziyoda,
Meni boshla, ketay poyi piyoda».
Tozi boshqarildi kelgan yo'liga.
Oftoboy ergashdi tozilariga.
Tozi bilan oyim bo'lgandi birga,
Qaramadi o'ynab-o'sgan mazgilga,
Bu shahardan chiqib endi Oftoboy,
Tozi bilan ketdi shundayin cho'lga.
Yayovlab cho'llarda endi yo'l yurib,
Piyodadir, oyoqlari qabarib.
Rustamning ishqida yig'laydi bo'zlab,
Ketdi tozi bilan begini izlab,
Necha muddat cho'listonda yo'l yurdi,
Namozshom haddida mozorga bordi.

Tozilar go'ristonlikni oralab ketdi. Eti, yuragi seskanib, Oftoboy aytdi:
«Xudo meni sharmanda qilgan ekan. Men bir go'rkov kuchukka iyarib
qolgan ekanman», — deb mozorning chetida turdi. Tozilarga qarab turib
edi, tozilar borib, bir o'yilgan go'rga kirdi. Tozilar kirgandan keyin, ingranib

birovning dovushi chiqqanday bo'ldi. Oftoboy aytdi: «Bu tirik odamning dovushiday. Ke, men ham borayin, nima borini bilayin. Bu yotganlar ham bizday odam-da. Nima qilib yuribsan deb yoqamdan bo'g'ib olarmidi?».

Oralab, tozi kirgan go'ring boshiga bordi. Qarab, Rustamni ko'rdi. Ko'rgandan ko'zini yoshlab, go'ring ichiga o'zini tashlab, Rustamga qarab, boshini tizzasiga olib, Rustamning holini so'rab turibdi:

Sarg'ayib gulday yuzing,
Ko'r bo'libdi ikki ko'zing.
Izlab keldi sarvinozing,
Meni boshlab ikki tozing.
Qoldi sening kirdikoring,
Haqqa yetgay aytgan zoring,
Cho'l bo'lib qoldi ro'zg'oring,
Bu mozorda xabar olgan,
Bujul eldan kelgan yoring!
Na bo'ldi, xonim, ahvoling?
Enam deb axtarib kelib,
Ikki ko'zing g'ubor bo'lib,
Guliston joylaring qolib,
Makon — ochiq mozor bo'lib:
Yo'liqqan o'zingdan g'olib,
Bir kashmirga duchor bo'lib,
Enam deb axtarib kelib.
Qayg'u, kulfat, g'amda qolib,
Ravshan ko'zing egang olib,
Na bo'ldi, xonzoda, holing?

Rustam bu so'zni eshitib, dovshidan yori Oftoboyni bilib, bir so'z aytib turgan ekan:

Ketgin, dilbar, mendan umid qilmagin,
Bu mozorda mendan xabar olmagin,
Ketaber yo'lingdan, oyim, qolmagin!

Jafo tig'i bukun jondan o'tadi,
Meni taqdir shu kulfatga eltadi,
Nolishing qaytadan meni o'rtadi,
Xudo qilgan ishni banda qaytadi,
Ketaber, gulyuzlim, sendan roziman!
Bunda kelib yosh umringni o'tkarma,
Karvon bo'lib sen yukingni bitkarma!
Bujulning shahriga, oyim, boraber,
Borsang, bir shunqorga ko'ngil beraber,
Mendan foyda yo'qdir, chiqar ko'nglingdan.
Vaqting xush qip yaxshi kunni ko'raber!
Ketaber, dilbarim, sendan roziman.

Bu so'zni eshitib Oftoboy Rustanning boshida o'tirib, kecha o'tib, sahardan keyin go'rdan dalaga chiqib, xudoga yig'lab, hojatini haqdan tilab o'tirdi. Shu o'tirganidan tong yorishguncha munojot qilib o'tirdi. Undan keyin kirib, Rustanning ko'zini siladi. Rustanning ko'zi ravshan bo'lib ochildi. Yorini ko'rib, qaytadan dunyoga kelganday bo'lib, ikkovi ikki tozini ergashtirib, shahri Bujulga qarab ketib borayotir. Oftoboy bu so'zni aytib borayotir:

«G'ariblik ko'yida qolding,
Xonim, kimga duchor bo'lding?
Ikki ko'zingdan ayrilib,
Ko'rar yo'lni ko'rmas bo'lib,
Go'r ichinda bir kun kechirib,
Xonim, kimdan zulm ko'rding?
Tangrim yana ko'zing berdi,
Xira ko'zing ravshan bo'ldi.
Qaytadan dunyoga keldi,
Qandayin badbaxt ko'r qildi?»
Bu so'zni eshitib Rustam,
Javob berar unga kam-kam:
«Enam deb axtarib keldim,

Men enamdan zulm ko'rdim.
Enamning jabridan menam,
Ko'r bo'ldim, mozorda qoldim.
O't tutashdi gulday tanam,
Xizmat qildi senday sanam,
Meni ko'r qilgandi enam».
Bu so'zni eshitib Oftob:
«Qilmang enangizga tuhmat,
Ena bu ishni qilmaydi,
Ko'r qilib sizni ne bo'пти?
Enadayin rahbar yo'qdi(r),
Enangiz suratida bo'p,
Sizga bir maston kelibdi.
Enangiz ham ne yerlarda,
Angladim g'arib bo'libdi».

Bu so'zlarni bir-biriga aytib, Rustam:

– E nodon, ko'zim ko'r bo'lsa, keyin bo'lgan. Men ilgari ham ko'rmidim, enamni tanimay qolgan?

Bular ikkovi bo'lgan voqeani aytib, Bujulga kirib bordi. O'sha kecha Oftoboyning o'rdasida yotdi. Enasining qilgan ishlari dard qilib, erta-mertan o'rmdan turib, Xisrav shohning qoshiga borib bu so'zni aytdi:

«Ota, quloq solgin aytgan tilimga,
Men turmayman sening Bujul elinga.
Men ketarman endi Oqtosh yurtimga,
Bino bo'lib yurgan mamlakatimga.
Yaxshi so'zman bundan meni jo'natsang,
Oftoboy qizingni birga uzatsang,
O'z mamlakatima bir kuni yetsam,
Hech turmayman endi, bu yerdan ketsam».
Bu so'zni Rustamdan Xisrav eshitdi,
Ot asbobi, anjomini tuzatdi.

Necha kaniz, xizmatkor qizlar bilan,
Maofada Oftoboyni uzatdi.
Rustamga hamroh bo'ldi necha amaldor,
Oftoboyman birga u zamon qizlar,
Bir-biriman u xo'shlab jo'nadi,
Oqtoshning shahriga ketib boradi.
Rustam borayotir shundayin yo'lga,
Ikki tozi ikki yog'ida birga.
Maofada yurib, Oftob qaradi.
Shu vaqti kun yetib qoldi peshinga,
Bahra toqqa endi yaqin boradi,
Yarqiragan bir qo'rg'onni ko'radi.
«Qanday mazgil?» dedi endi Oftoboy,
Bek Rustamdan bu mazgilni so'radi.
Rustam unga shunday javob beradi:
«Enam, deb axtarib shu yerga keldim,
Shu mazgilga kelib ko'r bo'lib qoldim.
Enamdan bu yerda jarohat ko'rdim,
Bo'lgan ishni, dilbar, senga gapirdim».
Rustambekdan so'z eshitib Oftoboy:
«Yaxshiyakan, qo'nsak, — dedi, mazgil joy,
Yarqillagan, o'ziyakan keng saroy,
Odam tushsa, bir tomosha qilguday».

«Bunday o'tib ketsak Oqtoshgacha qo'nadigan mazgil joy yo'q. Shu bugun qo'nib yotayik, erta-mertan salqin bilan yo'l tortayik», — dedi.

Rustambek «Xayr», — deb, ularni boshlab borib, sarhovuzning bo'yiga tushdi. Sebarga, salqin, ajab joy. Bular saranjom olib, bir xili har yerni tomosha qilib, bir xili damini olib turdi. Shu vaqt ikki tozi borib, bir eshikni tirmalay berdi. Oftoboy aytdi: «Shul tozilar nazari, shunda bir hikmat bor. Nega bular eshikni tirmalay, o'zini uradi?» — deb, tozilarning qoshiga Rustamni ergashtirib borib, eshikni ochib ichkari kirib ketdi. Ichkima-ichki eshik ochib,

qirq tomning to'riga yetdi. Borsa, enasi bo'ynida g'ul, oyog'ida kunda, o'lib qolibdi. Rustam enasining ustiga o'zini otdi. Rustamning betiga qarab, Oftoboy bu so'zni aytdi:

Barakalla, sizdayg'achiq yolg'iz ul,
Oyog'ida kunda, bo'ynida bor g'ul,
Tuproq ag'nab, jon beribdi enangiz!
Er yigit enasi g'arib o'larmi?
Enam deb mastonga ko'ngil berarmi?
Yig'lay-yig'lay qaddi-bo'yi bukilgan,
Vo bolam!, — deb quloch yoyib yiqilgan.
Oh-u fig'on qilib bek Rustam turgan,
G'ul bilan kundadan ayirib olgan.
«Oftoboyim, qani buni bilay», deb,
«Joni bormi, yo'qmi, buni sinay», deb.
Biror kosa issiq suvni keltirdi,
To'ldirib ichiga novvotni soldi,
Ko'p fursat og'ziga tomizib turdi.
Kam-kam qarar, tamshanganday bo'ladi,
Borib-borib bir zamon jon enadi,
Kunning o'zi nomozgarga yetganda,
Ko'zini ochib bu Huroyim qaradi.
Bu ahvolda yotgan necha kun o'tgan,
Ochlikdan yiqilib, quvvati ketgan.
O'lik suratinda bu bo'lib yotgan.
Nomozshomda endi keldi quvvati,
Ko'ziga ko'rindi Rustam farzandi.
«Armon bilan o'ldim, g'aming e», deydi,
«Rustam bolam, endi berman kel», deydi.
«Oqtoshning shahridan keldi bir ayyor,
Men uning changgiga bo'ldim giriftor.
Necha kundir g'arib bo'lib kun ko'rdim,

Bu dunyoda ko'rgan kunlarim bekor.
O'lar vaqtda, jonim bolam, keldingmi?
Axtarib kep mendan xabar oldingmi?
O'lar vaqtda, enam deb sen turibsan,
Yoring bilan ikkov birga yuribsan,
Bu yerni, bolam, qanday bilibsan?»

Bu so'zlarni eshitib, enasi bilan ko'rishib, so'rashib, topishib, enasining ahvolini ko'rib, o'zining ahvollarini gapirib, Oftoboyim bilan enasini tanishtirib, asta-asta Rustambek bilan Oftoboy Huroyimning qo'ltig'iga kirib, suyab, dalaga olib chiqdi. Shunda shamollab-salqinlab, o'zini rosladi. Kelgan mehmonlar, Huroyim Rustamning enasi ekanini bilib, bari yig'ilib, qoshiga kelib, hol-ahvolini so'rab, bular shu oqshom yotdi.

Erta-mertan kelgan odamlarga Rustam: «Biz Oqtosh bormaymiz, — deb javob aytdi. — Oqtoshda bizga dushman otam-da desam, har qaysisi ham ayamaydi ekan. Bir kampir kelib, meni ko'r qilib, enamni bu ahvollarga solib shuncha abgor qilibdi. Endi bir-birimizga ehtiyot bo'lib, shu yerda turamiz. Bizda ko'pchilik bo'lib yig'ilib, yeb yotadigan shohlik-shavkat davlat yo'q».

Kelgan erkak-ayolni o'z mamlakatiga qaytarib yubordi. Ena bola uchovi Oqrabotda makon qilib yura berdi. Rustambek kuniga toqqa chiqib, ov ovlab kelib, pishirib berib, bular kunini o'tkaza berdi. Oqrabotda o'z davrini sura berdi.

Oqtoshda Sultonxon tirik qaytgan jallodlar bilan gaplashib, voqeani bilgan edi. Huroyim bilan o'g'lining qayoqqa ketganini, nima bo'lganini bilmay, garang bo'lib yurar edi. Xalq og'zida: «Huroyim bilan Rustam tirik yurgan emish. Bular bir tuhmat bilan eldan judo bo'lib ketdi. Endi qaytib Oqtoshga kelmas emish», — degan gap ko'paydi.

Bu gap Sultonxonning qulog'iga yetdi. Ehchab ko'rdi: «Shu odamlarning aytgani ma'qul». O'zining qilgan ishiga o'zi uyalib, bir kechada poshsholik davlatini tashlab, qalandar kiyimini kiyib, boshini olib, Oqtoshdan chiqib ketdi: «Yer yuzida bo'lsa, izlab topib olayin, qilgan gunohimga tavba qilayin; topmasam, men Oqtoshni nima qilayin, men ham tentirab o'layin», — deb,

shaharma-shahar og'ishib, bir shaharda qirq qalandarga duch bo'lib, buning bilan qirq bitta bo'lib, bir kuni Oqrabotga haqlab borib qoldi.

O'sha kuni Rustam uyda edi. Erinib, ovga chiqqan yo'q edi. Qalandarlar Oqrabotning darvozasiga kelib «Shaydillo!», — deb ominni olib, ularning sardori bir qalandar o'qib turibdi:

Taxt-u baxtimni tashladim,
Qalandar bo'b yo'l boshladim,
Quloh kiygan qalandarman.
Ham yorimdan, farzandimdan,
Judo bo'lgan qalandarman!
Poshsholikdan ado bo'lib,
Bir g'aribiy gado bo'lib,
Hammasidan judo bo'lib,
Ado bo'lgan qalandarman!
Tay urib, olamni kezib,
Sharhi dilim kinga yozib,
Bir ish qildim fe'lim ozib,
Judo bo'lgan qalandarman!
Tark ayladim mosuvoni,
Axtardim ushbu dunyoni,
Farzandimman yorim qani?
Gado bo'lgan qalandarman!
Buzilgandir mening raxtim,
Sabil bo'ldi toj-u taxtim,
Endi bo'lsa ko'rar vaqtim,
Ado bo'lgan qalandarman!
Ko'zimdan oqqan yosh bo'lib,
Qirq qalandarga bosh bo'lib,
Bir ulfati sirdosh bo'lib,
Ahvolimga shukur qilay,
Bir nishonim bunda ko'rib,

Abgor bo'lgan qalandarman!
O'zimni har yona solib,
Xalqda malomat-gap bo'lib,
Ishimga pushaymon qilib,
Gado bo'lgan qalandarman!
Bolam deyman, bag'rim tuzlab.
Yig'ladim bo'taday bo'zlab,
Necha shaharlarni izlab,
Abgor bo'lgan qalandarman!
G'am tortib qabog'im uyib,
Gadolik kiyimin kiyib,
Ado bo'lgan qalandarman.
Keldim bu yerga axtarib,
Necha mazgillar tay urib,
Shu yerdan daragin bilib,
G'arib kelgan qalandarman.
Bir olloga yetsa zorim,
O'zimda yo'q ixtiyorim,
Qolmas mening nomus-orim,
Ulim bilan ketdi yorim,
Xudo bo'lgan qalandarman.
Endi ko'nglim ravshan bo'lib,
Shu yerda daragin bilib,
Juda dardim g'olib kelib,
Ko'p axtargan qalandarman.
So'rab turgan qalandarman.

Rustam eshitib, «O'qigich qalandar ekan» deb quloq solib o'tirdi. Rustam bu gaplarning ma'nosiga bormadi. Huroyim ko'rib, Sul-tonxonning qalandarlar bilan yurganini tanib, ilgari shohlik-shavkatda, poshsholik davlatda, qanday rohatda birga yurgan kunlari esiga tushib, ko'ngli buzilib, bag'ri ezilib, Rustamga qarab bir so'z aytib turgan ekan:

Poshsho edi, shunday bo'пти xor-zor,
Ishqimizdan kuloh kiygan qalandar,
Senga qurbon menday enangning joni,
Shu qalandar, bolam, Oqtoshning xoni.
Sen bo'lasan qalandarning o'g'loni,
Buniyam abgori qilgan dushmani.
Sabil bo'пти buning shohlik-shavkati,
Bor ekan-da qariganda qismati.
Senday bolam shul gadoyning farzandi,
Izlab yurib, kelib bizga duch bo'ldi.
Shu ahvolda kelib bizlarni ko'rdi,
Qarayman tarziga, termulib turdi.
Poshsho edi, xo'rlik bilan kun ko'rdi,
Ko'rib ahvolini ko'nglim buzildi.
Tarziga qarayman, bag'rim ezildi,
Ikkimizni yo'qlab Sul-tonxon keldi,
Tanimaysan, bolam, kelgan otangdi(r),
Izlab kelgan, bolam, sendayin uldi.

Enasining bu so'zini bilib, Rustam ko'nglida aytdi: «Enasi qurg'ur gangib, bu azoblarning barini o'zga odamdan mastonlardan ko'rib, buni o'ziga do'st bilib, bunga mehribonlik qilayapti. «Sening otang», — deb yaqinlatayapti. Endi bular ancha o'qidi. Quruq jo'natmayin, qirq bir odam ekan, picha nazri niyoz berib, bularni koyinqirab yuborayin. Pul berar ekan deb, tag'in aylanib kelib yurmasin.

Bunga men ham mehribonlik qilsam, kampirdan chiqqan balo bundan ham chiqib yurmasin», — deb qalandalarga ancha-muncha nazri niyoz berib, bu so'zni aytib turgan ekan:

«Qalandarlar, eshit aytgan so'zimni,
Bundan bo'lay bunda solma izingni!
Endi kelsang o'ldiraman o'zingni!
Qalandarlar shahar joyda yurmasmi?»

Rastalarda talqin aytib turmasmi?
Bu yolg'iz makonda senga nima bor?
Telpaging qayqaymay o'lgir, qalandar!
«Shaydillo», deb chiqarmagin dovshingni,
Endi kelsang men kesarman boshingni!
Naziringni olsang, bu yerdan yo'qol,
Xatarli yerlarda senga nima bor?
Endi kelsang, men qilaman gunohkor,
Naziringni olding, ketgin, qalandar!
Bu so'zlarni Rustambek aytdi,
Rustamdan qabohat so'zni eshitdi.
«Bu bachchaning bergan puli qursin», deb,
Ko'ngli izza bo'lib, mazgildan qaytdi.
Birnechasi Sultonxonga so'z aytdi:
«Bizlarga bosh bo'lib dunyoda yurding,
Bu yolg'iz makonni axtarib kelding,
Bizga bergan bu naziri qursin,
Judayam bizlarni ko'p izza qilding!»
Bu so'zdaytib yo'lda ketib boradi,
Qalandarlar bari mastdir bu yo'lda,
Necha bandargohdan o'tib boradi.
Qalandarlar asli maqsadi shuldi(r):
Ka'ba izlab bundan ketib boradi.
Kam xarj qolgan yerda gadoylik qildi,
Xarjili bo'lganda, qichab yo'l yurdi.
Haj qilayiq degan niyati bordi.
Qalandarlar «Shaydillo!» deb, axtarib.
Ka'ba izlab qirq bir qalandar yurdi,
Sultonning dardini ular bilmaydi,
Ka'ba deydi, yurar yo'ldan qolmaydi.
Shunday qilib necha shaharni ko'rди,

Ulfatlarman har yerlarda o'tirdi.
Sultonxon dardini endi gapirdi:
«Yaproqday titraydi qalandar joni,
Men qalandar, biling, Oqtoshning xoni,
Izza qildi deb ham zinhor koyinmang,
Mendayin gadonin yolg'iz o'g'loni.
Shularning ishqida bo'ldim xor-zor,
Daragini bilib bordik, qalandar,
Ka'ba bilan ishim yo'qdir, ulfatlar,
Mening Ka'bam, ko'rdim, u yerda tayyor!
Mendan bilsang, ko'p xatolik o'tgandir,
So'zlagani yo sizlarga botgandir?
Sizlar ko'nglingizga og'ir olmangiz,
Bu gaplarni asli menga aytgandir.

Oti Rustam, o'zi nor kalla qo'chqor,
Men shuning ishqida bo'ldim qalandar.
Ka'ba ketsang, borabergin, ulfatlar,
Qaytib borsam mening Ka'bam topilar.
Necha kunlar bo'ldik birga ham yo'ldosh,
Bir-birimiz bilan bo'lganmiz sirdosh,
Men qaytaman endi kelgan yo'limga,
Ka'ba borsang ketabergin, qarindosh!»
Bu so'zdaytib bir-biriman xo'shlashdi.
Qirq qalandar ketdi Ka'baga qarab.
Sulton yurdi bir shaharni oralab.
Yolg'iz o'zi bunda shaharni ko'rdi,
Eshshak bozoriga Sultonxon bordi.
Yolg'iz qolib bu, yurmoqqa erinib,
Bu shahardan katta bo'z eshshak oldi.
Shul zamonda so'tasini taqimlab,
Kadi-madbaxini xurjunga soldi.

«Qani mening borsam jonu dilim, deb,
Chamanda sayragan u bulbulim, deb,
O'ldirsa o'ldirsin yolg'iz ulim», deb,
Tag'i qaytib Bahra toqqa jo'nadi.
Bek Rustamga tag'i qaytib boradi.
Ilgari Rustamning tarzini ko'rib,
Xala bosar eshshagiga yo'l yurib.

Shunda yo'l yursa ham mo'l yurib, bir o'zi telpagi qayqayib, tag'i bir kun Oqrobotga borib qoldi. Rustambek ovda edi. Sultonxon eshshagini bog'lab, sarhovuzning bo'yiga tushib kadi-madbah, so'talarini daraxtlarga ilib, bangini urib, kayfini surib turib edi. Oftoboy hovuzga suvga chiqdi. Bul qalandarni ko'rdi: belida kamarlari tillodan; qaddi-jasadi — kelbati Rustamga keladi. Shunda Oftoboy qalandarga qarab so'z aytib turgan ekan:

G'am bilan sarg'aydi guldayin diydor,
Bir nechalar ahvolidan bexabar
Bul mazgilga kelib qo'ngan, qalandar,
Xabar bergin, kimda sening ishing bor?
Beliga yarashgan zarrin po'tasi,
Ko'p bo'ladi aytgan so'zning xatosi,
Siz bo'p yurmang bizning xonning otasi,
Xabar ber, qalandar, qaydan kelasan?
Qora zulfim eshilgandir tol-tol,
Qalandar, bu aytgan so'zga quloq sol,
Dushman kelsa, bunda bo'ladi poymol,
Bir qalandar bobo, qaydan kelasan?
Kecha-kunduz sen tortdingmi oh-u voy,
Mo'min qulni bandam desin bir xudoy,
Bu yerlar bizlarga bo'lgan mazgil-joy,
Bir qalandar, aytgin, qaydan kelasan?

Sultonxon bu so'zni eshitib, Oftoboyga qarab, boshini ko'tarib bir-ikki og'iz so'z aytib turgan ekan:

Dardim ko'pdir, kim biladi ishimni,
Qo'limdan uchirdim olg'ir qushimni.
Ko'p yurdim, yetmadi bemahal o'lim,
Qaysi bir gulshanga ketdi bulbulim.
Shu ko'ylarga soldi qodir xudoyim.
Xarob bo'lib qoldi u mazgil-joyim,
Havoga davr olib bo'z qarchig'ayim,
Shu gulshanga qo'ndimi, deb so'rayin.
Sabil qilib yurdim o'tirishimni,
Men topmadim ul qochirgan qushimni,
Yurdim har yerlarda so'rog'in so'rab,
Necha shahar, necha joylarni qarab.
Kecha-kunduz qarchig'ayim axtarib,
Shu yerda bor emish, gulshanga qo'nib.
Izlab keldim necha zamon yo'l yurib,
Xabar bersang, mening farzandim bormi?

Bu so'zni eshitib Oftoboy bildi — Rustamxonning otasi ekan. Unga bir so'z aytdi:

Maydon bo'lsa bedov otlar chopilar,
Chopib kelsa, banot jullar yopilar.
Menam bildim, yo'qchi bo'lib kelibsan,
G'am yema, begijon, yo'g'ing topilar.
Ko'tar yuragingdan qayg'u vahimni,
Ko'rarsan izlagan qarchig'ayingni.
Qayta boshdan obod qilsang joyingni.
G'am yema, begijon, yo'g'ing topilar.
Ko'rib sizni ketdi ko'nglim jo'shib,
Bir-biringdan necha vaqtlar adashib,
Endi kepsan bunda izlab yonashib,
Adashganning barini qo'ysam bir qo'shib,
G'am yemagin, izlaganing topilar.

Bu soʻzni aytib, Oftoboy koʻzasini toʻldirib, uyga qaytib Huroyimning qoshiga bordi. Oftoboy aytdi: «Bular bir-biridan koʻngli qolishib yurgan odam. Agar aytсам, sira ham «Bunda ergashtirib kel», deb aytmaydi. Agar hozir Rustamxon ovdan qaytib kelib qolsa, men unday-bunday deganiga quloq solmay, chopib tashlaydi. Nima boʻlsa, enasining qoshida koʻrsa, enasini hurmat qilib, zarar yetkazmas», — deb bu gaplarni koʻngliga olib, uyni supirib-sidirib toʻshanchi solaberdi.

Huroyim aytdi: — Bolam, bir mehmon ergashtirib keladiganday, juda sertasaddud boʻlib yuribsan?

— Ishingiz boʻlmasin, — deb chiqib ketdi. «Bu nimaga sertasaddud boʻlib yuribdi», — deb Huroyim qarasa, Sultonxonni iyartib kelayapti.

Huroyim bir tihsinib turib koʻnglida aytdi: «Bu birga yurgan yor edi. Bizlarga koʻp zulmni qildi. Oxiri pushaymon boʻlib, bosh egib keldi. Rustamga tavba qildi. Rustam urishib qaytargan edi. Oradan necha vaqtlar oʻtdi. Oftoboyning bu yelib-yugurishiga qaraganda, choqdan, Rustam otasini ovdami-togʻdami koʻrib, tagʻi qaytib kelsa, joʻnatmay xizmat qilib turasan, degan ekan-da. Boʻlmasa, Rustam bexabar bunday ishni qilmasa kerak edi», deb koʻngliga kelib turdi.

Sultonxon Huroyimga salom berib, boshini egib turdi. Oftoboy uni ichkariga kirgizdi, koʻrpachaga oʻtqizdi. Huroyim ham kirib oʻtirdi. Ikkovi hol-ahvol soʻrab, boshidan oʻtgan kulfatni gapirib, bir-biridan oʻpka qilib, Huroyim Sultonxonni uyaltirib, Oftoboy xizmatda boʻlib turib edi. Rustamxon ovdan kelib qoldi. Bir alqar bilan bir kiyikni supaning yonboshiga qoʻyib, uyning qarshi manglayiga bordi. Oftoboy abjirlik bilan oldiga chiqdi. Rustam Oftoboyga qarayman deb, ichkariga koʻzi tushdi. Tunovgi koʻrgani gavshana qalandar, telpagi qayqayib, enasining qoshida oʻtiribdi.

Rustamning hushi boshidan uchib, xayoli qochib, qilichga qoʻl uzatib, bu soʻzlarni aytib ichkari kiraberdi:

Qalandarni koʻrib gʻayrati keldi,
Gʻilofdan sugʻurib qilichni oldi.
Oftoboyning aqli shoshib qoldi.
Qalandarsan endeshit nolishimni,

Qilich urib, men kesarman boshingni.
Sen qo'linga tushib bo'lding gunohkor,
Omon bermay o'ldirarman muqarrar.
Bul makonda, aytay, senga nima bor?
Tunov kun so'yladim, senam bilmading,
Xayolingda meni pisand qilmading!
O'laman deb, mendan hazar qilmayin,
Holing bilib o'zga yo'lga yurmading!
Chidayalmas Rustamning dovushiga,
Yaqinladi qalandarning qoshiga,
Xanjar solmoq bo'ldi uning boshiga.
Huroyim shul zamon o'rnidan turdi,
«Bolan!», — deb qaytardi Rustamday uldi.
«Tovba qilib, o'zi axtarib keldi,
Chopib tashlab, bolam, senga ne bo'ldi?
Qanday bo'lsa, qo'zim, manmanlik qilma!
«Rustam otasini chopibdi», degan,
Lanqa gapni, qo'zim, o'zingga olma!
Xazon bo'lib, bog'da gullar so'lgandi,
So'lgan gulga bulbul kelib qo'ngandi.
Bunchayam darqahr bo'lma, Rustamjon,
Qurudimga ketgin otang kelgandi(r).
Qanday farzand otasiga tig' tortar?
Egilgan bo'yinni kesmaydi xanjar».
Enasi Rustamga nasihat aytar.
Shul zamon Rustamning bo'g'ni bo'shadi,
Enasining so'zi bilan bek Rustam,
Qo'lidan qilichni yerga tashladi.
Boshidan ketganday qorong'i tumon,
Turib edi ong-tong bo'lib Rustamxon,
Ingranib o'rnidan turib shul zamon,

«Bolam!», — deb bag‘riga bosdi Sul-tonxon.
Omon-eson endi ulini ko‘rib,
Yuragidan ketdi qancha g‘am-armon.
Adashganlar bir-biriman topishdi,
Necha kun, necha tun orada o‘tdi.
Sul-tonxon Rustamga bul so‘zni aytdi:
«Quloq solgin xon otangning tiliga,
Qo‘zim, ketayik-da Oqtosh eliga.
Bundayin sen yolg‘iz joyda yurmagin,
Bul yolg‘iz makonda, qo‘zim, qolmagin!
Borib ko‘rgin Oqtosh mamlakatingni,
Bino bo‘lib, o‘ynab-kulgan yurtingni!»
Necha so‘z Sul-tonxon bunda aytadi,
Qayta-qayta ko‘p va‘dalar beradi.
O‘z ishiga tavba qildi Sul-tonxon,
Oqtosh elga bormoq bo‘ldi Rustamxon.
Oqtosh ketmoq taraddudin qiladi,
Ot-ulovni bul abzallab minadi.
Yov-u yarog‘ darkorlisini olib,
Hamasiyam Oqtosh qarab jo‘nadi.
Chiqib ketdi bundayin Oqrabotdan,
Yo‘l boshlab boradi endi Rustamxon.
Bahra tog‘dan o‘tib yo‘l yurib ketdi,
Adadsiz cho‘llarni ko‘p bosib o‘tdi.
Necha kunlar kecha-kunduz yo‘l yurib,
Ozginamas, qancha suvsiz cho‘l yurib,
Yo‘lda necha chalqib yotgan ko‘l yurib,
Mansurning doriga yaqinlab yetdi.

Mansurning doriga, Shotutga yaqinlab borgandan keyin, Huroyimning ko‘rgan azoblari, jalloddan ko‘rgan taaddi, mehnatlari esiga tushib, bu so‘zlarni aytib bora berdi:

Elda ketib mening nomusum orim,
Yarqillab ko'rindi osilgan dorim.
Begunoh quridi, qaytayin, sho'rim.
Piyoda Oqtoshdan haydab jalloding.
Yo'l yurganda mening tortgan zahmatim,
O'lar vaqtda yolg'iz bolam yetishib,
Boshimdan ko'tarib g'amim kulfatim,
Har yerda rahbarim bo'lgan farzandim,
Rustamjondan ko'pdir mening umidim.
Shunda Sul-tonxon:
Esingolma necha so'zni sen nochor,
Har kimdan bilmasdan xatolik o'tar.
Men tirilib, qo'zim bilan kelaman,
Qaytadan o'ldirma, senday mushtipar!
O'tgan so'zlar o'tib ketsin orada,
Rustamday qo'zimdan jonim sadag'a.
Bilmaslikdan ko'p xatoni qilibman,
Pushaymon qib, abgor bo'lib yuribman,
O'tgan ishlarimga tavba qilibman,
Qayta boshdan meni, dilbar, o'ldirma!
Men kelaman elni izlab, yo'l yurib,
Qaytadan so'ylaysan meni kuydirib.
O'zimning ishimga o'zim o'rtanib,
Yongan olovlarga jonimni solib.
Boramiz Oqtoshga bir kuni kirib,
Qolarsan-da ko'rmagandayin bo'lib,
Gapirma, gulyuzli, pushaymon qilib,
Har so'zingda tiriklayin o'ldirib!»
Bu so'zlarni aytib ketib boradi,
Oqtoshga yaqinlab, yetib boradi.
Borayotgan xabar Oqtoshga yetdi:

«Uli bilan keldi Sultonxon», — deydi.
Qancha amaldorlar peshvoz chiqibdi.
Qancha xaloyiqlar ko'nglini xushlab,
Rustamni kirgizdi shaharga boshlab.
Shunday qilib keldi Oqtosh shahriga,
Kelib tushdi shohning o'rdalariga.
Rustam bilan, ko'ring, endi enasi
Ega bo'ldi qolgan kirdi-koriga.
Kanizlarman qolgan ul Ximchaoyim,
Zolimlar dastidan yig'lagan doyim,
Turib mazgilida bular eshitdi:
Uli bilan kelgan emish Huroyim.
Rustam, Huroyimni ko'moqqa keldi,
Qancha xaloyiqlar bunda yig'ildi.
Bir-birining hol-ahvolin so'radi,
Bunda bo'lgan ishni Rustam bilmadi.
Huroyim nazar sop shunday qaradi,
Hamma keldi, ikki kundosh kelmadi.
Sultonxon ikkovin shunday o'yladi,
Bulardan o'zgani dushman bilmadi.
Amaldorlar bilan maslahat qilib,
Bir nechaga sir bilgin, deb so'yladi.
Necha do'stlar ehchab yurur shul zamon,
Ikki kundosh bularga bo'lgan gumon.
So'rgandan bir kuni anig'in bildi,
G'aznavonlar so'ragancha gapirdi:
«To'rt qop tilla ikki kundoshga bergan,
Ikki kundosh olib, mastonga bergan.
Mastonman birikib shul ishni qilgan».

G'aznavonlar, saroyda yurgan kanizlar, ikki kundoshning mastonnikiga borganini ko'rib yurgan odamlar, bilgan-ko'rganini xabar berdi. Shunda ikki

kundoshning dushmanligi ma'lum bo'ldi. Endi Sultonxon ikki xotinini chaqirtib oldi. «Bularning qilgan ishiga mamlakatni buzib, qancha sarsonlikni soldi», — deb, ikki xotinni haydatib, mirg'azablarga shunday buyurdi, deydi:

«Gunohkor ikkovi, qo'lin boylanglar,
Turmasin, shahardan darrov haydanglar.
Kim yomonlik qilsa, jazosin ko'rsin,
Hech tirik qolmasin ikkovi o'lsin!»
Poshsho buyurdi-ku, jallodlar turdi.
Quloq soldi Sultonxonning ishiga,
Endi keldi kundoshlarning qoshiga.
Shu zamon jallodlar haydab jo'nadi,
Shahardan chiqarib, ketib boradi.
Dushman bo'lgan kundosh pushaymon qilib,
Huroyimning ishi boshiga kelib.
Yo'lga chiqib jallod shunday o'yladi,
Tuv biyaning quyrug'iga boyladi.
Kundoshlarning jazosini toptirib,
O'ldirdi bul changalzorda choptirib.
O'ligini tashlab jallodlar qaytdi,
O'lgan xabarini poshshoga aytdi.
Xaloyiqni yig'ib endi Sultonxon:
«Omon-eson Rustam elga keldi», deb,
«Yurtimga farzandim ega bo'ldi» deb,
Xaloyiqni xabar qilib yig'dirdi.
Qancha so'qim, qancha qo'yni so'yirdi.
Necha yerdan endi, o'choq o'yirdi,
Vaqti xush bo'b, Oqtosh elda Sultonxon,
O'g'li uchun el-u xalqqa to'y berdi.
«Rustam bolam yurtga ega bo'lsin», deb,
«Poshsholik navbatni Rustam olsin», deb,
«Rustam endi elni so'rab tursin», deb,

El-u xalqqa shunday xabar bildirdi.
Poshsholikni Rustam qabul qilmadi,
Zo'rlagan gaplarga quloq solmadi:
«Ovda-dovda, ko'p yuraman dalada,
Poshsholik saltanat menga nima-da?
Poshsho bo'lgan kishi ayolday bo'lib,
Bir yerda o'tirib tura qoladi.
O'z yurishim menga endi bo'ladi.
Poshsholiging menga ma'qul bo'lmadi!
Otam tirik so'rabersin yurtini,
Cho'l-u ko'lni kezib o'zim yuraman,
Yurishimni shohdin ziyod bilaman.
Agar poshsho bo'lib qolsam bu elda,
Yaxshi bo'lmas, unda yomon bo'laman!
Otam zo'rلامasin, ko'nglim bilar-da,
Otam o'lsa bir yo'rig'i bo'lar-da.
Poshsholik ishlari bir og'ir yukda,
Meni qo'ysin, o'zi so'rab turar-da!
Besh kun unda, o'n kun bunda yuraman,
Mening ko'nglim — bahodirlik qilaman.
Yomon topsam, jazosini beraman!
Necha so'zni Rustam aytib yubordi,
Rustamdan eshitdi poshsho xabardi,
Omon-eson kelib ko'rib shahrini,
Xaloyiqning barin endi qaytardi.

Sultonxon qancha gapirdi, Rustamxon: «Men poshsho bo'lmayman», — dedi. Sultonxonning o'zi yana o'z yurtida poshsholikda qoldi.

Rustam o'z yori Oftoboy bilan o'ynab-kulib, ikkovi Huroyimning duosini olib, Rustambek: «Men botirman», — deb, polvonlik, botirlikni mashq qilib yurabardi. Shunday qilib, Huroyim bilan Rustamxon murod-maqsadiga yetdi.

Tamom



- Irqilmay** — tortinmay, uyalmay ma'nosida.
- Isfihon** — qilich yoki xanjar ma'nosida.
- Iyarmoq** — ergashmoq, otidan yurmoq.
- Ishqirib** — hayqirib.
- Yigit me'roji** — yigitlarning sarasi.
- Yitirmoq** — yo'qotmoq.
- Kadi** — qovoqdan qilingan ichi bo'sh idish.
- Kadi** — mabdax — suv idish.
- Kaj** — 1) teskari, chap; 2) qiyshiq, egri; 3) g'am, qayg'u.
- Ketaberguchidi** — ketaverar edi.
- Kirovka** — ko'pincha sovut ostidan kiyiladigan, qimmatbaho mato yoxud metallardan qilingan nimcha.
- Koyiston** — epik yurt.
- Kor** — ish, xizmat.
- Ko'kulu tog'i** — epik tog'.
- Lanqa** — isnod, uyat.
- Lovdon** — qimmatbaho ro'mol.
- Lodon** — hali voyaga yetmagan, yosh.
- Lot** — 1) but; 2) o'ch, qasd.
- Mamla** — muomila, kelishuv.
- Me'roj** — sara, zo'r, yaxshi ma'nosida.
- Mildirab** — qorayib, sekin ma'nosida.
- Mug'oyib** — mung'ayib.
- Narbas** — termulmoq, ko'zi bilan izlamoq.
- Nimchala** — yarim, to'liq emas.
- Nishon bo'lmadi** — tug'ilmadi, dunyoga kelmadi ma'nosida.
- Osg'onkan** — osgan ekan.

- Osha** — 1) haddan ortiq; 2) begona, o'zga yurt.
- Og'ishib** — o'tib, kelib qolgan.
- Paraqqos boylamoq** — qush kabi uchishga hozirlanmoq.
- Pahlaz** — iflos.
- Pona** — ovloq joy.
- Pona bo'moq** — ko'zdan uzoqlashmoq, yashirinmoq, vafot etmoq.
- Ponza** — qimmatbaho i pak mato.
- Ponsari** — og'irlik o'lchovi.
- Po'ta** — belga bir necha marta aylantirib bog'lanadigan uzun belbog'.
- Sabil** — essiz, egasiz, behuda ma'nosida.
- Sara** — toza, uchqur ma'nosida.
- Sebarga** — salqin, xushmanzara.
- Sibiziq** — qamishdan qilingan musiqa asbobi.
- Surlikmoq** — aylanib turmoq, ikkilanmoq.
- So'ramoq** — hukmronlik qilmoq, yurtni boshqarmoq ma'nosida.
- Tabla** — ot maxsus boqiladigan joy, otxona.
- Tagizamin** — yerto'la, yer osti ma'nosida.
- Tay urmoq** — kezmoq, sayr etmoq, davr-u davron surmoq.
- Talqin** — diniy va'z, sharx, ta'lim.
- Tarat** — tahorat.
- Tepki** — maxsus, pishiq arqon, zanjir.
- Tilozor** — dilozor, yomon niyatli ma'nosida.
- Tobida** — ixtiyorida, hukmida.
- Tov** — tog'.
- Tog'in** — tag'in.
- Tushman** — tushi bilan, tushi tufayli, tushida ko'rgani uchun.
- Tug'dor** — 1) tug'i bo'lgan, tug' ko'targan yoki tug'ni saqlovchi kishi; 2) amaldor, yo'l boshlovchi.
- To'lg'ab** — talqon, mayda-mayda qilmoq ma'nosida.
- To'sat-to'sat** — to'da-to'da, to'p-to'p ma'nosida.
- Urganch** — dostonda epik makon ma'nosida.
- Charxin ko'l** — epik ko'l.
- Chega** — burama mix.
- Cholgan** — qoplagan, egallagan.

Chortut — to‘r choriyor ekkan to‘rt tut, Huroyimni osmoqchi bo‘lingan joy, epik makon.

Choqlamoq — hozirlamoq, tayyor qilmoq.

Cho‘t — boltaning kichik bir turi, temir asbob.

Shabgir — qora, yordamchi ma‘nosida.

Shaharman — shahar bilan.

Shobir — tovush, sas, ot yurgandan ovoz.

Sholi-sholdom — qimmatbaho mato.

Enangdaydab — enangni haydab,

Ertarak — ertaroq, vaqtliroq.

Ehchab — o‘ylab.

O‘zavonda — o‘zlaricha.

O‘lmascha — o‘lmaydigan.

O‘rlashmoq — bahslashmoq, talashib-tortishmoq.

O‘sal — noto‘g‘ri, noo‘rin ma‘nosida.

Qabarmoq — xafa bo‘lmoq, ko‘ngli qolmoq, ranjimoq.

Qarchig‘a — ovga solinadigan yirtqich, abjir qush.

Qir — tuproq.

Qirqin — qirqta.

Quvshirmoq — yopmoq, bekitmoq ma‘nosida.

Qurudum — Sultonxon tushida ko‘rgan va o‘n to‘rt yillik safarga otlangan joy, epik makon.

Qo‘laband — qo‘l-oyog‘ini bog‘lamoq.

G‘ul — bo‘yingan solinadigan yog‘och kishan.

G‘o‘chchoq — mard, botir, pahlavon ma‘nosida.

Hayat — o‘tloq.

Hukmi kush — o‘lim hukmi.

RUSTAMXON

DOSTON

Aytuvchi **Fozil Yo'ldosh o'g'li**

Tahririyat mudiri **Shoyim Bo'tayev**

Muharrir **To'lqin Alimov**

Rassom **Uyg'un Solihov**

Badiiy muharrir **Shuhrat Odilov**

Texnik muharrir **Yelena Tolochko**

Musahhah **Mahmuda Usmonova**

Bosishga ruxsat etildi 13. 09. 2007. Bichimi 70×90^{1/16}. Tayms AcademyUZ garniturası. Shartli b.t. 9,94. Nashr b.t. 8,71. Shartnoma № 66–2007. 5000 nusxa. Buyurtma № 367.

Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. 100128, Toshkent, U.Yusupov ko'chasi, 86.

82.3(5U)

R92

Rustamxon: Doston/[Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li; Yo'zib oluvchi va nashrga tayyorlovchi H. Zarifov; to'ldirib, qayta nashrga tayyorlovchilar: J. Eshonqul, Selami Fidokor]. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 136 b. (Xalq dostonlari.)

BBK 82.3(5Y)